
ONA TILI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
6-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O')ya72
O-58

Tuzuvchilar:
Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun,
Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov

Xalqaro ekspert:
Iannuzzi Susan

Taqrizchilar:

B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor.
D. Yuldasheva – pedagogika fanlari nomzodi, professor.
G‘. Hamroyev – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
N. Ergasheva – Farg‘ona shahridagi Prezident maktabi oliy toifali o‘qituvchisi.
Z. Mamatqulova – Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi 15-maktabning oliy toifali o‘qituvchisi.
S. Sodiqova – Toshkent shahridagi 202-maktabning oliy toifali o‘qituvchisi.

Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.–224 b.

Shartli belgilar

 – o‘qing.

 – savollarga javob bering.


 – yozma mashqni bajaring.

 – audiomatnni tinglang.

 – qoida bilan tanishing.

 – qiziqarli mashg‘ulot.

 – partadoshingiz bilan bajaring.

 – rasmga qarang.

 – topshiriqni bajaring.

 – uyga vazifa.

ISBN 978-9943-8170-5-0
© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA



Til – muloqot vositasi 5



Qisqacha tarjimayi holim 13



Shifoxona 25



Global isish 33



Qayta ishlanadigan chiqindilar 40



Ko‘z nurini asraylik 49



Jigar – eng mehnatkash a’zo 59



Dehqon yurtni boqadi 68



Kompyuter grafikasi 78



Teleboshlovchi bo‘lib qolsam 86



Import yoki eksport? 96



Soliqlarni to‘lab borasizmi? 105



Raqamlashgan dunyo 116



126 Mendeleyev elementlari



Yong‘in xavfsizligi qoidalari 133



142 Hadislar hikmati



Sayyohlarga gidlik qilsam-chi? 149




158 Peshtoqdagi bitiklar



Minorayi kalon 163




170 Buyuk ipak yo‘li



Miniatyura – mo‘jaz surat 176



185 Oqsaroyga bitilgan hikmat



Konstitutsiya – bosh qomusimiz 191



200 Davlatni kim boshqaradi?



O‘z deputatingizni bilasizmi? 208



214 O‘quv yili oxirida takrorlash

TIL – MULOQOT VOSITASI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• til va uning ijtimoiy ahamiyati • milliy til va qadriyatlarning uzviyligi • badiiy tasvir vositalari va ulardan foydalanish • iboralar • og‘zaki va yozma nutqning imkoniyati • nutq uslublari • asos va qo‘shimchalar • tinish belgilari.

Do‘stingizga ustozingiz aytgan biror narsa, harakat yoki holatni so‘zsiz tushuntirishga urinib ko‘ring. Bu jarayonda nimalarni his qildingiz? Tilning ahamiyati haqida o‘ylab ko‘ring.

Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.









1. Rasmlarni o‘zaro bog‘lab turgan jihat nimada deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.

2. Ayting-chi, til qanday vazifalarni bajaradi?

3. Muloqot deganda nimani tushunasiz?


4. Fikrimizni tinglovchiga qanday shakllarda yetkazamiz?


5. Yozma nutqning og‘zaki nutqdan qanday farqi bor?

6. So‘zlashuv tili bilan adabiy tilning farqi nimada?

Til – kishilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashishning muhim vositasi.
Nutq bu – odamlarning til vositasida muloqot qilishi. Nutq og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi.

Ayting-chi, yozuvchi bilan uning asarini o‘qiyotgan kitobxon o‘rtasida muloqot bo‘lishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.





Oddiy va adabiy so‘zlashuvdan qanday holatlarda foydalanamiz? Javoblaringizni namunadagidek yozing.

Adabiy so‘zlashuv	Oddiy so‘zlashuv
Dars jarayonida	*Do‘konda*

Quyidagi iboralarning ma’nosini aniqlab, yozing. Dastlab o‘ng ustundagi so‘zlar ishtirokida gap tuzing, keyin ularni chap ustundagi mos iboralar bilan almashtirib, qayta yozing. Qaysi birida ta’sirchanlik kuchli? Sinfdoshlaringiz tuzgan gaplarga munosabat bildiring.

Ibora	Ma’nosi
til biriktirmoq	aytolmadi
til degan bir qarich, tili bir quloch, tili uzun	gapirmoq
tilga tushmoq	aytgisi kelmoq
tilga kelmoq, tilga kirmoq	aytmoq
tiliga erk bermoq	**kelishmoq**
tilga olmoq	maqtanchoq
tilini tishlamoq	tanilmoq
tili qichimoq	(bemalol) gapirmoq
tili bormadi	afsuslanmoq

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan olingan parchani o‘qing. Ushbu matnga munosabatingizni yozma shaklda ifodalang. Quyidagi jihatlarga e’tibor bering:

- Muloqotga kirishgan suhbatdoshlarni aniqlang.
- Ularning nutqida qanday kamchilik bor deb hisoblaysiz?
- Matndagi ta’sirchan ifodalarni aniqlang va izohlang.
- Tinish belgilarining qo‘llanish sabablarini izohlang.
- Matn mazmunidan olgan xulosangizni yozing.

– Boshladikmi? – dedi Olimjon Olimjonovich komissiya a’zolariga murojaat qilib.

– Ta-aak, boshladik! – dedi o‘rtoq Malikov. Uchtadan-to‘rttadan bo‘lib uyning sifatini tekshirishga tushib ketishdi.

– Iye, – dedi Olimjon Olimjonovich hayron bo‘lib, – uyning kanalizatsiyasi qani?

– Qanaqa kanalizatsiya? – dedim rang-qutim o‘chib.

– Rasvo qilibsiz-ku! – deb baqirdi bosh injener. Shu payt narigi tomondan ham komissiyaning bir guruh a’zosi hovliqqancha kelib qoldi.

– O‘rtoqlar, uyni qabul qilolmaymiz, – dedi bittasi, – xonalarning hammasi qiyshiq.

– Nega endi qiyshiq bo‘lar ekan? O‘zingiz qiyshiq, – dedim jahlim chiqib. Ammo gapimni tugatmasimdan yuqoridan qahqaha ovozi eshitildi-yu, zinadan kula-kula odamlar tushib kela boshlashdi.

– O‘rtoqlar, yangilik... – dedi oldingisi o‘zini kulgidan arang tiyib, – tepadagi xonalarning hech qaysisiga eshik ochilmagan, uylar bamisoli gugurt qutisiga o‘xshaydi.

Bo‘ldi kulgi, bo‘ldi qahqaha. Qahqaha ovozlari bosilmasidan turib ko‘cha tomondan ham komissiyaning ikki a’zosi bir narsadan quruq qolayotgandek hovliqib kelib qolishdi.

Ayting-chi, moddiy va ma’naviy hayot deganda nimani tushunasiz?



Berilgan matnlarni o‘qing. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

BIRINCHI MATN

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak. U o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib va o‘qib o‘rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo‘lmay, har bir kishining tirikligi uning o‘z tajribasiga asoslangan bo‘lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy va ma’naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardi. Tilning birinchi ma’rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashib, uning ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug‘iladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta’minlanadi.

Alibek Rustamov

IKKINCHI MATN

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqlovchisi, kishilar o‘rtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot “oldi-berdi”sining timsolsiz ta’minlovchisi. U yo‘qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo‘lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o‘zida xalq, erki o‘zida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qayg‘usini bir on unutmaydi.

Nizomiddin Mahmudov

1. Bilim olishda til imkoniyatidan qanday foydalanamiz?
2. Birinchi matnda tilning ikki ma’rifiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Ular qaysilar?
3. Ikkinchi matnda tilning hayotimizdagi o‘rni qanday ifodalangan?
4. Ajdod va avlod o‘rtasidagi “oldi-berdi” nimalar bo‘lishi mumkin?
5. Til salomat bo‘lmasa, millat sochilib ketishi haqidagi fikrni izohlang. Muallif bu bilan nima demoqchi?
6. Til qanday qilib muhofaza qilinadi? Bu jarayonda siz ham qatnashishingiz mumkinmi? Qanday qilib?
7. Ikkala matn uchun qanday umumiy sarlavha qo‘yar edingiz? Javobingizni izohlang.

So‘zlarni namunadagidek tahlil qiling. Berilgan so‘zlarning barchasi ushbu qoidaga mos keladimi? O‘zingiz ham namunadagi kabi so‘zlardan topib, yozing.

Ruhiy, amaliy, ma’rifiy, aqliy, ma’naviy.

Namuna *tarixiy – tarix+iy.*

Ushbu gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosiga mos keluvchi so‘zlarni daftaringizga alohida ko‘chiring va ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

*Insoniyat til tufayli moddiy va ma’naviy hayotda **taraqqiyot**ga erishib kelmoqda.*
*Til bo‘lmasa, **tamaddun** tugaydi, u salomat bo‘lmasa, millat sochilib ketadi.*


madaniyat	ko‘tarilish	rivojlanish
harakatlanish	yuksalish	sivilizatsiya

Ikkala matnning mazmunidan kelib chiqqan holda til haqidagi xulosalaringizni namunadagidek yozing.

Namuna

- Bilim olishimizda tilning imkoniyati cheksizdir.

ONA TILIM





Ona tilim – yurak qatimdan
Mehr bo‘lib sochilgan jarang.
Qulog‘imga go‘dak paytimdan
Alla bo‘lib singigan ohang.

Ona tilim – necha asrlar
Kurashida yenggan polvonim.
Necha ajdod, necha nasllar
Suyib o‘tgan turkiy zabonim.

Ona tilim – do‘ppi kiygan So‘z,
Doim yangi yo‘lcha-atlasi.
Bir satriga tashlasangiz ko‘z,
Tovlanadi ming-ming qirrasi.

Ona tilim – asalchoy ta’mli,
Bulbultalqin, muhabbatsheva.
Lablarimga ko‘chirgum doim
Talaffuzin men seva-seva.

Ona tilim – yurak qatimdan
Mehr bo‘lib sochilgan jarang.
Qulog‘imga go‘dak paytimdan
Alla bo‘lib singigan ohang…

Iroda Umarova

1. She’r sizga yoqdimi, nima uchun?

1. Ayting-chi, ikkinchi to‘rtlikda tilimiz haqida nimaga ishora bor?

2. “Ona tilim – do‘ppi kiygan So‘z, Doim yangi yo‘lcha-atlasi” satrlarini izohlang.

4. To‘rtinchi bandda shoir nima demoqchi?

5. She’rda tire, vergul va ko‘pnuqtaning nima uchun qo‘llanganini izohlang.

Berilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra ajratib yozing.

Singigan, yenggan, yangi, ta’mli, talaffuz, satri.

She’r tarkibidan qo‘shma so‘zlarni aniqlang. Xuddi shunday 10 ta qo‘shma so‘z topib, namunadagidek yozing.

Namuna *asalchoy – asal+choy.*

Berilgan matnni o‘qing va mazmunini tushunganingiz asosida yozing.



O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

4-modda

Ushbu matnning yuqoridagi she’r matnidan qanday farqi bor? Javobingizni izohlang.

Siz ona tilini nimalarga o‘xshatgan bo‘lar edingiz? O‘zingizning o‘xshatmangizni muallif o‘xshatmasi bilan taqqoslang. Ona tilimiz haqidagi o‘zingizga yoqqan she’rni yozing va yoddan aytishga tayyorlaning.

1. Televideniye, radio va ko‘cha-ko‘yda ona tilimizga nisbatan qanday holatlar sizni tashvishlantiradi? Nima uchun?
2. Bugungi kundagi ona tilimiz bilan bog‘liq qaysi ijobiy va salbiy jihatlar haqida kelajak avlodga xabar yetkazishni istar edingiz?

Berilgan rasmlar asosida tilga bo‘lgan munosabatni muhokama qiling.


















Tilning ajdodlarimizdan bizga meros ekani, uni saqlab qolish yo'llari haqida kelajak avlod uchun maktub qoralamasini tayyorlang.

- Maktubni qanday so'zlar bilan boshlaysiz?
- Tilimizning qaysi jihatlari bilan faxrlanasiz?
- Sizni tilimiz bilan bog'liq nimalar xavotirga solyapti?
- Kelajak avlodlar uchun tilni asrashga oid qanday tavsiyalar berasiz?
- Kelajak avlodlar ham o'qishi lozim deb bilgan sevimli asarlaringiz qaysi?

Qoralama maktubingizni oqqa ko'chiring.

Sinfdoshlaringiz yozgan maktublarni tinglang. Ularga munosabat bildiring.

Quyidagi fikrlarni o'qing. O'rganganlaringiz asosida tilning inson hayotidagi o'rni haqida ijodiy matn yozing. Fikrlaringizni she'r shaklida ifodalashingiz ham mumkin.

Ona tilimiz, undagi noyob so'z va iboralar, hikmatlar, maqol va matallar asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba asosida shakllangan, to'plangan va sayqal topgan bo'lib, bu noyob xazina biz, bizdan keyingi avlodlar uchun bebaho meros hisoblanadi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan turmush tarzi, orzu-umidlari, zulm va istibdodga qarshi kurashlari, shu bilan birga, ezgu insoniy fazilatlari, bag'rikengligi, mard va tantiligi, haqso'z va mehnatsevarligi son-sanoqsiz maqol va matallarda, hikmatli rivoyatlarda o'z ifodasini topgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu boisdan ham tilga e'tibor berish, uni milliy boylik sifatida sevib-ardoqlash, boyitish, kelajak nasllarga butun tarovati, zavq-shavqi bilan yetkazish bizning ajdodlar ruhi oldidagi ma'naviy burchimiz hisoblanadi.

Ahmadjon Meliboyev

QISQACHA TARJIMAYI HOLIM

Bu mavzuda o‘rganamiz

• *tarjimayi hol va uning yozilish tartibi* • *muhim ma’lumotlarni ajratish* • *matn turlari* • *ko‘pnuqtani qo‘llash.*

Berilgan rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.

1

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi

“Mening innovatsion g‘oyam” tanlovi

Tanlov yo‘nalishlari:


1. **“Mening birinchi dasturim” loyihasi.**
2. **“Men novatorman” mavzusida esse.**
3. **“Mening innovatsion g‘oyam” mavzusida esse.**

Tanlov 2 xil yosh toifasidagi (8–10, 11–14) bolalar o‘rtasida bo‘lib o‘tadi.

mininnovation.uz




2



1. Birinchi rasmdagi tanlov tashkilotchisi kim?
2. Bu tanlov haqidagi ma’lumotlarni qaysi saytdan olish mumkin?
3. Tanlov qanday yo‘nalishlarda bo‘lib o‘tadi?
4. Bu tanlovda siz qatnashishingiz mumkinmi? 9 yoshli ukangiz-chi? Javobingizni izohlang.
5. Siz tanlovning qaysi yo‘nalishida ishtirok etishni xohlardingiz?
6. 2-tanlov nima haqida? Sizningcha, bu tanlovning maqsadi nima, uning tashkilotchisi kim?
7. Bunday tanlovlarda odatda o‘zingiz haqingizdagi qanday ma’lumotlarni taqdim etish so‘raladi?

O‘zingiz haqingizdagi quyidagi ma’lumotlarni daftaringizga yozing.



O‘zingiz haqingizdagi eng muhim ma’lumotlarni bilasizmi?

Ism, familiya va otaism, tug‘ilgan vaqtingiz va joyingiz

Oila a’zolaringiz, ularning kasbi, faoliyati

Maktabingiz, maktabdan tashqari faoliyatingiz, qiziqishlaringiz

Ikki ustundagi gaplarni o‘qib chiqing hamda ularni o‘zaro solishtiring. Savollarga javob bering.

1	2
Har qanday holatda kitob o‘qirdim: darslar oralig‘idagi tanaffus paytlarida, ovqat yeyayotganda, mehmonga borganda, to‘y bo‘layotganda (tomning ustiga chiqib o‘qiyverasan – sen bilan birovning ishi yo‘q!)... Hatto yurib ketayotganda ham urilib-surilib o‘qiyverardim. Mol boqishga chiqqanda ham, albatta, kitob ko‘tarib olardim. Mol boqib kitob o‘qish eng qiyin ish edi.	Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi. Abdulla Avloniy o‘z xizmatlari bilan o‘zbek ma’rifatchiligi rivojiga juda katta hissa qo‘shdi. Tarjimayi hol hikoya uslubida yoziladi. Bizning yangi hovlimiz Abdulla Qahhor ko‘chasida joylashgan. Har bir millat o‘z tilining sofligini saqlagan holda faxr bilan so‘zlashi kerak.

1. Qaysi ustundagi gaplar bir-biri bilan mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan? Javobingizni izohlang.
2. Birinchi ustundagi gaplarni qaysi mavzu o‘zaro bog‘lab turibdi? 2-ustunda-chi?
3. Qaysi ustundagi gaplarni matn deyishimiz mumkin? Qaysi xususiyatlariga ko‘ra?

Matn mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan gaplardan tuziladi. U og‘zaki yoki yozma nutqning parchasi bo‘lishi mumkin.

Sizda ham innovatsion g‘oyalar bormi? Ular haqida o‘ylab ko‘ring. Keyingi darsda 1-tanlov uchun esse yozishga tayyorlaning.

Tanlov matni bilan tanishing. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

O‘ZBEKISTON: BOLALAR UCHUN ESSELAR TANLOVI!

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligidan

O‘tkazish hududi: O‘zbekiston.
Kim uchun: 8–10, 11–14 yoshdagi bolalar uchun.
Ariza topshirish muddati: 15-martdan 15-aprelgacha.

Asosiy ma’lumot:

Iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tanlov e’lon qiladi.

Tanlov ikkita yosh toifasi (8–10, 11–14 yosh) bo‘yicha o‘tkaziladi, topshiriqlar yoshga qarab beriladi hamda har bir guruh bo‘yicha 2 nafardan g‘olib saralab olinadi.

Tanlovdagi ijodiy ishlarga qo‘yiladigan talablar:

1. Barcha ijodiy ishlarga mininnavation.uz/esse manzilida berilgan anketa to‘ldirilgan holda ilova qilinishi kerak.
2. Tanlovga har bir ishtirokchi bittadan ijodiy ish taqdim etish huquqiga ega. Ijodiy ishni bir kishi bajargan bo‘lishi zarur, hamkorlikda bajarilgan ishlar qabul qilinmaydi.
3. Tanlov uchun yuborilgan ijodiy ishlar o‘zbek tilida bo‘lishi shart.
4. Taqdim etilgan ijodiy ish tarkibida rangli suratlar, fotolavhalar bo‘lishi mumkin, ammo qat’iy talab etilmaydi.

Tanlov shartlari:

8–10 yosh toifasi uchun

“Men novatorman” mavzusida 100–110 ta so‘zdan iborat esse yozib, uni @innovator_esse “Telegram” guruhiga joylashtiring.

11–14 yosh

“Mening innovatsion g‘oyam” mavzusida 110–150 ta so‘zdan iborat esse yozib, uni @innovator_esse “Telegram” guruhiga joylashtiring.

Tanlovga kelgan ijodiy ishlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Ijodiy ishning mazmuni yuqorida ko‘rsatilgan mavzuga mos kelishi lozim.
2. Ijodiy ishda muallifning shaxsiy qarashlari va ijodiy fikrlari aks etishi lozim.
3. Ijodiy ishlar hajm jihatidan berilgan talablarga mos bo‘lishi kerak.
4. Yozma ijodiy ishlarda imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga imkon qadar yo‘l qo‘ymaslik lozim.



Ijodiy ishning tanlovga qabul qilinishi uchun to‘siq bo‘ladigan sabablarni aniqlang hamda ularni daftaringizga izohlab ko‘chiring.

Namuna *Ijodiy ishni 15 yoshli o‘quvchi yuborgan bo‘lsa, bu ish baholanmaydi, chunki...*

1. Ijodiy ishni 15 yoshli o‘quvchi yuborgan.
2. Ijodiy ishda unga bog‘liq fotolavhalar mavjud emas.
3. Ijodiy ishning bir necha o‘rinlarida imloviy, ishoraviy xatolar mavjud.
4. Ijodiy ishni boshqa millatga mansub o‘quvchi o‘zbek tilida yozgan.
5. Ijodiy ishni Anvar va uning akasi birgalikda tayyorlashgan.

Yuqoridagi matn yordamida quyidagi savollarga javob berish mumkinmi? Mumkin deb hisoblagan savollaringizga javob yozing.

1. Tanlovda ishtirok etish uchun so‘rovnomani to‘ldirish zarurmi?
2. Taqdim etilayotgan ijodiy ishlar qaysi mavzuda bo‘lishi kerak?
3. Ijodiy ishlarni qaysi sanagacha taqdim etish mumkin?
4. Tanlov g‘olibi qanday mukofot bilan taqdirlanadi?
5. Har yili ushbu tanlovda qancha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi?
6. Ijodiy ishlar qanday mezonlar asosida baholanadi?
7. Tanlovning borishini televideniye orqali kuzatish mumkinmi?
8. Tanlov g‘oliblari qachon aniqlanadi?

Qatnashchi yo‘llagan ushbu esse bilan tanishib chiqing va quyida berilgan jadvalda so‘ralgan ma’lumotlarni daftaringizga yozing.

Bugun yurtimizda zamonaviy texnologiyalarni yaratishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Sababi ular insonlarning hayotini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Men 10 yoshdaman. Mening bobom – fermer. Ular dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar va har yili yetishtirgan mahsulotlarini yig‘ib olishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, piyoz va kartoshkalarni kattasini kattaga, o‘rtachasini o‘rtachaga, kichigini kichikka ajratish uchun juda ko‘p vaqt va kuch sarflaydilar.

Bobomning ushbu ishlariga yordam berish maqsadida yaqinda men kichik bir uskuna ishlab chiqishni rejalashtiryapman. Bu uskunaning o‘zi meva va sabzavotlarni kattaligi bo‘yicha saralab beradi. Keyinchalik uskunani yanada takomillashtirib, biryo‘la mahsulotlarni qoplarga solish yoki yashiklarga joylab chiqish vazifasini ham bajaradigan qilmoqchiman.

Bu g‘oyamni eshitgan bobom juda xursand bo‘ldilar. “Nima yordam kerak bo‘lsa, aytaver, o‘g‘lim!” – dedilar. Men o‘z g‘oyamni qanday amalga oshirish ustida juda ko‘p o‘ylayapman va bu borada aniq rejalar ishlab chiqqanman.

Tanlov guruhi (yosh bo‘yicha)	?
Esse mavzusi	?
Asosiy g‘oya	?
Esseni jo‘natish manzili	?

Tarjimayi hol ma’lum bir shaxs o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilib yozgan matndir. U qisqa yoki to‘liq shaklda yozilishi mumkin.

Tarjimayi hol erkin tuzilsa-da, unda ayrim ma’lumotlar bo‘lishi shart.

Siz ham ushbu tanlovda ishtirok etishingiz mumkin. Buning uchun o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotlarni quyida berilgan jadval ko‘rinishida ifodalang. G‘oyalaringizni esa esse shaklida yozing. Bunda yuqorida berilgan talablarga rioya qiling.

SO‘ROVNOMA	
T/r	**Tanlov ishtirokchisi haqida ma’lumotnoma**
1	Familiyasi, ismi, otaismi
2	Yoshi
3	Yosh guruhi
4	Ta’lim olayotgan muassasasi nomi va manzili
5	Yashash manzili
6	Telefon raqami
7	Ota yoki onasining telefon raqami

Matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering.

...Men maktabga borgan yillarim qishloq bolalari chit, bo‘z, tirinka matolardan tikilgan kiyimlarni kiyishar, qishloqda o‘ntadan bittasida telpak, palto, magazinning jun shimi bo‘lsa bo‘lar, qolganlari to‘n yoki fufaykacha, po‘pakli ishtonbog‘i sonida sangillab turuvchi qo‘lbola ishton, kirza etikcha va do‘ppida yurardi. Qizlar esa kamzul ustidan xaltaga o‘xshash paxtali baxmal chopon kiyishar, boshga qalin ro‘mol o‘rashar, jajjigina kalish-maxsi oyoqlariga juda yarashib turardi.

O‘quvchilar sumkasi degan narsaning o‘zi yo‘q edi. Onalarimiz qalin matodan xalta tikib berar, uning bo‘yinga ilib oladigan uzun bog‘ichi, siyohli dovot solinadigan cho‘ntakchasi bo‘lardi. O‘qituvchimiz qayta-qayta uqtirishiga qaramay, siyohga botirilgan ruchkaning perosini dovot chetiga bir surtib olishni esdan chiqarib qo‘yaverardik, natijada, ortiqcha siyoh goh daftarimizga tomib tushardi, goh qo‘limiz rangga belanardi. Shu qo‘l bilan beixtiyor burun artsak, ustki labimizda rangmo‘ylov paydo bo‘lib, kulgiga qolardik.



Tanaffus bo‘ldi deguncha birov mulla aka (o‘qituvchi)mizga qo‘shilib radio tinglar, birov kitob xaltasiga solib kelgan nonini kavshay boshlar; ko‘pchiligimiz qiy-chuv bilan quvlashib yurib, darsga qo‘ng‘iroq bo‘lganidagina maktab yonidan oqib o‘tuvchi ariq sari chopardik, yerga yotganimizcha og‘zimizda simirib suv icha boshlardik.

...Iloji boricha kunduzi dars tayyorlashga urinardim. Qorong‘iga qolsang, kerosin isi anqib turadigan lampachiroq ko‘zingni toliqtirgandan toliqtirib tashlaydi. Endigina paydo bo‘lgan elektr chiroqlari oyiga uch-to‘rt yiltillagan bo‘ladi. Shundayam shamdan xira. Bu yetmagandek, umumiy qilib solingan ko‘rpada qatorlashib yotgan opa-ukalaring: “Chiroqni o‘chir! Uxla!” – deb tixirlik qila boshlaydi.

Anvar Obidjon,
O‘zbekiston xalq shoiri

1. Muallifning maktabga borgan yillari haqidagi taassurotlaridan nimani anglash mumkin? Shoirning bolalik yillari qanday o‘tgan deb hisoblaysiz?
2. Shoir va uning tengdoshlarining maktabdagi vaqti qanday o‘tgani haqida gapiring. Siz va sinfdoshlaringiz tanaffusda nimalar bilan shug‘ullanasiz?
3. Nima uchun muallif imkon qadar kunduzi dars tayyorlashga harakat qilgan? Bu davrdagi bolalarning imkoniyatlari haqida fikr bildiring.
4. Shoirning bolalik yillari qaysi jihatlari bilan sizga yoqdi?

Berilgan so‘zlarni izohlari bilan moslab ko‘chiring.

chit | bo‘z | tirinka | kirza etik | dovot | fufaykacha

1. Suv o‘tkazmaydigan, pishiq sun’iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim.
2. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ko‘pincha jezdan quyilgan yoki loydan (Xitoyda chinnidan ham) yasalgan siyohdon.
3. Xom pishitilgan paxta ipidan qo‘l dastgohida to‘qilgan mato.
4. Paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama.
5. Ust kiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarim jun gazlama.
6. Paxta solib qavilgan, oldi tugmalab qo‘yiladigan kalta kiyim, kurtka.

Matnning ajratib ko‘rsatilgan qismlarida qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Nima uchun aynan shu tinish belgilari ishlatilganini izohlang. Gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

Gap mazmunan tugallanmay qolganda ko‘pnuqtadan foydalaniladi. Bundan tashqari, so‘zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalanganda, matnda ayrim qismlar olib tashlanganda hamda dialoglarda suhbatdoshning gapi javobsiz qolganda ham ko‘pnuqta qo‘yiladi.

Matn xatboshilari uchun sarlavhalar topib yozing.


Biror shoir yoki yozuvchi haqidagi ma’lumotlar asosida 2 daqiqalik audiomatn tayyorlang. Unda yozuvchi haqidagi muhim ma’lumotlar aks etsin. Yozib olgan audiomatningizni qayta-qayta eshiting. Nutqingizda qanday kamchiliklar borligini qayd eting.

Anvar Obidjon haqidagi matnning davomini tinglang. Savollarga javob bering.





1. Qahramonning kitobga munosabati haqida sizda qanday tasavvur paydo bo‘ldi? Ayting-chi, magazin mudiri nima uchun bolaga hadeb kitoblarni tavsiya qilavergan?
2. Farg‘ona safari davomida bolaning hayotini o‘zgartirib yuborgan narsa nima edi?
3. Bolaning she’r yoza boshlashi, undagi kechgan hislar haqida fikr bildiring.
4. Jurnal xodimi haqida qanday fikrdasiz? Javobingizni izohlang.
5. “Tahrir” deganda nimani tushunasiz? Bu qanday jarayon?
6. “Endi meni shoirchilikdan bezitish tugul, havaskorligimga ishontirish ham amrimahol edi.” Muallifning ushbu fikrini izohlang.



Biz biror narsa yoki voqea-hodisa haqida xabar berish, ma’lum bir mavzuda hikoya qilish, tasvirlash yoki muhokama maqsadida matnlar tuzamiz. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, matnlarni quyidagi turlarga ajratamiz:

1. Hikoya matni.
2. Tasviriy matn.
3. Muhokama matni.

Audiomatn uchun eng mos sarlavha qaysi deb o‘ylaysiz? Nima uchun? Siz yana qanday sarlavhalarni taklif qilasiz?

Kitobga muhabbat | Bolalik orzulari | Kitob – bilim bulog‘i

Shoirlik sari qadam | Havaskor shoir | Ijoddagi ustozim

Matn asosida berilgan to‘g‘ri fikrlarni aniqlab, yozing. Noto‘g‘ri gaplarni esa to‘g‘rilab ayting.

Bolaning ko‘pincha aralash mollar do‘konidagi kitoblarni sotib olishga puli yetmasdi.

“G‘uncha” jurnalidagi she’rlardan ko‘ra yaxshiroq yoza olish hissi bolada shoirlikka ishonch paydo qildi.

Bolaning ilk bosilib chiqqan she’ri uy jihozlaridan biri haqida edi.

“G‘uncha” jurnali xodimi bola yuborgan she’rlarga munosabat bildirmay, qaytaraverardi.

Shoirning ilk she’ri u 6-sinfda o‘qiyotgan paytda bosilib chiqdi.

Ilk she’ri bosilgach, bola havaskor shoirligiga o‘zi ham ishonmasdi.

Tushib qolgan vergul va ko‘pnuqtalarni qo‘yib ko‘chiring.

Hatto bir safar injiqligim tutib men har xil she’rlar yuboraman lekin kelayotgan javoblar deyarli bir xil kamchiliklarimni yaxshiroq tushuntirib uzunroq qilib yozinglar desam shunga ham chidadi; endi bir yarim ikki betlab xat yozadigan falon she’rlaringiz ancha tuzuk uning falon-falon joylarini boshqacharoq ifodalab ko‘ring deya erinmay yo‘riqchilik qiladigan bo‘ldi

Ayting-chi, Anvar Obidjon haqidagi matn matnning qaysi turiga kiradi? Nima uchun ushbu fikrga keldingiz?

To‘g‘ri yozilgan so‘z va birikmalarni ko‘chiring.

maqtanchoqlik	maxtanchoqlik
“G‘uncha” jurnali	G‘uncha jurnali
shoyir	shoir
xayol	hayol
peshma pesh	peshma-pesh
anglatsada	anglatsa-da
savodim chiqqach	savodim chiqgach

Hayotingizda bo‘lgan biror voqea asosida qiziqarli matn yozishga harakat qiling.

- Bu voqea qachon bo‘lgan?
- U qanday sodir bo‘lgan?
- Hayotiy voqeadan chiqargan xulosangiz.



Berilgan yo‘riqnoma asosida tarjimayi holingizni yozing.

Hujjat nomi

- familiyasi, ismi va otaismi
- tug‘ilgan yili, kuni va oyi
- millati
- ijtimoiy kelib chiqishi (shifokor, ishchi kabi)
- ota-ona, aka, opa, uka va singil haqida qisqacha ma’lumot
- qaysi maktabga qachon qabul qilingani
- hozir nechanchi sinfda o‘qishi
- jamoat ishlaridagi ishtiroki
- qiziqishlari
- yashash manzili
- imzo
- sana



Tarjimayi hol oddiy oq qog‘ozga yoki bosma ish qog‘ozlariga yoziladi. Matni birinchi shaxs tilidan ifodalanadi, bayon qilish hikoya uslubida bo‘ladi. Ma’lumotlar ketma-ketlikda yozilishi shart. Tarjimayi holingiz bilan tanishgan kishi siz haqingizda ma’lum tasavvurga ega bo‘ladi.



Partadoshingiz bilan yozgan tarjimayi holingizni almashtiring. Matn bilan tanishib, xatolaringiz ustida birgalikda ishlang.



Mashhur olimlardan birining tarjimayi holini topib, tanishib chiqing. Olgan xulosalaringizni daftaringizga yozing.

MUSTAHKAMLASH

Berilgan matnni o‘qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping.

...

To‘rt-besh yoshlarimdan boshlab bu dunyoning voqea va hodisalari xotiramda qolgan. Urushdan qaytmaganlarning azalari-yu, qaytgan mayib-majruh qishloqdoshlarimning qo‘ltiqtayoqni to‘qillatib yurganlari esimda. Ocharchilik, odamlarning kunjara yeganlarini ko‘p ko‘rganman. Biz oilada to‘rt o‘g‘il, to‘rt qiz o‘sganmiz. Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o‘quv yurtlarida, til-adabiyot fakultetlarida o‘qishardi. Tabiiyki, ular ko‘tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib o‘qiy olardim. Men bugungi kunda g‘oyatda ajablanib shularni eslayman. Negadir bolaligimda xotiram nihoyatda kuchli edi. Bir o‘qiganim esimda qolaverardi. Radio, televideniye yoxud boshqa tomoshalar bo‘lmaganidan keyin, ermagim kitob edi-da. Duch kelgan narsani o‘qib, duch kelgan narsani yodlab olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’riyati va yana boshqa ko‘p roman-u qissalar bo‘lardi. Endi she’rlar yoza boshlaganimda bunga nima turtki bo‘lganini aniq bilmayman. Har holda, so‘zlarni qofiyalashga ishqiboz bo‘lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimanidir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo‘q. Yozmaslikning ham iloji yo‘q. Shuning uchun ona, maktab, brigadir, Nodir kabi so‘zlarni o‘zimcha she’rga solib, aylantirib yurardim.

Abdulla Oripov,
O‘zbekiston xalq shoiri



1. Matn muallifi haqida qanday ma’lumotga egasiz?
2. Urush fojiasi berilgan qismni qayta o‘qing va unga munosabat bildiring.
3. Shoirning ermagi nima uchun kitob bo‘lganini izohlang. Bu fikr sizning hayotingizga qay darajada mos?
4. Shoirning oilaviy muhiti haqida sizda qanday tasavvur paydo bo‘ldi?
5. Ushbu matnning maqsadiga ko‘ra turi qaysi? Nima uchun bu fikrga keldingiz?
6. Matnda nechta xatboshi bor deb hisoblaysiz? Javobingizni izohlang.
7. Matnga qanday sarlavha qo‘ydingiz? Nima uchun?
8. Matnda qo‘llangan vergullarga e’tibor bering. Nima uchun ishlatilganini izohlang.

Matn tarkibidagi atoqli otlarni ko‘chirib yozing.

Tarjimayi hol matnidagi xatolarni aniqlang va ularni to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring.

Tarjimai xol

Men 2009 yilda 10-martda Sirdaryo viloyatida Guliston shaharida tavallud topganman. Men bog‘bon oilasida tug‘ilganman. Men 2016 yilda Gulistondagi 177 maktabga o‘qishga kirdim. Hozirgi vaqtda shu maktabda yaxshi o‘qiyapman.

Yashaydigan joyim: Sirdaryo viloyatida Guliston shahari Farovon ko‘chasi, 10 uy.

Men matematika adabiyot ona tili va tarbiya fanlariga qiziqaman. Men jismoniy tarbiyani juda-juda yaxshi ko‘raman. Darsdan keyin shaxmat to‘garagiga qatnayman.

Dadam Otabekov Jamshid Abdulla o‘g‘li kasalxonada doktorlar, ayam esa Uzoqova Bahoroy Omonovna uydalar.

Katta akam Abdullayev Ikrom akademik litseyda o‘qiydilar. O‘rtancha akam Abdullayev Doston 10-sinfdalar. Kichkina akam Abdullayev Haydarali 8-sinf o‘quvchisilar. Bitta singilcham bor. Oti Kamola. 2-sinfda o‘qiydi.

14 yanvar 2022 yil *Abdullayev Umid*

O‘rganganlaringiz asosida oila a’zolaringizdan biriga o‘z tarjimayi holini yozdiring. Xatolar bo‘lsa, aniqlab, tuzatishga yordamlashing. O‘qituvchingizga bu haqda og‘zaki ma’lumot bering.


SHIFOXONA

Bu mavzuda o‘rganamiz

• shifoxona xizmatidan foydalanishga oid tavsiyalar • grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish • tibbiyot sohasiga oid til birliklari • so‘z va uning ma’nodoshlari • undalma.

Mavzuga oid so‘zlarni tinglang hamda talaffuz qiling. Ushbu so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili yoki izohini topishga harakat qiling.

Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.


okulist



nevropatolog


stomatolog



kardiolog


xirurg


dermatolog


LOR


endokrinolog


pediatr

1. Shifoxona deganda xayolingizda birinchi nima gavdalanadi?
2. Siz qaysi shifokor qabulida bo‘lgansiz?
3. Shifoxonada bemorlar qabul qilinuvchi xonalar qanday nomlanadi? Ularning o‘zbek tilida muqobili bormi? Qanday?
4. Shifokor qabulida eng ko‘p qaysi so‘z va gaplar ishlatiladi?

Rasmlar asosida atamalarni izohlab yozing.

Namuna *pediatr – bolalar shifokori.*

Shifoxona mavzusiga aloqador so‘z va so‘z birikmalarini topib, yozing.

Namuna *tashxis, kasallik varaqasi.*

Shifokor va bemor o‘rtasidagi suhbatda qanday so‘z va gaplardan foydalaniladi? Yozing.


Namuna *Sizni nima bezovta qilyapti?*





Quyidagi diagrammada bemorlarning qanday kasalliklarga chalinayotgani haqida statistik ma’lumot berilgan. Diagrammaga qarab, hududlar bo‘yicha kasalliklar ulushi haqida so‘zlab bering. Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor qarating:

- jadvalning nomi;
- hududlar;
- ranglar nimani ifodalayotgani;
- raqamlarda nimalar aks etgani.




Shifokor ko‘rigiga borishda qanday muhim gigiyenik qoidalar va muomala odobiga amal qilish kerakligiga oid tavsiyalar yozing.

Namuna *Bolalar, shifokor ko‘rigiga bormoqchi bo‘lsangiz, tanangiz toza holatda bo‘lishi kerak.*

O‘ylab ko‘ring-chi, tabib bilan shifokorning qanday farqi bor?

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

AMIR



Abu Ali ibn Sino **kasal** bo‘lib yotgan **Buxoro** amirini ko‘rgach, unga dori-darmon berib, **uch** kun o‘rnidan qimirlamasdan yotishni buyuribdi. Ertasiga amirning sog‘lig‘idan xabar olgani kelsa, o‘rnida yo‘q, bog‘da aylanib yurgan ekan.

Amirning bog‘ kezib yurganini ko‘rgan Ibn Sino undan **ranjibdi**, amirga hech narsa demabdi-yu, u bilan birga kezib, yo‘lni ataylab amir yotog‘iga buribdi.

Amir o‘rniga kirib yotgach, uning **tomir**ini ushlab ko‘ribdi, ko‘ziga diqqat qilibdi, yana dori-darmon berib, uch kun yotib dam olishni tayinlabdi. Lekin **bu** gal u ilgari aytganidan qattiqroq ta’kidlaganini payqagan amir **yosh** tabibga qarab:

– O‘zing yoshsan-u, tiling **burro**-ya, amirlar bilan gaplashishni ham bilmaysan, – **debdi** kulib.


– Siz xalqqa amir bo‘lsangiz, tabib tan amiridir. Odatda kim buyruqni bajarmasa, amir unga jazo beradi. Rost, **siz** mamlakat, el-yurt amirisiz, lekin betobligingizda tabibga itoatkorsiz. Buyruqqa bo‘ysunmagan **amaldorlar** bilan yurtni idora qilib bo‘lmaganidek, tabib ham buyruqqa bo‘ysunmagan betoblar ustidan hukm yuritolmaydi, – debdi Ibn Sino.

– Tiling o‘tkir-u, lekin gaplaringda mantiq bor, juda dadil yigit ekansan. Bo‘ldi, amirni yengding, endi amir amirga itoat qiladi, – debdi kulib hukmdor.

U shunday debdi-yu Ibn Sinoning aytganlarini bajo keltirishga **jazm qilibdi** va bir necha kundan so‘ng **sog‘ayib ketibdi.**

Har bir yurtda bo‘lgan kabi malik-u shoh,
Tabib erur tan amiri – darddan ogoh.

Abu Ali ibn Sino haqida afsona va rivoyatlardan



1. Abu Ali ibn Sino nima uchun Buxoro amiriga qimirlamasdan yotishni buyuribdi?
2. Ibn Sino amirning bog‘ kezib yurganini ko‘rib undan ranjidi, ammo hech narsa demadi. Bu holatni qanday izohlaysiz?
3. Buxoro amiri nima uchun o‘z tabibidan norozi bo‘libdi?
4. Xalq amiri va tan amiri o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? O‘z fikrlaringizni izohlang.
5. Matn oxirida berilgan misralar mazmunini tahlil qiling. Qanday xulosa chiqarganingiz haqida gapiring.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadval asosida so‘z turkumlariga ajratib, daftaringizga ko‘chirib oling.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l
?	?	?	?	?

Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.

kasal	ranjimoq	sog‘aymoq	itoat
amir	dam olmoq	jazm qilmoq	

Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring. Ularning ma’nosini izohlang.


..... (ganj, boylik, xazina) ning boshi – sog‘lik.	Kasal – bitta, ... (shifo, davo, dori)si – mingta.
Kasalga .... (bol, asal) ham bemaza tuyular.	Chiniqqanga gard yuqmas, Tiniqqanga – .... (balo, ofat, dard).
Qorning ochmasdan ovqat ..... (iste’mol qil, ye, tanovul qil), qorning to‘ymasdan qo‘l artgin.	

Bolalar uchun tavsiya etiladigan biror vitamin preparatining yo‘riqnomasi bilan tanishing. U haqdagi ma’lumotlarni yozing.

- *nomi;*
- *shakli (suyuq, kapsula yoki tabletka);*
- *qo‘llash sharti...*

Matn bilan tanishing. Savollarga javob bering.

ZAXIRA QO‘SHINNING UYI



“Boshi berk ko‘cha” degan iborani ko‘p eshitgansiz. Bu kirish joyi bo‘lib, chiqish joyi yopiq ko‘chaga aytiladi. Bilasizmi, inson organizmida ham shunday a’zo bor. U appendiks deb ataladi.

Qornimizning ichida yo‘g‘on ichak degan, qazi yoki kolbasaga o‘xshab ketadigan a’zo bo‘lib, uning boshlanish qismi ko‘richak deb ataladi. Appendiks esa ko‘richakka ulangan, uzunligi 5–10 cm keladigan chuvalchangsimon a’zo. Appendiksning og‘rib qolishi esa “appenditsit kasalligi” deyiladi. Demak, “Ko‘richagimni oldirib tashladim” degan gap noto‘g‘ri. Odam ko‘richaksiz yashay olmaydi. Shifokorlar faqat ko‘richakka ulangan jajji appendiksni olib tashlaydilar, xolos.

Appendiksni kichkina xaltachaga o‘xshatish mumkin. Uning ichida turli bakteriyalar yig‘iladi. Olimlar uzoq yillar davomida appendiksni odam uchun keraksiz a’zo deb hisoblashgan. Hatto Germaniyada yangi tug‘ilgan bolaning appendiksi jarrohlik yo‘li bilan olib tashlangan. Ammo 2007-yilda amerikalik olimlar appendiks juda muhim, kerakli a’zo ekanini isbotlashdi. Bu jajji xaltachaning ichida immun tizimining foydali bakteriyalardan iborat katta qo‘shini “uxlab” yotadi. Agar yo‘g‘on ichakda zararli bakteriyalar ko‘payib, qorningiz og‘rib qolsa va immun “qo‘shini” ularni yenga olmasa, appendiks ichidagi zaxira “qo‘shini” yordamga keladi!

Ammo ayrim bolalarning ko‘p miqdorda yog‘li ovqat, pista va yong‘oq iste'mol qilishi oqibatida appendiks ichi zararli bakteriyalar bilan to‘lib, kasallanib qolishi mumkin. Bunda oldiniga kindik yuqorisi, so‘ng qorinning o‘ng tomoni qattiq og‘riydi. Ko‘ngil aynib, tana harorati ko‘tariladi. Bu vaqtda tez shifoxonaga borish shart. Appendiks jarrohlik yo‘li bilan olib tashlanadi.

Sa'dullo Quronov

1. Matnda “boshi berk ko‘cha”ga o‘xshatilgan inson a’zosi qaysi ekan?
2. Ayting-chi, ko‘richak va appendiks bitta a’zomi?
3. Appendiks qanday a’zo, uning ko‘rinishi, qayerda joylashgani haqida ma’lumot bering.
4. Appendiksning inson salomatligidagi o‘rni qanday?
5. Appendiksga zarar keltiradigan odatlar haqida gapiring. Sizda ham shunday odatlar bormi?
6. Appenditsit qanday kasallik, uning belgilari haqida nimalarni bilib oldingiz?
7. Nima deb o‘ylaysiz, ushbu ma’lumotlar kim uchun (bolalar, kattalar) yozilgan? Nima uchun bunday fikrga keldingiz?

O‘zingiz yaxshi biladigan kasallik turi haqidagi ma’lumotlardan foydalanib bolalar gazetasi uchun maqola tayyorlang. Quyidagi boshlanmalardan foydalanishingiz mumkin.

Bilasizmi, bolalar, ... – xavfli kasalliklardan biri.
Qadrli tengdoshim, dunyoda juda ko‘p odamlar ... kasalligidan aziyat chekadi. Chunki ...
Aziz yurtdoshlar! Bugun men sizga ... kasalligi haqida so‘zlab bermoqchiman.

Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradi.

Bolalar, *salomatligingiz o‘z qo‘lingizda ekanini unutmang!*

She’rim, *yana o‘zing yaxshisan.*

Undalmalardan biror kishining diqqatini qaratishda foydalanamiz, shuning uchun ular undash, chaqirish ohangi bilan aytiladi.

Undalmalar bir so‘z yoki birikma holatida qo‘llanishi mumkin.

Aziz yurtdoshlar, *karantin qoidalariga rioya qiling!*

Undalma gap boshida kelsa, undalmadan keyin; o‘rtasida kelsa, ikki yonidan; oxirida kelsa, undan oldin vergul qo‘yiladi.

O‘sha kuni, ***qizim,*** *sendan hech kim ranjimagan edi.*

Matndan quyidagi so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlarni topib, yozing.

Kim? | Kimlar? | Nima? | Nimalar? | Qanday? | Necha? | Nima qildi?

Yozgan ma’lumotlaringiz asosida partadoshingiz bilan shifokor va bemor suhbatini uyushtiring. Unda qanday undalmalardan foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Kasal bo‘lmaslik uchun do‘stingizga tavsiyalar yozing. Bunda undalmalardan foydalaning, tinish belgilarining qo‘llanishiga oid qoidalarga rioya qiling.

Berilgan fikrlarni o‘qing va munosabat bildiring.

Bolalar, biz o‘zimizni ham, atrofdagi narsalarni ham doim ozoda saqlashimiz lozim. Har birimiz quyidagi besh narsani toza saqlashni o‘rganishimiz kerak:

1) *tana a’zolari;*
2) *kiyimlar;*
3) *shaxsiy buyumlar;*
4) *uy va xonalar;*
5) *atrof-muhit.*

HAR BIR SOHADA TOZALIK MUHIMDIR

Har bir sohada tozalikka ahamiyat berish va poklik sari intilish taraqqiyotning asosidir. Yuqorida **inson**ning tanasi, uy-joylari va liboslari toza bo‘lishi **lozim**ligi aytib o‘tildi. Ammo biz yana bir a’zoning pokligiga alohida e’tibor berishimiz lozim. Bu qalbdir. Bolalar pok va ma’sum qalb bilan tug‘iladi. Bu a’zoni **odob** va xush xulqlar har xil chirk va iflosliklardan asraydi. Ammo tengdoshlaringiz ichida qalbida yomonlik qilishni asrab yuradigan bolalar ham uchrashi mumkin. Shunday ekan, aziz bolajonlar, har qanday yomon ishlardan saqlansak, qalbimizni toza saqlagan, uni turli ma’naviy kirlardan pok tutgan bo‘lamiz. Qalbingizni asrang, bolalar!

“Bola odobi bilan aziz” kitobidan



1. Berilgan matnlarning shifoxona, shifokorlik mavzusi bilan qanday aloqasi bor?
2. Muallifning nutqi kimga qaratilgan? Bunday fikrga kelishingizga sabab nima?
3. Ayting-chi, qalbni toza saqlash uchun siz nima qilishingiz mumkin?

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.

Undalma qo‘llangan gaplarni matndan aniqlab, yozing. Tinish belgisiga e’tibor bering.

“Shifokor ham davolay olmaydigan “kasalliklar” mavzusida matn yozing. Ularni kim yoki nima davolashi mumkinligi haqida tavsiya yozishni ham unutmang.

Foydalanish uchun so‘zlar: *dangasalik, yolg‘onchilik...*

Dunyoda hatto shifokorlar ham davolay olmaydigan kasalliklar bor. Qanday kasalliklar deysizmi? Marhamat, ular bilan tanishing ...

Sinfdoshlaringizdan birining “Shifokor ham davolay olmaydigan “kasalliklar” mavzusida yozgan matniga yozma munosabat bildiring. Buning uchun quyidagi jihatlarga e’tibor qarating:


- sanalgan “kasallik”lar;
- qaysi “kasallik”ni davolash uchun tavsiyalar berganligi;
- aynan ushbu matnga munosabat bildirganingiz sababi;
- yozilgan matnning sizga yoqqan va yoqmagan jihatlari.

GLOBAL ISISH

Bu mavzuda o‘rganamiz

• ekologik muammolar va ularga yechim izlash • grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish • dalil va tafsilotlar bilan axborot matni yozish • ko‘rsatish olmoshlari • sifat darajalari • atoqli otlar imlosi.

Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ularda qanday jarayonlar aks etgan?



1. Global isish deganda ko‘z oldingizga nima keldi? “Global” so‘zining ma’nosi nima?
2. Rasmlarda qanday jarayonlar tasvirlangan?
3. Insonning global isishga qanday ta’siri bor?
4. Inson va tabiat munosabatlari haqidagi mulohazalaringizni ayting.

Global isish, iqlim bilan bog‘liq so‘zlarni yozing.

Namuna *tabiat, qurg‘oqchilik, ...*

Berilgan birikma tarkibidagi sifatlarni aniqlang. Ularga *-roq* qo‘shimchasi hamda *juda, eng* kabi so‘zlardan mosini qo‘shib, yozing.

zaharli gaz	nam havo	sho‘r tuproq
issiq harorat	xavfli qurg‘oqchilik	katta muzlik

Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Mutaxassislar iqlim o‘zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanini ta’kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi “issiqxona effekti” deyiladi. Ya’ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o‘rniga zavodlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me’yoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta’sir ko‘rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo‘ladi.

Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida farq kam bo‘ladi. Ya’ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta’sirida qoladi. Ushbu sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.

1. Matnda iqlim o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi qaysi omil haqida so‘z boradi? Bu qanday sodir bo‘ladi?
2. Nima uchun matnda “Yer” so‘zi bosh harf bilan yozilgan?
3. Matnda qo‘llangan sifatlarni ayting.

Matn asosida quyidagi ma’lumotlarni aniqlang hamda yozing.

Issiqxona effekti	
Hodisaning ta’rifi	?
Hodisaning sodir bo‘lish jarayoni	?
Natija	?
Oqibat	?

Matndan ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ushbu olmoshlar o‘zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing.

Namuna *Ushbu nurlar – quyoshdan kelgan nur.*

Matnda bunday so‘zlarni qo‘llashdan maqsad nima?

Videolavha orqali global isish haqidagi ma’lumotlar bilan tanishing. Zarur o‘rinlarni qayd etib oling. Yozib olgan qaydlaringizdan foydalanib qisqa xabar matni tayyorlang.

Video-manba uchun havola

IQLIM O‘ZGARISHINING OQIBATLARI

Global iqlim o‘zgarishining oqibatlari ko‘psonli ixtiloflar va ommaviy ko‘chishlarga ham sabab bo‘ladi. Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi.


Amaliy-tizimli tahlil xalqaro instituti olimlari o‘tkazgan tadqiqot ilk bor iqlim o‘zgarishi va ortib borayotgan ixtiloflar, shuningdek, tabiiy oqibatlar tufayli yuzaga kelayotgan ommaviy ko‘chishlar o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib berdi.

So‘nggi vaqtlarga qadar olimlar iqlim o‘zgarishi va migratsiya o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganini isbotlash uchun o‘ta qat’iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi.

Mualliflar buning uchun bir qancha tadqiqotlarni umumlashtirib, yagona manzarani hosil qilishga intilgan. Boshlanishiga ular 2006–2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so‘rab bergan arizalar sonini o‘rganib chiqdi. So‘ng qochoqlarning asl vatanida ro‘y bergan iqlim o‘zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o‘zgarishining asosiy ko‘rsatkichi sifatida yog‘ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi.

Qurolli ziddiyatlarning soni va ko‘lami esa Shvetsiyada joylashgan Uppsala universiteti 1946-yildan beri yuritib keladigan qurolli inqirozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasiga tayanib o‘rganildi. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan ilmiy modelda qochqinlarning asl vatani va ular kelgan mamlakat orasidagi masofa, har ikkala davlatdagi aholi soni, ulardagi siyosiy vaziyat, etnik va diniy guruhlar hamda boshqa omillar hisobga olindi.

Pirovardida tadqiqot natijalari 2006–2015-yillar davomida iqlim o‘zgarishi migratsiya darajasi va yo‘nalishiga katta ta’sir etganini ko‘rsatdi. Kuchli qurg‘oqchiliklar esa mavjud qurolli ziddiyatlarni yanada kuchaytirgani, qurbonlar sonining keskin ortishiga sabab bo‘lgani aniqlandi.



... Isib borayotgan dunyoni halokatga yuz tutishdan asrash uchun global isish darajasini 2 gradusdan pastda ushlab turish g‘oyasini ilk bor 1975-yili AQSHlik iqtisodchi Uilyam Nordhauz ilgari surgan edi. Biroq 1990-yillarga qadar biror davlat atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini cheklash masalasiga jiddiy e’tibor qaratmadi. Nihoyat 1990-yillar o‘rtasida Yevropa davlatlari ikki darajali cheklov bo‘yicha qo‘shma bitimlarni imzoladi. 2010-yilga kelib esa iqlim isishi muammosiga qarshi kurash BMT siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

... “Global isishni 1,5 gradusdan pastda ushlab turish juda mushkul masala”, – deydi mutaxassislar. Agar hozir insoniyat qo‘lida mavjud barcha imkoniyatlar ishga solinganda ham, bu maqsadga 2040-yilga boribgina erishish mumkinligi bashorat qilinadi. Iqlim isishini 1,5 gradusdan pastda saqlash hozirgi kun uchun erishib bo‘lmas maqsaddek ko‘rinayotgan bo‘lsa-da, ko‘plab davlatlar iqlim o‘zgarishi muammosiga endilikda jiddiy qaramoqda.

... Ayrim ekologlar esa global isishga qarshi yangi texnologiyalar yoki milliardlab daraxt ko‘chati o‘tqazish bilan kurashish shart emasligini ta’kidlaydi. Agar biz hozir atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini keskin qisqartirsak va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun tabiiy muhiti buzilgan yerlarni qayta tiklasak yoki go‘sht iste’mol qilishni kamaytirsak, shuning o‘zi bir yarim gradusli maqsadga erishishda yetarli bo‘larkan. Shundan so‘ng havo tozaradi, semizlik darajasi ham pasayadi. Tabiiy muhiti vayron qilingan, sanoatlashtirilgan dunyodan ko‘ra shunisi yaxshiroq.

Abduvali Soyibnazarov,
siyosiy sharhlovchi

1. Ushbu matn nima haqida?

2. Global iqlim o‘zgarishi va migratsiya (ko‘chish) jarayoni o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

3. Migratsiya jarayoniga global iqlim o‘zgarishi sabab bo‘layotganini aniqlash uchun qanday amaliy harakatlar olib borildi?

4. Global isish darajasini 2 gradusdan pastda ushlab turish g‘oyasini kim ilgari surdi? Ushbu g‘oyaning ilgari surilish jarayoni haqida gapiring.

5. Matnda global isishga qarshi kurashishning qanday yo‘llari haqida gap ketmoqda? Sizning ushbu fikrlarga munosabatingiz qanday?

6. Matn xulosasiga munosabatingizni bildiring.

Global iqlim o‘zgarishi va migratsiya jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun olib borilgan tadqiqot jarayonlarini ma’lum tartib asosida namunadagidek yozing.

1. 2006–2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so‘rab bergan arizalar soni o‘rganib chiqildi.

2. ...

3. Tadqiqot natijasi...

Quyidagi so‘zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring.

Ixtilof	aralashish, qo‘shilish, tartibsizlik
	qarama-qarshilik, ziddiyat, kelishmovchilik
Migratsiya	aholining bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga ko‘chishi
	xorijiy fuqarolarning ma’lum bir davlatga yashash uchun ko‘chib kelishi
Dinamika	muayyan harakat yoki voqea-hodisaning holati, o‘sishi, o‘zgarishi, rivojlanishi
	jismlar mexanik harakatining ularga ta’sir qiladigan kuchlar bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi bo‘lim
Issiqxona gazlari	usti yopiq joyda hosil bo‘ladigan gazlarning ta’siri
	suv bug‘lari, karbonat angidrid, azot va metan gazlarining atmosferaga ta’siridan kelib chiquvchi muammo
Atmosfera	Yerni o‘rab turgan gazsimon qobiq
	bosim o‘lchov birligi

Matnda qo‘llangan sifatlarni aniqlang va namunadagidek yozing.

Namuna *tabiiy oqibatlar, juda mushkul masala.*

Matndan ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ushbu olmoshlar o‘zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing.

Namuna *Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi. “Bu” ko‘rsatish olmoshi “Global iqlim o‘zgarishining oqibatlari ko‘p sonli ixtiloflar va ommaviy ko‘chishlarga ham sabab bo‘ladi” jumlasiga ishora qilyapti.*

Berilgan ma’lumotlar yordamida “Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida og‘zaki axborot bering.

JARAYON

Iqlim o‘zgarishi	Global isish
Iqlim o‘zgarishi bu – Yer shari yoki uning ma’lum bir qismida uzoq vaqt davomida iqlim bilan bog‘liq shart-sharoitlarning o‘zgarish jarayoni	Global isish bu – ma’lum bir davrda Yer sharida o‘rtacha haroratning ko‘tarilishi bilan bog‘liq jarayon

SABABLAR	Inson bilan, shuningdek, tabiiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq sabablar	issiqxona effekti; o‘rmonlarni yo‘q qilish; tabiiy gaz va neft qazib olish; yoqilg‘i yordamida elektr energiya ishlab chiqarish
OQIBATLAR	Haroratning ko‘tarilishi global miqyosda atmosferani va uning barcha imkoniyatlarini beqarorlashtiradi	qurg‘oqchilikni keltirib chiqaradi; yog‘ingarchilik ko‘payib, toshqinlar bo‘lish ehtimoli yuqorilashadi; kasallik tarqalishi ko‘payadi; hayvon turlari yo‘q bo‘lib ketadi



“Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida axborot matni yozing.



Bo‘sh o‘rinlarni kerakli so‘zlar bilan to‘ldirib, gaplarni o‘qing. Berilgan gaplarda sifatning qanday darajalari qo‘llanayotganini aniqlang va ularni izohlang.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *eng qulay, eng issiq, pastroq, eng past, yuqoriroq.*

Yerdagi ... havo harorati 1983-yil 21-iyulda Antarktidaning “Vostok” stansiyasida qayd etilgan, o‘shanda maxsus termometr –89,2 °C ni ko‘rsatgan. Bu meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past haroratdir.

... havo harorati 1922-yilda Liviyada qayd etilgan. Unga ko‘ra, Yerdagi eng yuqori harorat +57,8 °C deb belgilangan.

Inson uchun … harorat +20...+25 daraja.

Yer yuzidagi insonlar o‘rtacha havo harorati –50 va +50 daraja oraliqdagi sharoitda yashay olishi mumkin, lekin ayrim hududdagi insonlar –50 darajadan … va +50 darajadan … ko‘rsatkichlarga ega sharoitda ham jon saqlay oladilar.



Belgi bildiruvchi so‘zlar darajalanish xususiyatiga ega.

Sifatning quyidagi to‘rt xil darajasi mavjud:

1. Oddiy daraja: *issiq, kuchli.*

2. Qiyosiy daraja: *ko‘cha xonadan issiqroq; Aziz Tolibga nisbatan kuchli.*

3. Orttirma daraja: *juda issiq, eng kuchli, lang ochiq, yam-yashil, bus-butun, kap-katta, to‘ppa-to‘g‘ri.*

4. Ozaytirma daraja: *sal issiq, biroz kuchli, picha ustun, xiyol qiyin, nimpushti, och sariq, ko‘kimtir, ko‘kish, ko‘kchil.*

Belgini bildiruvchi so‘zlarning ayrimlariga **-roq** qo‘shimchasini qo‘sha olmaymiz.

Bunday so‘zlar daraja ko‘rsatish imkoniyatiga ega emas: *tonggi, samoviy, farzandli.*

Berilgan sifatlarni 4 xil daraja shaklida yozing.

Issiq, chuqur, toza, yorug‘, katta, past, yashil, baland, tekis.

Tabiatdagi qaysi hodisalarni kuzatishni yaxshi ko‘rasiz? Masalan, yomg‘ir yog‘ishi, tong otishi, kamalakning paydo bo‘lishi kabi. Ushbu hodisalarning birini tasvirlab matn tuzing. Matningizda sifatlardan foydalaning.

Berilgan ma’lumotlar bilan tanishing. Partadoshingiz bilan ushbu salbiy oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqing. Taqdimotga tayyorlaning. Tavsiyalaringizni og‘zaki shaklda navbat bilan gapirib bering.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHINING O‘ZBEKISTON IQLIMIGA TA’SIRI

- harorat ko‘tarilishi natijasida suvning bug‘lanish koeffitsiyenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga olib kelmoqda;
- ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog‘ingarchilik bo‘lmagan kunlar soni ko‘paymoqda;
- tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg‘oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko‘rsatkichlari tushib ketmoqda;
- Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho‘lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho‘l maydonlari paydo bo‘lishini tezlashtiryapti;
- atmosferada changlanish miqdori ortmoqda;
- haddan ortiq isish va sovish kabi anomal hodisalar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelmoqda.

kun.uz

Tavsiyalaringizni matn ko‘rinishida qoralama nusxada yozing.

Yozgan matningizni tahrir qiling hamda oqqa ko‘chiring. Tahrir jarayonida ko‘rsatish olmoshlari hamda sifat darajalaridan foydalanishga e’tibor bering.

“Men tabiat bilan birgaman” mavzusida radionutq tayyorlang.

Radionutq tayyorlashda quyidagi ko‘rsatmalardan foydalanishingiz mumkin:

- *radiodan biror eshittirishni tinglang (bunda boshlovchi ishlatayotgan jumlalarga e’tibor bering);*
- *o‘rganilgan mavzularni bir marta qayta ko‘zdan kechiring;*
- *kerakli o‘rinlarni belgilab oling;*
- *gapiradigan fikrlaringizni qog‘ozga tushiring (tartibli bo‘lishi u qadar muhim emas);*
- *yozganlaringizni ketma-ketlikda tartiblang, xatolarni to‘g‘rilang;*
- *yozilgan matnni qayta-qayta o‘qing va kerakli tuzatishlar kiriting, darslar davomida o‘rgangan qoidalaringizdan qay darajada foydalanganingizga e’tibor bering;*
- *tayyor bo‘lgan radionutqni o‘qing (qayta-qayta mashq qiling);*
- *oila a’zolaringiz yoki do‘stingizdan ushbu nutqingiz haqida fikr bildirishlarini so‘rang.*

QAYTA ISHLANADIGAN CHIQINDILAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlashning ahamiyati • fikrni tartiblash va umumlashtirish • taqdimot tayyorlash • fe’llarning munosabat shakli • gap oxiridagi tinish belgilari (ko‘pnuqta).

Rasmda nimalar tasvirlanganiga diqqat qiling. Savollarga javob bering.



1. Rasmda nimalar tasvirlangan? Nimalarni qog‘oz chiqindilari qutisiga tashlash mumkin? Ularni qayta ishlash orqali nimalar olinadi deb o‘ylaysiz?
2. Shishali chiqindilarni ham qayta ishlash mumkinmi? Javobingizni izohlang.
3. Biologik chiqitlarga nimalar kirishi haqida gapiring. Ular qayta ishlanishi mumkinmi?
4. Plastik chiqindilarni qayta ishlash orqali tabiatga qanday foyda keltirgan bo‘lamiz?
5. Odatda maishiy texnikalarimiz yaroqsiz holga kelsa ham, uyda saqlaymiz. Bu to‘g‘rimi? Nima uchun?
6. Metall buyumlarni qayta ishlash haqida eshitganmisiz? Ushbu jarayon haqida nimalarni bilasiz?

Audiomatnni tinglang va savollarga javob bering.

Resikling deganda maishiy chiqindilarni qayta ishlashni tushunamiz.

1. Audiomatnda atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar keltirilgan. Ularni izohlang.
2. Chiqindilarni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbekistondagi “Sanfa Products” kompaniyasi faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz? U yerda chiqindining qaysi turi qayta ishlanadi?
4. Surxondaryoda joylashgan chiqindilarni qayta ishlash korxonasi qanday mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan? Ulardan qanday foydalanish mumkin?
5. Chiqindilarni turlarga ajratish qanday ahamiyatga ega? Siz ham oilangizda chiqindilarni turlarga ajratib to‘playsizmi? Bundan foyda olish mumkinmi? Qanday qilib?

Matnga mos sarlavhani tanlab, yozing. Tanlovingizni qisqacha izohlang.

Chiqindilar muammosi – global ekologik muammolardan biri

Chiqindilarni qayta ishlashning foydali jihatlari

O‘zbekistonda chiqindini qayta ishlash sohasining rivojlanishi

Maishiy chiqindilar – eng arzon xomashyo

Matndan olingan quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni ko‘chiring.

Energetika – energitika, mexanizim – mexanizm, metalurgiya – metallurgiya, ob’ekt – obyekt, palstmassa – plastmassa, eksprt – eksport, Shimoliy Yevropa – Shimoliy yevropa, selofan – sellofan, poliyetilen – polietilen, konteyner – kontiyner, gidro inshoot – gidroinshoot.

Atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘luvchi chiqindilarni hosil qiladigan sohalarni ajratib, yozing. Ular qanday qilib atrof-muhitni ifloslantirishi mumkinligini izohlang.



Energetika



Rangli va qora metallurgiya



Kimyo sanoati



O‘rmon xo‘jaligi



Suv xo‘jaligi



Qurilish industriyasi

Birinchi mashqdagi sarlavhalardan birini tanlang, namunadan foydalanib shunday sarlavhali maqolada qanday ma’lumotlar aks etishi mumkinligi haqida qisqacha yozing.

CHIQINDILAR MUAMMOSI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARDAN BIRI

Kirish. *Chiqindilar bilan bog‘liq muammolar.*

Asosiy qism:

1. *Chiqindilarning ekologiyaga ta’siri, ular ortidan tabiatga yetkazilayotgan zarar.*

2. *Ushbu muammolarning kelib chiqish sabablari.*

Xulosa. *Muammoni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar, ularni amalga oshirish yo‘llari.*

Aa


...



Perulik Xoseni ko‘pchilik taniydi. U 7 yoshida birinchilardan bo‘lib “Ekologik bank”ka asos solgan tadbirkor. Yo‘q, u “mijoz”lari, ya’ni tengdoshlarining “pulini shilib”, boyib ketishni maqsad qilmagan. Aksincha, o‘zidek kambag‘al, o‘qishga imkoni yetmaydigan bolalarga yordam bermoqchi xolos.

Aslida, Xose ham o‘rtoqlaridek nochor oilaning farzandi. Maktabga har kuni nonushtasiz ketishdan, o‘qish uchun to‘lovlarni vaqtida berolmaslikdan rosa qiynalardi. Ba’zida otasi kamroq maosh olsa, darslarini qoldirishga ham majbur bo‘lardi. Birgina u emas, o‘rtoqlari, qo‘shnilari ham shunday yashashardi.

Oxiri Xose o‘z biznesini ochishga qaror qiladi. Qarasa, sinfdoshlari pulni to‘g‘ri sarflasholmas ekan. Shunda u bolalar uchun “Ekologik bank” ochadi va qayta ishlanadigan chiqindilarni olib kelganga pul bera boshlaydi. Chiqindi evaziga maxsus tashkilot ham Xosega pul to‘lashga rozi bo‘ladi. Shu tariqa, uddaburon Xose tabiatga va bolalarga yaxshilik qilishning yo‘lini topadi.



Xose “Ekobank”ni boshqarishdan tashqari tengdoshlariga pulni to‘g‘ri sarflash yo‘llarini ham o‘rgatadi. Puldan qiynalganlarga kichikroq qarz – mikrokredit ham berib turadi. Bu bolalarga har kuni ovqat yeyishga, maktabga qatnashga yordam beradi.

Xosening tadbirkorligi ortidan bugun 2500 bola maktabga qatnayapti. Chunki Peruda o‘qish xarajatlarini hamma ham to‘lay olmaydi-da! Xose kelajakda 20000 bolaga yordam bermoqchi. Uning yagona maqsadi – bugun qashshoq bo‘lgan bolalar ulg‘ayganida qashshoqlikda yashashmasin! Ular ham adolatli sharoitda o‘qishga, ta’lim olishga haqli!

Hozir 14 yoshga kirgan Xose: “Bolalar kichik g‘oyalari bilan katta o‘zgarish qila oladilar. Bizga faqat imkon berishsa, bas!” – deydi. Rostdanam, Xosedek ona tabiatni asraydigan, o‘rtoqlariga yordam beradigan bolalar orangizda juda ko‘p. Ularga faqat imkon berish kerak.

Charos Nizomiddinova

1. Perulik Xosening “Ekologik bank”ka asos solishidan maqsadi qanday edi?
2. Xosening bolaligi qanday o‘tgani haqida gapiring. Uning o‘ziga xosligi nimada edi?
3. “Ekologik bank” qanday faoliyat yuritadi, uning bunday atalashiga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
4. Xosening tadbirkorligi tabiatga, uning do‘stlariga va o‘ziga qanday foyda keltirdi? Uning kelajakdagi maqsadlari qanday?
5. Matn uchun qanday sarlavha mos kelishi haqida o‘ylab ko‘ring. Do‘stingiz taklif qilgan sarlavhaga munosabat bildiring.

Matndan olingan quyidagi parchada ishtirok etgan fe'llarni aniqlang, ularni berilgan namuna asosida o'zgartiring.

Xose "Ekobank"ni boshqarishdan tashqari tengdoshlariga pulni to'g'ri sarflash yo'llarini ham o'rgatadi. Puldan qiynalganlarga kichikroq qarz – mikrokredit ham berib turadi. Bu bolalarga har kuni ovqat yeyishga, maktabga qatnashga yordam beradi.

Namuna

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	(Men) gapirdim	(Biz) gapirdik
II shaxs	(Sen) gapirding	(Sizlar) gapirdingiz
III shaxs	(U) gapirdi	(Ular) gapirdi

Fe'llarning zamon va shaxs-son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Fe'llar uch zamondan biriga tegishli harakat-holatni bildiradi: o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon.

Xose 7 yoshida birinchilardan bo'lib "Ekologik bank"ka asos solgan (o'tgan zamon).
Xosening tadbirkorligi ortidan bugun 2500 bola maktabga qatnayapti (hozirgi zamon).
Xose kelajakda 20000 bolaga yordam bermoqchi (kelasi zamon).

Harakat-holatning bajaruvchi shaxsini, bu shaxs bitta yoki ko'p ekanini bildiruvchi shakllar shaxs-son shakllari sanaladi.

Xose tengdoshlariga pulni qanday sarflash yo'llarini o'rgatdi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	(Men) o'rgatdim	(Biz) o'rgatdik
II shaxs	(Sen) o'rgatding	(Sizlar) o'rgatdingiz
III shaxs	(U) o'rgatdi	(Ular) o'rgatdi(lar)

Berilgan fe'llarni uchta zamon shaklida ifodalang. Ular ishtirokida nutqiy mavzu doirasida gaplar tuzib, yozing.

To'plamoq, saralamoq, yasamoq, so'zlamoq, bormoq, yordam bermoq, amalga oshirmoq, qaror qilmoq.

O'tgan zamon fe'llari	Hozirgi zamon fe'llari	Kelasi zamon fe'llari
-di, (-i)b, -gan (-kan, -qan)	-yap, -moqda, -(a)yotib, -(a)yotir	-a, -y, -(a)r

Xosening “Bolalar kichik g‘oyalari bilan katta o‘zgarish qila oladilar. Bizga faqat imkon berishsa, bas!” degan fikriga qo‘shilasizmi? Siz qanday o‘zgarishlarni amalga oshirishni xohlashingiz haqida o‘ylab ko‘ring, fikrlaringizni og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalang.

Matnni o‘qing va fe’llarni aniqlang. Ular qaysi zamonni ifodalamoqda?

“BioTexno Eko” korxonasi Surxondaryo viloyatida joylashgan. Uning yillik quvvati 180 000 tonna, bir sutkada 500 tonna maishiy chiqindini saralab, qayta ishlaydi. Sellofan, plastik, plastmassa kabi maishiy chiqindilardan granulalar, polietilen quvurlarni ishlab chiqaradi.

Hozir “Sanfa Products” kompaniyasi bir yilda 2000 tonna plastmassa idishlarini qayta ishlash natijasida linoleum uchun asos, avtoyo‘llar, gidroinshootlarning qurilishi uchun zarur geotekstil, polimer geomembrana, yengil sanoat uchun sintepon va hokazo mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

Fe’l zamonlarini o‘zgartirib, yuqoridagi matnni ko‘chiring.

Berilgan gaplarni davom ettiring. Fe’l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalariga e’tibor qiling.

Tabiatni asrash har birimizning burchimiz, shuning uchun ota-bobolarimiz qadimdan avlodlarga tabiatni asrash kerakligini _____ (III shaxs, ko‘plikda, o‘tgan zamon). Maishiy chiqindilarni qayta ishlash ham tabiatni asrashning bir usuli hisoblanadi. Odamlar maishiy chiqindilarni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish orqali tabiat ne’matlarini _____ (III shaxs, ko‘plikda, hozirgi zamon). Qayta ishlash jarayonida oldin ishlatilib, keyin yaroqsiz holatga kelgan plastmassa va metall buyumlar, qog‘ozlar hamda shisha idishlardan _____ (kelasi zamon). Ulardan sanoat va kundalik hayot uchun kerakli buyumlar _____(III shaxs, hozirgi zamon).

Xose haqidagi matn uchun 3 ta so‘roq gap tuzib, yozing. Tuzgan savollaringizga partadoshingiz javob yozsin.

Keyingi darsda biznes g‘oya yaratish topshirig‘i beriladi. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bog‘liq loyiha haqida o‘ylang. O‘z g‘oyalaringizni taqdimot qilish uchun tayyorlaning.

Biznes g‘oya nima?

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash sarmoya kiritish uchun eng maqbul biznes turlaridan biridir. U – bozordagi nisbatan erkin soha, chunki chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar O‘zbekistonda unchalik ko‘p emas. Marhamat, ushbu yo‘nalishdagi biznes g‘oyangizni ishlab chiqing.

QOG‘OZ

Qog‘oz suvga solinib, tarkibidagi yot narsalar tozalanadi. Shundan so‘ng qog‘ozga termomexanik ishlov beriladi. Aralashma mayda tozalashdan o‘tadi va elak orqali filtrlanadi. Undan esa hojatxona qog‘ozi, karton, qadoqlash uchun material, MDF, DVP va paketlar ishlab chiqariladi.

Chiqindini qayta ishlashdan daromad olish yo‘llari



biologik chiqindi



maishiy texnika chiqindisi



plastik chiqindi




metall chiqindisi



qog‘oz chiqindisi



shisha chiqindisi



Biznes rejangizni quyidagi ko‘rinishda ifodalang.

MENING BIZNES REJAM
Maqsad
Buni qanday amalga oshiraman?
Xarajatlar
Zarur resurslar (kerakli narsalar)
Ish jarayonining borishi
Foyda




Sinfdoshingiz tuzgan loyiha bilan tanishing va unga munosabat bildiring.

Mavzu doirasida o‘rgangan atamalaringiz lug‘atini tuzing. Ularning izohini yozing.

MUSTAHKAMLASH

Rasmda tasvirlangan holatlarga munosabat bildiring.



1. Sizni ko‘cha-ko‘yda chiqindi tashlash bilan bog‘liq qaysi holat qattiq ranjitadi? Tartibsiz odamlarga nisbatan qanday chora ko‘rish kerak deb hisoblaysiz?

2. Duch kelgan joyga chiqindi tashlab ketadigan odamni qanday atagan bo‘lar edingiz?

Tabiatni asrash va tadbirkorlikka oid maqollardan yozing. Mazmunini izohlang.

Namuna *1. Birni kessang, o‘nni ek. 2. Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht.*

Quyidagi nutq bilan tanishing. Savollarga javob bering.

…Ayrim odamlarga barcha narsa o‘z holicha qolaversa ham mayli. Lekin men unaqa emasman. Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg‘uda bo‘lsam, buni shunday qoldira olmayman. Kichik sinfda o‘qiyotganimda menga o‘qituvchimiz okeandagi plastik uyumi, global iqlim isishi sababli qutb ayiqlari jabr ko‘rayotgani haqida film qo‘yib bergan. Men uni ko‘rib rosa yig‘lagandim. Sinfdoshlarim ham yig‘lagan. Lekin film tugagach, ular bemalol yana boshqa ishlari bilan shug‘ullanaverdi. Men esa unday qila olmayman. O‘sha lavha xayolimdan ketmaydi...

Greta Tunberg



1. Muallif va uning sinfdoshlari filmni ko‘rgach, nima uchun yig‘lagan deb o‘ylaysiz?

2. “Ayrim odamlarga barcha narsa o‘z holicha qolaversa ham mayli. Lekin men unaqa emasman. Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg‘uda bo‘lsam, buni shunday qoldira olmayman”. Siz ham o‘zingizga shunday baho bera olasizmi? Siz qandaysiz?

3. Ushbu matn nechanchi shaxs tilidan aytilgan? Nima uchun bu fikrga keldingiz?

4. Matndagi ko‘pnuqtalarning vazifasi nima?

5. Ayting-chi, sizni ham atrof-muhit, o‘simlik va hayvonlar bilan bog‘liq qandaydir holat ta’sirlantirganmi? Bu qachon va qayerda sodir bo‘lgan?

Matnda qo‘llangan fe’llarning zamonini aniqlab, yozing.

Siz ham minbarda so‘zlash uchun tabiatni asrashga oid nutq tayyorlang. Nutqingizni matn ko‘rinishida ifodalang.

Gazeta, jurnal, rasmiy saytlardagi nutqiy mavzuga aloqador biror xabar yoki maqola bilan tanishing. O‘rganganlaringiz asosida beshta xulosa yozing.


KO‘Z NURINI ASRAYLIK

Bu mavzuda o‘rganamiz

• ko‘z va ko‘z salomatligiga doir tavsiyalar • matn qismlarini o‘zaro farqlash • kichik sarlavhalar tanlash • iboralarni qo‘llash • ko‘rsatish olmoshlari • fe’lning zamon va shaxs-songa oid tasnifi • kesim va uning ifodalanishi.

1. Odamlar his-tuyg‘ularini o‘zgalarga so‘z orqaligina emas, balki yuz ifodalari bilan ham yetkaza oladilar. Ayting-chi, ko‘zlarimiz orqali ushbu holatlarni qanday amalga oshiramiz? Mashq qilib ko‘ring.
2. “Ko‘zimning nuri” iborasi qanday holatlarda qo‘llanadi?

Rasmda berilgan ko‘z qarashlariga mos so‘zlarni toping.



KO‘ZLARIMIZ – ENG AZIZ DO‘STLARIMIZ

Ko‘zlarimiz bizning jajji yordamchilarimizdir. Biz **ular** orqali atrofda bo‘layotgan voqealarni ko‘ramiz. Ko‘zguga qarasangiz, har bir ko‘zning o‘rta qismida kichkina qora doiracha borligini bilasiz. **Bu** – ko‘z qorachig‘i. **U**ndan yorug‘lik o‘tadi va qorachiq ichida oldimizda turgan narsaning kichkinagina tasviri paydo bo‘ladi.

Ko‘zlarimizning eng yaqin himoyachilari bu – qosh va kipriklardir. Peshonadan ter oqib tushsa, quyuq qoshlar, shamolda



chang kelib urilsa, ko‘z kipriklari ularni tutib qoladi. Agar ko‘zga chang zarralari kirib qolsa, ko‘z qovoqlari ularni suyuq modda bilan o‘rab oladi va ochilib-yopilib tashqariga chiqarib yuboradi.

Qiziq ma’lumotlar

Barmoq izlarida boshqalarda uchramaydigan 40 ta o‘ziga xoslik bor. Ko‘z pardasida esa bunday o‘ziga xoslik 256 tani tashkil etadi.

Inson ko‘zi kattaligi tug‘ilganida qanday bo‘lsa, bir umr shunday saqlanib qoladi. Quloq va burun esa davomiy o‘sib turadi.

Ko‘zimizning diametri 2,5 cm atrofida bo‘lib, og‘irligi 8 g chiqadi.



Ko‘zimizdagi 107 millionta hujayraning har biri yorug‘likni sezish qobiliyatiga ega.

Ko‘z harakatini boshqarib turadigan mushaklar tanamizdagi eng faol mushaklar hisoblanadi.

Inson ko‘z soqqasining oltidan bir qismigina ko‘rinib turadi.

Sevimli kishimizga qaraganimizda ko‘z qorachiqlarimiz 45 foizga kattalashar ekan.

Inson ko‘zi soniyasiga 50 tagacha narsa-buyumga diqqatni jamlay oladi.

"Jajji akademik" jurnalidan

1. Matnda ko‘zga qanday ta’riflar berilgan? Qosh va kipriklarga-chi? Siz qanday ta’riflagan bo‘lardingiz?
2. Ko‘z qorachig‘i nima? Uning ko‘rish jarayonidagi o‘rni qanday?
3. Qosh va kipriklar qanday vazifani bajaradi?
4. Ko‘zga oid qaysi ma’lumot sizni hayron qoldirdi? Nima uchun?

Matnda ajratib ko‘rsatilgan olmoshlarni ular ishora qilayotgan birliklar bilan birga ko‘chiring.

Namuna *ular – ko‘zlar.*

Matnda qo‘llangan fe’llarning qaysi zamonga tegishli ekanini aniqlab, yozing. Shaxs-sonini ayting.

Gap kesimi tarkibida ***edi, emish, ekan*** kabi to‘liqsiz fe’llar ham ishlatiladi. Ular turli ma’nolar uchun xizmat qiladi.

Salima o‘shanda biroz xafa ***edi.*** (o‘tgan zamon ma’nosi)

O‘shanda bizga yolg‘on gapirishgan ***ekan****.* (keyinroq xabardor bo‘lish ma’nosi)

Benzinning narxi oshar ***emish****. Ertaga natijalar e’lon qilinar* ***ekan****. (birovdan eshitganlik ma’nosi)*

Edi, emish, ekan to‘liqsiz fe’llarini *-di, -mish, -kan* shaklida ham qo‘llaymiz.

Masalan: *ko‘rardi, ko‘rarmish, ko‘rarkan.*


Ko‘z bilan bog‘liq turli shakllardagi birliklarni moslab ko‘chiring. Ushbu birikmalar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.


ko‘zdek	ko‘l
ko‘zyoshdek tiniq	ochilmoq
ko‘z	ilinmoq
ko‘z qorachig‘idek	tashlamoq
ko‘zi	qo‘shni
ko‘zi	asramoq

Quyidagi iboralar ma’nosini lug‘atlardan, oila a’zolaringizdan aniqlab, yozing. Qanday vaziyatlarda qo‘llanishini bilib oling.

Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq	Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq	Ko‘z tashlamoq
Ko‘ziga cho‘p solmoq	Ko‘zi pishmoq	Ko‘z yummoq

“Optikaning otasi” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.





1. Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Unda nimalar tasvirlangani haqida gapiring.
2. Qadimgi odamlarning yorug‘lik va insonning ko‘rish qobiliyati haqidagi tasavvurlari qanday bo‘lgan ekan?
3. Musulmon olimi Ibn al-Haysam ko‘rish qobiliyati haqida qanday nazariyani ilgari suradi?
4. Optik qurilmalar deganda qanday qurilmalar nazarda tutiladi?
5. Hasan ibn al-Haysamni nima uchun “optika otasi” deb atashadi?
6. Fotokameraning yaratilishiga turtki bo‘lgan tajriba haqida gapiring.
7. Hasan ibn al-Haysam “Optika” kitobida ko‘z haqida qanday ma’lumotlarni keltirgan?
8. Hasan ibn al-Haysam G‘arbda qanday nom bilan ataladi?

Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsin.


Hasan ibn al-Haysam – optikaning otasi

Olimning ko‘z va uning tuzilishi bilan bog‘liq qarashlari

Qadimgi odamlarning ko‘rish va yorug‘lik haqidagi tasavvurlari

Hasan ibn al-Haysamning tajribasi

Quyida “Ko‘z nurini asraylik” mavzusidagi matn uchun reja bo‘la oladigan bandlar tartibsiz berilgan. Ular qanday ketma-ketlikda joylashishi kerakligini aniqlang va tartib bilan yozing.



Gaplar tarkibida qo‘llanishi lozim bo‘lgan olmoshlarni aniqlang va ularni o‘z o‘rnida qo‘llab, gaplarni ko‘chiring.

Namuna

Hasan ibn al-Haysam *965-yili Iroqning Basra shahrida dunyoga keladi.* ***Hasan ibn al-Haysam*** *optikaning otasi hisoblanadi –* ***U*** *optikaning otasi hisoblanadi.*

1. Ibn al-Haysam qorong‘i chodirning ichiga kirib, chodir devoridan kichik teshik ochib qo‘yadi. Olim **chodir devoridan ochilgan teshikdan** kirgan nurni o‘rgana boshlaydi.
2. Tajribalarning birida nur tashqaridagi tasvirni ichkariga olib kirayotgani ma’lum bo‘ladi. Aynan **nurning tashqaridagi tasvirni ichkariga olib kirayotgani** haqidagi kashfiyot tufayli 8 asrdan so‘ng fotokamera ixtiro qilinadi.
3. “Optika” kitobida hatto ko‘zdagi nerv tolalarining suratlari ham berilgan. **Ko‘zdagi nerv tolalarining suratlari** tibbiyotda ko‘zning ichki tuzilishi chizilgan ilk suratlar edi.

Matndan olingan quyidagi parcha tarkibidagi kesimlarni aniqlang, ularni namunadagidek tahlil qilib, ko‘chiring.

Namuna *tasavvurda bo‘lishgan – III shaxs, ko‘plik.*

Qadimgi olimlar yorug‘lik va insonning ko‘rish qobiliyati haqida noto‘g‘ri tasavvurda bo‘lishgan. Emishki, odamning ko‘zi atrofga yorug‘lik tarqatadi. Ko‘zimizdan chiqqan shu yorug‘lik jismlarga tegib ortga qaytganida biz narsalarni ko‘ra boshlaymiz. Ammo musulmon olimi Ibn al-Haysam birinchi bo‘lib bunday qarashning xato ekanini aytadi. Ko‘zdan hech qanday nur chiqmaydi. Aksincha, quyoshdan taralgan nur jismlarga urilib, so‘ng ko‘zlarimiz tomon yo‘l oladi.

Internet manbalari asosida ko‘z nurini asrashga oid tavsiyalar yozib keling.

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.



* * *

Ko‘zga ko‘ringan bir rassom oxirgi chizgan rasmi oldida yig‘lab turgan ekan. Buni ko‘rgan shogirdlari hayron bo‘lishibdi va:

– Ustoz, nima sababdan yig‘layapsiz? – deb so‘rashibdi.

Shunda rassom:

– Men oxirgi chizgan ishimdan nuqson topa olmayapman, – deb javob beribdi.

– Bu yaxshi emasmi? – so‘rashibdi shogirdlar.

– Yo‘q, bu mening iste’dodim so‘nayotganidan darak beryapti, – debdi rassom.

1. “Ko‘zga ko‘ringan” deganda nimani tushundingiz?
2. Rassomning o‘zi chizgan suratdan hech qanday nuqson topa olmasligi yaxshimi? Siz bu holatga qanday munosabat bildirasiz?
3. Nima uchun rassom shunday xulosaga keldi?
4. Ushbu matnga qanday sarlavha mos deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.

Tilda nutqni jozibador va ta’sirchan qiladigan birliklar ham mavjud. Bunday birliklarga **iboralar, tasviriy ifodalar, maqollar**ni kiritishimiz mumkin. Nutqida shunday birliklardan ko‘p foydalanadigan kishilarni biz *nutqi chiroyli, so‘z boyligi ko‘p odamlar* deymiz.

Iboralarga ko‘chim va bo‘rttirish xos. *Qo‘rqib ketdi* so‘zi bilan *yuragi yorildi* iborasi ma’nodosh, biroq ibora holatni ta’sirchanroq, mubolag‘ali ifodalagani, shuningdek, ko‘chma ma’noda ekani (aslida, yuragi yorilgani yo‘q) bilan farqlanadi.

Iboralar odatda belgini, holatni yoki harakat-holatni ifodalaydi.


Ovqat yeydimi bu bola, **qulog‘idan kun ko‘rinadi-ya.** (belgi: “juda ozg‘in” ma’nosida)

Akamni **ko‘zim to‘rt bo‘lib** kutdim. (holat: “intizor bo‘lib” ma’nosida)

Nimani bilsang, rostini ayt, **quloqqa lag‘mon ilma**. (harakat: “aldama” ma’nosida)

Voqelikni bo‘yoq bilan ifodalashdan tashqari iboralar madaniy nutq uchun ham xizmat qiladi. *O‘ldi* deyish o‘rniga *ko‘z yumdi, dunyodan o‘tdi* iboralarini qo‘llash orqali marhumga nisbatan hurmatsizlik qilishning oldini olgan bo‘lamiz.

Tana a’zolari nomi ishtirok etgan iboralardan topib, yozing.



Quyida ko‘z bilan bog‘liq iboralar keltirilgan. Ularni izohlang, qanday vaziyatda qo‘llash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Ko‘z qorachig‘idek asramoq. 2. Ko‘ziga cho‘p solmoq. 3. Ko‘zdan nari bo‘lmoq. 4. Ko‘z ochib yumguncha. 5. Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan.

Berilgan birliklarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llab gaplar tuzing va yozing.

Ko‘zga qaramoq	*Ko‘z nuri*	*Ko‘zga ko‘rinmoq*	*Ko‘z ochmoq*

Badiiy kitoblardan iboralar qo‘llangan gaplarni aniqlab, namunadagidek yozing.

Qovun bozoridan chiqib, eski kappon oldidan o‘tib ketayotib butun eski shahar bozoridagi qorovullarning boshlig‘i Rahmatullo sarkorga ko‘zim tushib qoldi.

G‘. G‘ulom, “Shum bola”

Ko‘zi tushib qolmoq: kutilmaganda ko‘rish.

Ayting-chi, kun davomida ko‘zingizni nimalar ko‘proq toliqtiradi deb o‘ylaysiz?

BOLALAR TELEVIZORNI QANCHA VAQT KO‘RISHLARI MUMKIN?

A. Televizorda namoyish etiladigan ko‘rsatuvlarni tomosha qilishdan oldin va undan keyin ko‘rish a’zolari tekshirib ko‘rilganda, ko‘zning tez charchab-toliqib qolgani aniqlangan. Bunda birinchi navbatda ko‘zning akkomodatsion apparati charchaydi. Bu apparat idrok qilinayotgan tasvirning aniqligini ta’minlaydi. Ko‘z tez toliqib qolmasligi uchun televizor ekranidan kamida uch metr uzoqlikda o‘tirish kerak.

B. Bola qancha yosh bo‘lsa, televizor qarshisida shuncha kam o‘tirishi kerak. Jumladan, 4 yoshli bolalar 15 daqiqa, maktabgacha yoshdagi bolalar kuni bilan yarim soat, 14 yoshgacha bo‘lgan maktab o‘quvchilari ko‘pi bilan bir soat,



Akkomodatsiya – ko‘zning turli masofadagi narsalarni aniq ko‘rishga moslashuvi.

yuqori sinf o‘quvchilari esa ikki soat teleko‘rsatuvlarni tomosha qilishlari ma’qul deb topilgan.

D. Ayniqsa, teleko‘rsatuvlarni rangli televizorda tomosha qilish oq-qora rangda ko‘rsatadigan televizorga nisbatan ko‘zni unchalik zo‘riqtirmaydi. Rangli tasvir akkomodatsion apparatdan zo‘riqishning bir qismini olib, ko‘zning rangli idrok etish apparatini **stimullaydi**. Shunday bo‘lsa-da, xoh rangli, xoh oq-qora televizor bo‘lishidan qat’i nazar, mutaxassislar televizorni imkon qadar kamroq ko‘rishni tavsiya etadilar.

E. Demak, televizorni imkon qadar kamroq ko‘rish, buning o‘rniga ustoz topshirgan uy vazifalarini tayyorlash, badiiy kitoblar o‘qish, ota-onamizga ko‘maklashish va bo‘sh vaqtimizda tengqur bolalar bilan o‘ynash juda foydalidir.

“Bola odobi bilan aziz” kitobidan

1. Televizorni uzoq vaqt ko‘rish zararli ekani qanday aniqlangan?
2. Akkomodatsion apparatning vazifasi nimadan iborat?
3. Televizordan qancha uzoqlikda o‘tirish zarur?
4. Turli yosh davrlarida televizor ko‘rish davomiyligini ayting.
5. Rangli tasvirlarni ko‘rishning oq-qora tasvirlarni ko‘rishga nisbatan qanday afzalligi bor?
6. Matnda qo‘llangan atamalarni aniqlang, ularning talaffuzi va imlosiga e’tibor bering.
7. Televizor ko‘rish uchun ketkaziladigan vaqtni qanday foydali mashg‘ulotlar bilan almashtirgan ma’qul deb o‘ylaysiz?
8. *Stimul* so‘zi “biror ishga qiziqish tug‘diradigan, rag‘batlantiradigan, undaydigan narsa, omil” degan ma’noni ifodalaydi. Ayting-chi, bu so‘z matnda qaysi ma’noda qo‘llangan?

Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslashtirib yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga ajrating.

A	Foydali mashg‘ulotlar
B	Televizor ko‘rish me’yori
D	Tasvir aniqligini ta’minlovchi qism
E	Rangli televizorning afzalliklari

Ko‘zga ziyon keltiruvchi yana qanday odatlarni bilasiz? Ularni yozing.


Quyida berilgan jadvalni daftarga chizib, to‘ldiring. Ushbu jadval yordamida oila a’zolaringiz bilan kunlik televizor ko‘rish me’yorlari haqida suhbatlashing.

Oila a’zolarim	Yoshi	Amaldagi televizor ko‘rish vaqti	Kundalik me’yor
Opam	?	?	?
Akam	?	?	?
Singlim	?	?	?
Ukam	?	?	?
?			

Matnda qo‘llangan fe’llarning zamoni va shaxs-sonini aniqlang.

Iboralar lug‘atidan o‘zingizga yoqqan 6 ta iborani yozib oling. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Rasm asosida bog‘lanishli matn tuzing.



JIGAR – ENG MEHNATKASH A’ZO

Bu mavzuda o‘rganamiz


• jigar va uning organizmdagi vazifalari • salomatlikka oid til birliklari • esse • bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchilarni aniqlash va farqlash • iqtibos qo‘llash.

Ichki a’zolaringiz nomini va qayerda joylashganini bilasizmi? Javobingizni izohlang.

Audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Tanamiz bo‘ylab tarqalgan qontomirlar qaysi jihati bilan elektr simlariga o‘xshab ketadi?
2. Qon aylanish tizimi haqida eshitganmisiz?
3. Qontomirlarning uzunligi va qalinligi haqida qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz?
4. Qontomirlarning vazifasi nimadan iborat?
5. Qon o‘z vazifasini to‘liq bajarishi uchun unga qanday a’zolar yordamga keladi? Ular haqida gapiring.

Rasmni diqqat bilan kuzating, berilgan ma’lumotlar yordamida qon aylanish tizimi haqida gapirib bering.



“Qontomirlar” audiomatnini qayta tinglang. Berilgan gaplarni davom ettiring.

1. Elektr simlar bino devorining ichidan o‘tkazilgani uchun ko‘rinmaydi, lekin ...
2. Butun tanamiz bo‘ylab tarqalgan qontomirlarni elektr simlariga o‘xshatish mumkin, chunki ...
3. Qontomirlar tanamizdagi eng murakkab va ...

Yozgan gaplaringizni o‘qing. Ayting-chi, ***lekin, chunki, va*** so‘zlarisiz ham gaplarni davom ettirish mumkinmi? Ular nima maqsadda qo‘llangan deb o‘ylaysiz? Fikringizni izohlang.

So‘zning so‘zga va gapning gapga bog‘lanishida nafaqat mazmun, balki grammatik jihat ham muhim. Birdan ortiq so‘z yoki gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlar **bog‘lovchi** deyiladi.

Va; ammo; lekin; chunki; yoki; yo..., yo...; dam..., dam...; goh..., goh... kabilar bog‘lovchilardir. Bog‘lovchilardan so‘zlarni yoki sodda gaplarni o‘zaro bog‘lashda foydalaniladi.

Odam tanasining eng katta va eng mehnatkash a’zosi jigardir (so‘zni so‘zga bog‘lash).

Jigar – odam organizmining filtri, chunki u ichimizga kirib qolgan turli zararli moddalardan bizni himoya qiladi (ikki sodda gapni o‘zaro bog‘lash).

Ikki ustundagi gaplarni o‘qing. Berilgan bog‘lovchilardan foydalanib ularni mazmunan bog‘lang va yozing.

biroq, ammo, chunki, balki, shuning uchun, hamda, va, toki, ya’ni

Namuna *Yog‘li taomlar va gazli ichimliklar iste’mol qilishni kamaytirish zarur, chunki bunday mahsulotlar sog‘ligingiz uchun juda zararli.*

1-qism	2-qism
Yog‘li taomlar va gazli ichimliklar iste’mol qilishni kamaytirish zarur.	Tana vaznining besabab va tezlik bilan oshishini kuzatsangiz, darhol shifokor ko‘rigiga boring.
Jigar kasalliklari ko‘p holatlarda alomatlarsiz kechishi mumkin.	Vaqti-vaqti bilan shifokor ko‘rigidan o‘tib turish lozim.
Jigar ovqatni hazm qilishga yordam beradi.	Bunday mahsulotlar sog‘ligingiz uchun juda zararli.
Dori-darmonlarni shifokor tavsiyasisiz qabul qilmang.	Hayot uchun zarur bo‘lgan moddalarni sintezlaydi, organizmdan toksinlarni siqib chiqaradi.
Tana vaznini nazorat qilish muhim.	Har bir insonning organizmi o‘ziga xos tuzilgan bo‘lib, ba’zi dorilar sizda noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Berilgan gaplarni o‘qing. Fikrlaringiz asosida ularni davom ettiring hamda *va, ammo, lekin, chunki, biroq* kabi bog‘lovchilar yordamida gaplarni mazmunan bog‘lab, qon aylanish tizimi haqida matn yozing.

1. Qon odam tanasiga quvvat beradi.	**2.** Tomir – qon harakatlanadigan “quvur”.	**3.** Yurak qonni tomirlar bo‘ylab haydab turadi.	**4.** O‘pka qonni kislorod bilan boyitadi.	**5.** Jigar qonni tozalab beradi.


Matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering.

HIMOYACHI JIGAR

Odam tanasini ulkan zavodga o‘xshatish mumkin. Ovqatlanganimizda, yurganimizda, o‘ylaganimizda, **hatto** uxlayotganimizda ham tanamizdagi milliardlab hujayralar tinimsiz ishlab turadi. Bu “zavod”ning eng katta va eng mehnatkash ishchisi nimaligini bilasiz**mi**?

Bu – jigar. U insondagi eng katta ichki organ bo‘lib, og‘irligi 1,5 kg keladi. U bir vaqtning o‘zida 500 dan ortiq vazifani bajaradi.

Shifokorlar bejiz jigarni odam organizmining filtri deb atashmaydi. Chunki jigar ichimizga kirib qolgan turli zararli moddalardan bizni himoyalash uchun tinmay harakat qiladi.



Tanadagi qon aylanishi inson hayotini ta’minlab turadi. Qon tana bo‘ylab bir marta aylanganida tarkibidagi barcha foydali moddalarni sarflab bo‘ladi. Endi qonni qaytadan zarur moddalar bilan to‘yintirish, jonlantirish kerak! Bu vazifaga esa jigar mas’ul hisoblanadi. **Xuddi** kimyoviy laboratoriyaga o‘xshab ketadigan jigarimiz o‘ziga quyilgan qonni “tekshiradi”, uning tarkibini aniqlaydi. Qaysi moddadan ko‘proq, qaysi moddadan kamroq qo‘shishni “o‘ylab ko‘radi”. Agar shu kuni ko‘p ovqat yeganimizdan oshqozonimiz qiynalayotgan bo‘lsa, jigarimiz buni **ham** hisobga oladi.

Jigarimizning 70 foizi suvdan tashkil topgan. U bir soatda 100 litr qonni tozalab beradi. Bir kunda jigar filtrlangan qon bilan 7 ta vannani to‘ldirishi mumkin.

“Jajji akademik” jurnalidan

1. Nima uchun inson tanasini ulkan “zavod”ga o‘xshatamiz?
2. Jigarning ko‘rinishi, tuzilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Qon aylanish tizimining yaxshi ishlashida jigarning o‘rni qanday?
4. Matn tarkibida qo‘llangan qo‘shtirnoqlarga e’tibor bering, ularning qo‘llanish sabablarini tushuntiring.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan birliklarni o‘zi bog‘langan gap bilan birgalikda ko‘chirib yozing. Sizningcha, ushbu birliklar gaplarga qanday ma’nolarni yuklayapti? Fikringizni izohlang.

Gap yoki gap bo‘lagiga so‘roq, ta’kid, ayirish-chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z va qo‘shimchalarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarga:

1) *axir, hatto, faqat, ham, nahotki, xuddi, go‘yo, naq, bamisoli, hech, sira, na ... na* so‘zlari;

2) *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u/-yu, -ku, -da, -a/-ya* singari qo‘shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruhi so‘z-yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qo‘shimcha-yuklamalar sanaladi.


Jigar bilan bog‘liq xastalikka uchragan kishilar doim parhezda yurishlari, ***faqat*** *yog‘siz taomlarni iste’mol qilishlari kerak.*

Balki, Nodiradan ham so‘rab ko‘rish kerakdir.

Qo‘shimcha ko‘rinishidagi ba’zi yuklamalar *(-ku, -da, -u(yu), -a(-ya), -chi)* o‘zi qo‘shilgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

*Biz-**ku** bexabar edik, lekin sen-**chi?***

Berilgan rasmlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq singari o‘xshatish yuklamalaridan foydalaning, ularni izohlab yozing.



Ko‘makchilar bir so‘zni ikkinchi so‘zga bog‘laydigan, so‘roq va ohang jihatidan birinchi so‘z bilan butunlik hosil qiladigan yordamchilardir.

Teatrga akam bilan boraman gapida **bilan** so‘zi ko‘makchi bo‘lib, u:

1) “akam” so‘zini “boraman”ga bog‘layapti;

2) “akam” so‘zi bilan butunlik hosil qilyapti: “akam bilan” (kim bilan? – yagona so‘roq); “akam bilan” (urg‘u *-kam* bo‘g‘iniga tushyapti – yagona urg‘u).

Ko‘makchilar turli ma’nolarni ifodalashga ham xizmat qiladi:

1) bilan, orqali – *vosita* (ba’zan *bilan, uchun* ko‘makchilari badiiy uslubda *-la, ila, birla, -chun* shaklida qo‘llanadi, *-la, -chun* chiziqcha bilan ajratib yoziladi);

2) sababli, tufayli – *sabab;*

3) uchun, deb – *sabab va maqsad;*

4) tomon, qarab, sari– *yo‘nalish;*

5) kabi, singari – *o‘xshatish, qiyoslash;*

6) qadar – *chegara;*

7) haqida, to‘g‘risida – *mavzu.*

Ko‘makchining qanday ma’no uchun xizmat qilayotgani nutqda ma’lum bo‘ladi:

Tuflini qoshiqcha **bilan** kiydi. (vosita)

To‘pni zarb **bilan** tepdi. (holat)

Sinfxonada Jamila **bilan** o‘tiraman. (birgalik)

“Himoyachi jigar” matnidan *uchun, bo‘ylab, bilan* so‘zlari qatnashgan gaplarni ko‘chirib yozing. Ushbu so‘zlar gaplarga qanday ma’no yuklayapti? Ularni yolg‘iz qo‘llash mumkinmi? Fikringizni misol orqali izohlang.

Internet manbalari, gazeta yoki salomatlikka oid jurnallardan mavzuga oid ikki xil ma’lumot bilan tanishing. Tanishgan ma’lumotlaringizni qiyoslang, eng ishonchli deb bilgan ma’lumotlaringizni tartiblab, jigarning organizmdagi faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.

Quyidagilarga e'tibor bering:

- mavzu yuzasidan qanday ma’lumotlarni bilib olmoqchi ekaningizga aniqlik kiriting (buning uchun mavzuga oid savollarni yozib oling);
- bir necha ma’lumotlar ichidan eng kerakli va muhim deb hisoblagan ma’lumotlaringizni ajratib oling;
- ma’lumotlarni qaysi manzildan olganingizni qayd etib qo‘ying;
- siz tanlagan ma’lumotlarning muallifi kimligini aniqlang;
- ma’lumotlaringizni taqdim etish uchun qulay shaklga keltiring;
- ma’lumotlaringizni tushuntirib berish uchun nutq tayyorlang.

Uy vazifasi bo‘yicha taqdimot qiling. Partadoshingizning nutqini tinglang va taqdimotiga baho bering.

Berilgan matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

Oilada 3 nafar farzandmiz: men, singlim Zulfizar va ukam Sardor. To‘ng‘ich farzand bo‘lganim uchun yoshligimdan menga ota-onam: “Sen ukalaring uchun javobgar va mas’ul bo‘lishing kerak”, – deb uqtirib kelishgan. Singlim va ukamga boshlang‘ich sinfda o‘qish, yozishni o‘rgatish, maktab imtihonlariga tayyorlash mening zimmamda edi. Zulfizar skripka chalishni mashq qilardi. Men bu cholg‘uni chalishni o‘sha paytda mukammal bilmasamda, anglagan narsalarimni unga o‘rgatardim. U bu xotiralarni hozir ham yaxshi eslaydi. Sardor taekvondo sport turini yaxshi o‘zlashtirishi uchun kompleks mashg‘ulotlarda u bilan birga shug‘ullanar edim. Umuman, ularning biror muvaffaqiyatga erishishi uchun doimo yonlarida turganman. E’tibor va birdamlik bugunga kelib biz jigarlarni ruhan bir-birimizga bog‘lab turadigan uzilmas rishtaga aylandi.

Oydin Abdullayeva

1. Qahramonimizning oilasida necha kishi bo‘lgan?
2. “To‘ng‘ich farzand” nima degani? Oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lish yaxshimi?
3. Qahramonning ukasi va singlisi nimalarga qiziqar edi? Ular muvaffaqiyatlarga erishishida opasining o‘rni qanday?
4. Siz ham o‘z uka-singillaringizga shunday g‘amxo‘rlik ko‘rsatganmisiz?
5. “E’tibor va birdamlik bugunga kelib biz jigarlarni ruhan bir-birimizga bog‘lab turadigan uzilmas rishtaga aylandi”. Ushbu gapda “jigar” deganda kimlar nazarda tutilyapti? Bu o‘xshatishning sababini izohlang.

Berilgan matn tarkibidan so‘zni so‘zga bog‘lashga xizmat qilayotgan *va* bog‘lovchisi ishtirok etgan gaplarni aniqlang. Ushbu bog‘lovchini *bilan*, *hamda* bog‘lovchilariga almashtirib, gaplarni ko‘chiring.

Quyidagi izohlar bilan tanishing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Jigarband – eng yaqin, tug‘ishgan qarindosh (farzand, opa-singil, aka-uka).
Jigargo‘sha – farzand.
Jigarpora – jigarband, jigarimning bir parchasi, yaqinim.
Jigarrang – qizg‘ish, qizil, jigar rangiga o‘xshash.
Jigarso‘xta – jigari kuygan, yongan. Og‘ir musibat chekib ezilgan, ko‘ngli yarim bo‘lib qolgan.
Jigarxun – ezilgan, qiynalgan, xunob bo‘lgan.

Ayting-chi, siz kimlarni jigarlarim deya olasiz? Nima uchun? Ularga qanday yordam berasiz? Nima uchun ularga yordam berish kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni matn ko‘rinishida yozing.

Esse yozish tartibi bilan tanishing.

KIRISH

Bu qismda esse mavzusi tushuntiriladi.

*Ushbu esseda **ixtiyoriy mavzu** (inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar)ni muhokama qilamiz.*

FIKR BERISH

Essening bu qismida siz mavzu yuzasidan o'z qarashlaringizni ifodalashingiz kerak.

Mening fikrimcha, sog'lik – insonga berilgan bebaho ne'mat. Shunday ekan, har bir inson ushbu ne'matni imkon qadar asrab-avaylashi zarur.

SOLISHTIRISH VA FARQLASH

Bu qismda siz o'z qarashlaringizdan farq qiladigan fikrlar, ya'ni masalaning ikkinchi tomonini keltirasiz.

Zamonaviy texnika taraqqiyoti, sanoat rivojlanishining bir qancha afzalliklari bilan birgalikda salbiy ta'siri ham borligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

NATIJANI IFODALASH

Ushbu fikrda siz umumiy bir to'xtamga kelib, o'zingiz tarafdori bo'lgan fikrni natija sifatida keltirasiz.

Aynan mana shular, ya'ni kimyoviy qo'shimchalarga boy mahsulotlar, ayrim texnik jihozlarning salbiy ta'siri har bir insondan o'z sog'ligi haqida jiddiy o'ylab ko'rishni talab etadi.

MISOLLAR KELTIRISH

Essening bu qismida siz hayotiy misollar keltirish orqali mavzuni yanada boyitishingiz mumkin.

Texnika rivojlanishi insonlar orasida kam harakatlilik ortidan kelib chiqadigan kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Kimyoviy qo'shimchalar bilan boyitilgan oziq-ovqatlar iste'moli esa turli og'ir kasalliklarni yuzaga chiqarayotgani achinarli hol.

QO'SHIMCHA QILISH

Bu qismda siz mavzuga bevosita aloqador deb bilgan (garchi ular o'zingizniki bo'lmasa ham) g'oya, fikr va qarashlarni qo'shimcha sifatida keltirishingiz mumkin.

YECHIMLAR TAKLIF QILISH

Bu qismda siz essedagi muhokamali mavzu yuzasidan o'z yechim va takliflaringizni berasiz.


Shunday ekan, o'z sog'ligiga e'tiborli bo'lgan har bir kishi tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni iste'mol qilishi, texnikadan me'yorida foydalanishi, ko'proq jismoniy harakat bilan shug'ullanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa – essening yakunlovchi qismi. Bunda siz butun essedagi qarashlaringizni tugal bir fikr bilan ifodalashingiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har biringiz o'z sog'ligingiz uchun mas'ulsiz. To'g'ri ovqatlaning, jismoniy mashqlarni doimiy ravishda bajaring, eng asosiysi, har narsaning me'yori borligini hech ham yodingizdan chiqarmang.

Yo‘riqnoma asosida “Meni hozirdan asra!” mavzusida esse yozing.



MUSTAHKAMLASH

“Jigar – eng mehnatkash a’zo” matnidan istalgan ikki gapni yozib, ularni namunadagidek tahlil qiling.

Namuna *Odamning (kimning?, ot, ikkinchi darajali bo‘lak) tanasini (nimani?, ot, ikkinchi darajali bo‘lak) ulkan (qanday?, sifat, ikkinchi darajali bo‘lak) zavodga (nimaga?, ot, ikkinchi darajali bo‘lak) o‘xshatish mumkin (nima qilish mumkin?, fe’l, kesim).*

Quyidagi birliklardan foydalanib jigar haqida gaplar tuzib, yozing. Tuzgan gaplaringizda ko‘makchi, bog‘lovchi hamda yuklamalardan foydalaning.


Ega	Kesim
jigar	tana a’zosi hisoblanadi
insonlar	bezovtalanadi
odamlar	iste’mol qilish kerak

Jigar haqida aralash holda berilgan ma’lumotlarni ikki guruhga ajratib yozing.

Kasallikning kelib chiqish sabablari	*Kasallik alomatlari*

- Nosog‘lom turmush tarzi va noto‘g‘ri ovqatlanish
- Ko‘ngil aynishi va qayt qilish
- Kutilmagan vazn yo‘qotish
- Yuqumli A, B va C gepatit kasalliklari
- Ishtahaning yo‘qolishi yoki ozgina taomdan so‘ng to‘yish hissining paydo bo‘lishi
- Umumiy zaiflik va charchoq alomatlari
- Katta miqdorda alkogol ichish va xolesterini yuqori taomni ko‘p tanovul qilish
- Qorin bo‘shlig‘ining yuqori qismida og‘riq (o‘ng tomoni yoki o‘ng kurak ostida)
- Ikkinchi turdagi qandli diabet bilan bog‘liq vaznning haddan ortiq og‘irligi
- Jigarning kattalashishi (gepatomegaliya)
- Semizlik
- Qorataloqning kattalashishi
- Qorinda suyuqlik to‘planishi (assit)

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalanib shifokor va bemor o‘rtasidagi dialog matnini yozing. Bunda dialog matnini yozish qoidalariga rioya qiling.




DEHQON YURTNI BOQADI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• dehqonchilikning ijtimoiy ahamiyati • soha bilan bog‘liq milliy qadriyat va an’analar sharhi • qishloq xo‘jaligiga oid til birliklari • publitsistik uslub • badiiy uslub.

Ushbu infografika bilan tanishib chiqing. Savollarga javob bering.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari *(2021-yilning yanvar – sentyabr oylari bo‘yicha)*



1. Infografika qanday qismlardan iborat?
2. O‘sish sur’ati deganda nimani tushundingiz?
3. Infografikani tushunganingiz asosida sharhlang.

Infografika axborot va ma’lumotlarni uzatishning grafik usuli sanaladi. Infografikadan murakkab ma’lumotlarni qulay usulda yetkazish uchun foydalanamiz. Uni matn, rasm va dizaynni o‘zaro birlashtirib hosil qilish mumkin.

Infografikadan matbuotda, jurnallarda, o‘quv adabiyotlarida, veb sahifalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa o‘rinlarda foydalanish mumkin.

Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlariga nimalar kiradi? Ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Dehqonchilik mahsulotlari	Chorvachilik mahsulotlari
?	?

Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh berilgan infografika asosida dehqonchilik mahsulotlari, ikkinchi guruh chorvachilik mahsulotlari, uchinchi guruh esa hududlar kesimi bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlarga oid matn tuzib, yozing.

Infografika asosida quyida berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. 2021-yilda donli ekinlarni yetishtirish 2020-yilga nisbatan 4,6 foizga kamaydi.
2. Chorvachilik mahsulotlaridan hisoblangan tuxum yetkazib berish holati 2020-yil yillik rejadan 5,4 foiz oshiqqa bajarilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkichi 5,5 foizni ko‘rsatmoqda.
3. Baliq mahsulotlarining hajmi 2020-yilda 62,6 mln tonnani, 2021-yilda 70,3 mln tonnani tashkil qilgan, ushbu yillar oralig‘idagi o‘sish sur’ati 112,2 tonnani ko‘rsatmoqda.
4. Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati 104,2 foizni tashkil qiladi.
5. Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax viloyatiga tegishli.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ro‘yxatini tuzing, ota-onangiz yordamida ularning bozordagi narxlarini aniqlang. Ushbu ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalang.



DEHQONCHILIK – BILIM VA SABR UYG‘UNLASHGAN MAYDON



A Dehqonchilik insondan sabr-toqat talab qiladi, chunki dehqonchilik har yili bir xil bo‘laveradigan kasb emas. Ob-havo har xil keladi, bir yil unday, bir yil bunday. Ba’zan qurg‘oqchilik bo‘ladi, ba’zida yog‘in ko‘payib, toshqinlar bo‘ladi, sel keladi. Bir-ikki yil hosil bo‘lmay, dehqon zararga kirsa, uchinchi yil barakali kelib, o‘tgan yillarning xarajatlari ham qoplanib ketadi. Ko‘rinib turibdiki, bu kasbda avvalo insonning tavakkuli, qolaversa, sabri sinaladi.

B Dehqonchilikning yana bir alohida xususiyati shuki, bu ishda odamdan o‘ziga yarasha bilim va tajribadan tashqari jismoniy kuch-quvvat, xususan, qo‘l mehnati talab qilinadi. Dehqonchilikning ham o‘ziga yarasha ilmi bor, bunday ilm bo‘lmasa, dehqonchilik qilib bo‘lmaydi. Yerga ketmon urib, urug‘ tashlagan bilan hosil paydo bo‘lib qolmaydi. Yer va urug‘ tanlashni, sug‘orishni, ekinni parvarish qilishni, ishlov berishni, yerdan unumli foydalanishni, almashlab ekishni, bir ekindan bir yilda bir necha marta hosil olishni bilish kerak – xullas, hammasining o‘z ilmi bor. Biroq anchagina qo‘l mehnati ham talab qilinadi bu kasbda. Afsuski, yerga, tabiatga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish oqibatida bugungi kunda yerlarimiz juda oriqlab ketdi. Ayni paytda yerga sun’iy dori, o‘g‘itlar berish ilmi rivojlandi.

D Imom Hakim Termiziyning mashhur bir asari bor. U zot bu asarda ko‘p yillik kuzatishlar, tajribalar, ilmiy tahlillar asosida yil davomida dehqonchilik yaxshi bo‘lishi, yomg‘ir yaxshi yog‘ishi yoki qurg‘oqchilik yuzaga kelishi haqida ko‘pchilikka manfaatli ko‘rsatmalar berganlar. Hakim Termiziy bu ma’lumotlarni fol ochib topmaganlar, balki ilm, tajriba evaziga aniqlaganlar. Insoniyat bu bilimlarga yillar davomida, asrlar davomida kuzatish, izlanish, tajriba to‘plash natijasida ega bo‘lgan. Ajdodlarimiz qaysi yili ob-havo qanday bo‘lgan, shu yili hosil qanday bo‘lganiga, boshqa alomat va belgilarga qarab qaysi

yili iqlim sharoiti qanday bo‘lishini, yil qanday kelsa, ob-havo qanday bo‘lishini, qachon qahatchilik yoki qurg‘oqchilik, qachon mo‘l-ko‘lchilik bo‘lishini taxmin qilganlar, shunga ko‘ra “Falon yili falon ekin ekilsa, hosili yaxshi bo‘ladi”, – deb ayta olganlar.

E Hakim Termiziy kabi ulamolarimiz bunday bilimlarning barchasini kitoblarga joylab qo‘yishgan, ilmlarni guruh-guruh qilib, tasniflab, tartiblab berishgan. Hozirgi avlod buni o‘qib-o‘rganishi va amalda tatbiq qilishi kerak xolos. Buning uchun ona zaminga, vatanga, yerga, tuproqqa muhabbat bilan yondashish kerak. Mehnat bilan, dehqonchilik bilan yeyilgan non shirin bo‘ladi, samarasi egasiga yuqadi, hisob-kitobi ham, javobgarligi ham oson bo‘ladi.

Rahmatulloh Sayfuddinov

1. Dehqonchilik kasbining qanday mashaqqatlari bor?
2. Dehqonchilik kasbining o‘ziga xos alohida xususiyatlari haqida gapiring.
3. Dehqonchilikni yaxshi o‘zlashtirgan odam yer bilan bog‘liq qanday ilmni bilishi zarur?
4. Hakim Termiziyning dehqonchilik ilmiga bag‘ishlangan asarida qanday ma’lumotlar mavjud? Ular qanday qilib aniqlangan?
5. Mo‘l-ko‘l hosil olish uchun qaysi jihatlar inobatga olinishi kerak ekan?
6. Hakim Termiziy kabi ulamolarimizning hozirgi avlodga berib ketgan noyob ilmidan qanday foydalanish kerakligi haqida fikr bildiring.
7. Matn uchun tanlangan sarlavha haqida o‘ylab ko‘ring, nima uchun shunday sarlavha tanlanganini ayting.

Berilgan sarlavhalarni matn qismlariga moslab, ko‘chiring.

Kichik sarlavhalar	Matn qismlari
Dehqonchilik ilmi	A
Ajdodlar tajribasi	
Halol rizq	B
Mashaqqatli kasblar	D
Dehqonchilik mashaqqati	E
Tabiat hodisalari	

Matndan dehqonchilik bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni ko‘chiring. Dehqonchilik kasbiga oid qanday atamalarni bilasiz? Yozing.

Namuna *o‘g‘it, ...*

Muhammad Yusuf she’ridan olingan parchani ifodali o‘qishni mashq qiling. Yuqorida tanishgan matningizdan qaysi jihatlari bilan farqlanishini izohlab bering. Shoir she’rda nimalarni bir-biriga qiyoslagan, o‘xshatgan, jonlantirgan? Ushbu o‘rinlarni ajratib, yozing.

Yer aylanar,
Yer aylanar,
Yer yugurib tinmaydi,
Sening oydek yuzlaringdan
Ter yugurib tinmaydi,
Qo‘ling tegmay bu dunyoda
Bitta giyoh unmaydi,
Tin bilmagan jonim mening,
Bobodehqonim mening.

Men ham sening tuz-u noning
Ichib yurgan bolangman,
Shoirman deb qushday qo‘nib,
Uchib yurgan bolangman,
O‘zing bilan paykalda suv
Kechib yurgan bolangman,
Senga bu dostonim mening,
Bobodehqonim mening...



Abu Rayhon Beruniy haqida nimalarni bilasiz?

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

BERUNIYNING DAM OLISH KUNLARI



Beruniy yiliga ikki martagina dam olar ekan. Birinchisi Navro‘z bayrami boshlangan kun, ikkinchisi bug‘doyga birinchi o‘roq tushganda.

Dillarni xushnud etib Navro‘zi olam kirib kelgan kuni erta tongdanoq o‘rnilaridan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarni kiyib, qarindosh-urug‘larni, yor-u birodarlarni **ziyorat qilar** ekan. Ular bilan suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilar, askiyalar aytishar ekan. Keyin **qosh qorayguncha** qo‘sh qo‘shishar, yerga birinchi omoch solishda qatnashar, nihol ekisharkan…

Hol-ahvol so‘raganlarga:

– Oh, men dam olib, **hayot lazzatini totib** ko‘rmoqdaman, – deb javob berar ekan.

Oltin boshoqlarga birinchi o‘roq tushgan kuni ham dehqoncha libos kiyib olib, qo‘llariga o‘roq tutib, azondan to kechgacha dalada ishlar ekan.

O‘tgan-ketganlar: “Hormang!” – deganda “Bor bo‘ling!” – deb javob berar ekan.

Qarang-a, ulug‘ alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o‘tkazishdan yiliga ikki kun vaqt ajratib, azondan to kechgacha **qo‘sh qo‘shishni**, shudgor qilishni, o‘roq o‘rishni o‘zlari uchun dam olish deb bilar ekan.

Beruniy: “Bir daqiqa vaqtni behuda o‘tkazganim – halok bo‘lganim”, – der ekan.

Rivoyat

1. Beruniyning dam olish kunlari qaysi ekan?
2. Beruniy Navro‘z bayramini qanday kutib olar ekan?
3. Boshoqqa birinchi o‘roq tushishi jarayoni haqida nimalarni bilasiz? Bunday jarayon qachon ro‘y beradi?
4. Beruniy boshoqni yig‘ib olish jarayonida qatnashib o‘zini qanday his qilar ekan? Siz ham biror ish bilan shug‘ullanish jarayonida o‘zingizni dam olgandek his qilasizmi?
5. ***“Hormang!”, “Bor bo‘ling!”*** deganda nimani tushundingiz? Bu so‘zlar qanday holatlarda ishlatiladi?
6. Beruniyning “Bir daqiqa vaqtni behuda o‘tkazganim – halok bo‘lganim” degan fikrini muhokama qiling.

Adabiy tilning hayotimizdagi ma’lum soha doirasida (masalan, ilmiy, rasmiy, badiiy kabi), biror nutqiy vaziyatda qo‘llanadigan shakli ***nutq uslubi*** hisoblanadi.

Badiiy asarlar ***badiiy uslubda*** yoziladi. Siz tanishgan she’r va rivoyat shu uslubda yozilgan.

Badiiy uslubning eng muhim belgisi obrazlilik va estetik jihatdan ta’sir etishdir.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang. Ularning o‘rniga qanday so‘zlarni qo‘llash mumkinligini yozing. Yozgan birliklaringizdan matn mazmuniga mosini qo‘yib, gapni qayta ko‘chiring.

Namuna ***Ziyorat qilmoq*** – *holidan xabar olmoq, tashrif buyurmoq, qutlug‘ qadamjolarga bormoq, muborakbod etmoq.*

Navro‘zi olam kirib kelgan kuni erta tongdanoq o‘rnilaridan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarni kiyib, qarindosh-urug‘lari, yor-u birodarlarining ***holidan xabar olar*** *ekanlar.*

Berilgan gapni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan birlik qanday ma’noda kelayotganini aniqlab, yozing. Ayting-chi, ushbu birlikning matn mazmuniga qanday ta’siri bor? Fikringizni izohlang.

Oltin boshoqlarga *birinchi o‘roq tushgan kuni ham dehqoncha libos kiyib olib, qo‘llariga o‘roq tutib, azondan to kechgacha dalada ishlar ekanlar.*

Berilgan so‘zlarga mos tasviriy ifodalarni moslashtirib, ko‘chiring. Ularning qanday farqli tomonlari bor? Fikringizni bitta gap misolida izohlab, yozing.

yer	*peshona teri*
chigit	*ekinning qoni*
mehnat	*dala malikasi*
suv	*zangori gilam*
makkajo‘xori	*baraka urug‘i*

Tasviriy ifoda – shaxs, narsa, o‘rin-joyni o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikmadir. Misollar: samo qushi – samolyot, qora oltin – neft, o‘rmon shohi – sher, g‘azal mulkining sultoni – Alisher Navoiy, non shahri – Toshkent.

Berilgan gapni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z orqali Beruniyning qanday holati ifodalanganini ayting. Yana shunday so‘zlardan bilasizmi? Yozing.

– *Oh,* *men dam olib, hayot lazzatini totib ko‘rmoqdaman, – deb javob berar ekanlar.*

Oila a’zolaringiz, do‘stlaringiz nutqini kuzating. Ular hayratlanganda, quvonib ketganda, erkalaganda, jahli chiqqanda, norozi bo‘lganda qanday so‘zlardan foydalanadi? Ularni aniqlab, guruhlarga bo‘lib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

uf oh o‘h-ho‘ bay-bay o ur-ree e

voy iye voybo‘ o‘h voyey hoy

Hayrat	Quvonch	Erkalash	Jahl	Norozilik

Berilgan matnlarni o‘qing. Savollarga javob bering.

1 Kuz yoz va qish orasidagi fasl bo‘lib, Shimoliy yarimsharda sentyabr, oktyabr va noyabr oylariga, Janubiy yarimsharda esa mart, aprel va may oylariga to‘g‘ri keladi.

Kuz – yil fasli, mavsumi. Yerning Shimoliy yarimsharida kuzgi tengkunlik (23-sentyabr)dan qishki Quyosh turishi (21- yoki 22-dekabr) gacha davom etadi. Shartli ravishda sentyabr, oktyabr va noyabr oylari kuz deyiladi. Bu vaqtda Yerning Janubiy yarimsharida bahor bo‘ladi. Kuz fasli kelganda asta-sekin kunlar qisqarib, tunlar uzaya boshlaydi. Sovuq, shamolli va yomg‘irli kunlar ko‘payadi. Daraxt va o‘simliklarning barglari sarg‘ayib, quriy boshlaydi.


2 Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tuman qo‘ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og‘ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig‘ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo‘lib qoldi. Havoda limon isi aralash yong‘oq daraxti xazonlarining o‘tkir hidi gurkiradi. Yoz bo‘yi meva tugish dardida yashnagan bog‘lar, shodon shovullagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o‘ychan, g‘amgin bosh egdi. Chor atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi.

1. Birinchi matndan qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz? Ikkinchi matndan-chi? Sizningcha, ularning mavzusi bir xilmi? Mazmuni-chi?
2. “Chor atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi”. Ushbu gapni izohlang.
3. Qaysi matn ruhiyatingizga ta’sir qildi? Qaysi jihatlari bilan?

Ikkala matn tarkibidan daraxtlarning holati aks etgan o‘rinlarni ko‘chirib yozing. Ular o‘rtasida qanday o‘xshash va farqli jihatlar bor? Fikringizni izohlang.

Ikkinchi matn tarkibidan quyidagi berilgan so‘zlarga oid tasvirlarni topib, ko‘chiring. Ularning nima maqsadda qo‘llanganini izohlang.

- Kuz
- Tong
- Oqshom
- Quyosh nuri
- Bog‘lar
- Xazonlar
- Terakzorlar
- Bulutlar
- Haqiqat






Tasavvur qiling, sizning katta ekin maydoningiz bor, u yerga nimalar ekasiz? Uning ko‘rinishi qanday bo‘ladi? Berilgan chizmadan foydalanib “Mening dalam” mavzusida matn yozing.

Quyidagilarga e’tibor bering:

- chizmaga qarang;
- savollarga javob bering;
- savol ostidagi jumlalarni davom ettiring;
- jumlalar orasidan matningiz uchun kerak bo‘ladiganlarini ajratib oling;
- ajratib olgan jumlalaringizni qatnashtirib mavzuga oid gaplar tuzing;
- tuzgan gaplaringizni mazmunan ketma-ketlikda bog‘lab, matn ko‘rinishida yozing.

Dalangizning ko‘rinishi qanday bo‘ladi?

kishini maftun etadigan, keng, manzarali, obod, gullab yashnagan, fayzli, katta, tarovatli, chiroyli, …

U yerda nimalar bo‘ladi?

zilol suv, katta ariq, daryo, unumdor tuproq, kesak, mevali daraxt, bahaybat toshlar, …

MENING DALAM

Dalangizda qanday ekinlar bo‘ladi?

kartoshka, oltin boshoq, piyoz, bug‘doy, baraka urug‘i, dala malikasi, …

Odamlar dalangiz oldidan o‘tayotib nima deyishi mumkin?

hormang; oh, buncha chiroyli; o‘h-ho‘, hosil zo‘r bo‘libdi-da; bay-bay, serhosilligini qarang; …

“Mening dalam” mavzusida yozgan matningizni partadoshingiz bilan almashtiring. Matn haqidagi munosabatingizni yozma tarzda ifodalang.

Quyidagilarga e’tibor bering:

- Matn mazmuni sizga yoqdimi? Nima uchun?
- Matnni qanday his bilan o‘qidingiz? Bunga nima sabab bo‘ldi?
- Partadoshingiz matnda o‘xshatish, jonlantirish, undov so‘zlar hamda tasviriy ifodalardan foydalanganmi? Misol keltiring.
- Matn yuzasidan o‘z xulosangizni yozing.



KOMPYUTER GRAFIKASI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• *kompyuter grafikasi va sohaga oid til birliklari* • *olinma so‘zlar* • *qo‘shma otlari imlosi*

Ayting-chi, rasmlarda nimaning yaralish jarayoni aks etgan?





1. Kompyuterda chizilgan suratlar oddiy suratdan nimasi bilan farq qiladi?
2. Kompyuterda chizilgan suratning qanday ustunliklari va kamchiliklari bor deb o‘ylaysiz?


KOMPYUTER GRAFIKASI KENG QO‘LLANADIGAN SOHALAR




Kinematografiya va multiplikatsiya



Arxitektura va muhandislik




Tibbiyot



Rassomlik



Ta’lim



Noshirlik

1. Ayting-chi, bu sohalarda kompyuter grafikasidan qay maqsadda va qanday shaklda foydalaniladi? Javoblaringizni asoslang.
2. Yana qaysi sohalarda kompyuter grafikasidan foydalaniladi? Misollar bilan tushuntiring.
3. Ayrimlar yaqin kelajakda ba’zi sohalar to‘laligicha kompyuter grafikasiga o‘tib ketishini aytadi. Siz bu fikrga qanday munosabatdasiz?
4. Ba’zi mutaxassislar yaqin kelajakda odamlar uyidan chiqmay virtual olamda yashashi mumkinligi haqida aytishmoqda. Siz bunga ishonasizmi? Bu insoniyatga nima beradi va nimalardan mahrum qiladi? Fikrlaringizni dalillang.

Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini izohi bilan ko‘chiring.

Kompyuter grafikasi	**Arxitektura**	**Muhandislik**
Noshirlik	**Virtual olam**	**Kinematografiya**

- kompyuterda hosil qilingan (chizilgan) tasvir.
- ilmiy bilimlarga asoslanib texnik qurilmalar, tizim va materiallar yaratish hunari.
- kitob, gazeta, jurnal kabi bosma mahsulotlarni tayyorlash, nashr qilishga oid soha.
- kompyuter grafikasi asosida yaratilgan, dasturlashgan borliq.
- harakatdagi tasvirlar – kino yaratish san’ati.
- (me’morlik) bino va inshootlarni loyihalash va qurish san’ati.

Kompyuter grafikasi qo‘llanadigan biror soha haqida kichik matn yozing. Yozgan matningizda bu sohada kompyuter grafikasi nima maqsadda ishlatilishi haqida ma’lumot bo‘lishi kerak.

Yana qanday sohalarda kompyuter grafikasidan foydalanishni tavsiya qilgan bo‘lar edingiz? Ushbu sohalarda kompyuter grafikasidan foydalanishning afzalliklari haqidagi fikrlaringizni matn ko‘rinishida yozing.

KOMPYUTERDA YARALGAN TASVIR



Kompyuter grafikasi deganda maxsus dasturlar ko‘magida yaratilgan tasvir tushuniladi. Bu nisbatan yangi va juda tez rivojlanayotgan sohalardan biridir. Kompyuter grafikasi ustalari dunyoda eng ko‘p daromad topadigan mutaxassislar qatorida turadi. Shuning uchun hozir kompyuter grafikasini o‘rganish istagida bo‘lgan yoshlar ko‘p.


Kompyuter grafikasi juda ham keng tarmoqli bo‘lib, hozir undan deyarli barcha sohalarda foydalaniladi. Zamonaviy televideniye, kinematografiya, multiplikatsiya, arxitektura, muhandislikning barcha turlari va ta’limni kompyuterda yaratilgan tasvirlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Televideniyeda beriladigan turli reklama roliklari, ekran ostidagi maxsus yozuvlar, ko‘rsatuv boshlanmasidagi animatsiyalar, suxandonlar ortidagi chiroyli tasvirlar – bularning barini kompyuter grafikasi ustalari tayyorlaydi.



Zamonaviy kinolarning asosiy qismini kompyuter grafikasi tashkil qiladi. Hozir aktyorlar yashil fonli **studiya**dan chiqmay rol ijro etishi mumkin. Grafika ustalari esa ularni tasvirdan uzib olib, so‘ng istalgan **virtual makon**ga tushirib qo‘yishadi. Endi qum bo‘ronlarini tasvirga olish uchun Sahroyi Kabirga yoki Markaziy Afrikaga borish shart

emas. Kompyuter grafikasi, ayniqsa, qiyin sahnalarni suratga olishda qo‘l keladi. Masalan, qo‘lga o‘rgatish qiyin va xavfli o‘qilon, suvilon, tuyaqush, o‘rdakburun, yo‘lbars kabi noyob hayvonlarni kompyuterda yaratib rol o‘ynatish kinochilarning vaqtini va pulini tejaydi.



Kompyuter grafikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri animatsiyadir. Animatsiya kompyuterda tayyorlangan harakatlanuvchi tasvirni anglatadi. Bugungi kunda deyarli barcha multfilmlarni animatorlar yaratadi.

3D modellash ham kompyuter grafikasiga oid yo‘nalishdir. 3D modellari arxitektura, muhandislik va ta’limda muhim o‘rin egallaydi. Me’morlar bino loyihasining 3D modelini yaratib, uni turli sinovlardan o‘tkazish imkoniga ega. Masalan, osmono‘par binoning 3D modelini yaratib maxsus dastur yordamida uning yer silkinishi yoki kuchli shamolga qay darajada dosh berishini sinab ko‘rish mumkin. Muhandislar ham biror qurilmani yaratishdan oldin uning 3D modelini yaratib oladilar va qanday ishlashini virtual olamda sinovdan o‘tkazadilar. Hatto 3D printerlari orqali modelni chop etish imkoni bor.

Agar kompyuter grafikasi bo‘lmasa, bizning olam haqidagi tasavvurlarimiz juda **g‘arib** bo‘lib qolardi. Siz o‘qib turgan darslikdagi turli surat, chizma va diagrammalar kompyuterda yaratilgan. Kompyuter grafikasi ko‘magida odamlar olis **galaktika**larga sayohat qilishi, yulduzlarni qoq o‘rtasidan yorib ko‘rishi yoki **mikroorganizm**lar olamiga tushib, eng mayda zarralar bilan yaqindan tanishishi mumkin.



Odatda kompyuter grafikasi namunalarini bir kishi emas, katta bir jamoa tayyorlaydi. Jamoada dasturchi, rassom, rejissyor va boshqa ijodkorlar bo‘lishi mumkin.

Agar sizda shu kasbni egallash istagi bo‘lsa, kompyuter dasturlarini o‘rganish bilan birga o‘zingizdagi ijodkorlik qobiliyatlarini ham rivojlantirishga harakat qiling.

1. Sodda qilib ayting-chi, kompyuter grafikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Kompyuter grafikasi insonlarga nima berdi?
3. Kompyuter grafikasi odamlarni nimalardan mahrum qilib qo‘ydi deb o‘ylaysiz?
4. Kompyuter grafikasidan yana qaysi sohalarda foydalanish mumkin? Misollar bilan tushuntiring.
5. Animatsiya deganda nimani tushunasiz?
6. Animatsiyalarni multfilmdan boshqa yana nimalarda ko‘ramiz?
7. 3D o‘lcham va 3D modellar deganda nimani tushunasiz?
8. Nega kompyuter grafikasi daromadli soha hisoblanadi?
9. Siz kompyuter grafikasi ustalari jamoasida bo‘lib qolsangiz, kim bo‘lib ishlashni istaysiz: dasturchimi, rassommi, rejissyormi? Nima uchun?
10. Nima uchun Sahroyi Kabir va Markaziy Afrika kabi so‘zlarni bitta ot sifatida qabul qilamiz? Fikringizni asoslang.

Matnda qizil rang bilan berilgan so‘zlarni sohalar va kasblarga ajratib, ikki ustunga yozing. Notanish so‘zlarning izohini lug‘atdan topib, yozing.

Kasb	Soha
animator	animatsiya

Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning qaysilari noto‘g‘ri? To‘g‘ri xulosalarni ko‘chiring.

1. Sahro va qum bo‘ronlarini Janubiy Afrikada suratga olish qulay.
2. Kompyuter grafikasi ustalari reklama roliklari, harakatdagi tasvirlar va **3D modellarni** yaratishi mumkin.
3. Barcha zamonaviy kinolarning asosiy qismini kompyuter grafikasi tashkil qiladi.
4. Kompyuter grafikasi – ko‘p tarmoqli soha.
5. Kompyuter grafikasining eng asosiy yo‘nalishi **animatsiya**dir.
6. Kompyuter grafikasi ustalari dunyoda eng ko‘p daromad topadigan mutaxassislar hisoblanadi.
7. Ta’limni kompyuterda yaratilgan tasvirlarsiz tasavvur qilish mutlaqo xato.
8. **Zamonaviy multfilmlarning deyarli** barchasini animatorlar yaratadi.

Matn ostida berilgan savollarning birini tanlab, unga batafsil javob yozing.

Matnda qora rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohlarini lug‘atdan foydalanib yozing.

Eslatma So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deyiladi.

guldon
asos qo‘shimcha
gul + don

qo‘lqop
asos asos
qo‘l + qop

“Kompyuterda yaralgan tasvir” matni tarkibidan birinchi va ikkinchi qolipga mos tushadigan otlarni aniqlab, ikki ustunga ajratib yozing.

Birdan ortiq asosdan tarkib topgan otlar qo‘shma otlar sanaladi. Masalan, **tuyaqush, o‘rdakburun** qo‘shma otdir.

Berilgan ta’riflarga mos qo‘shma otlarni topib, yozing.

1. Me’yorda ko‘rish hamda ko‘zni himoya qilish uchun taqiladigan asbob – ...
2. Fotosuratga oladigan qurilma – ...
3. Kinofilmlar namoyish qilinadigan maxsus bino – ...
4. Televideniyeda ko‘rsatuv olib boruvchi – ...
5. Qora va kulrang patli qarg‘a – ...
6. Kesib quritilgan olma – ...
7. Tabrik so‘zlari yozilgan maktub – ...

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar har doim qo‘shib yoziladi: *qorbo‘ron, qizilishton, ko‘ksulton.*

Berilgan gaplarni o‘qing. Gaplar tarkibidan joylarni bildiruvchi otlarni topib, yozing.

Endi qum bo‘ronlarini tasvirga olish uchun Sahroyi Kabirga yoki Markaziy Afrikaga borish shart emas. Kompyuter grafikasi, ayniqsa, qiyin sahnalarni suratga olishda qo‘l keladi.

Respublikamizning turli hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida kompyuter grafikasini o‘rgatishga mo‘ljallangan qator kurslar tashkil qilingan.

Markaziy Afrika, Sahroyi Kabir kabi qo‘shma otlar ajratib yozilgan, *Qashqadaryo, Surxondaryo* kabi qo‘shma otlar esa qo‘shib yozilgan. Buning sababi nima bo‘lishi mumkin?

• **Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi:** Beshariq, Qorqiz, Qashqadaryo.

• **Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo‘lgan qo‘shma otlar esa ajratib yoziladi:** Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika, Quyi Chirchiq.



Berilgan so‘zlarni o‘zaro moslashtirib qo‘shma otlar hosil qiling.

Uch	Yuqori
Olti	Markaziy
Orol	Shimoliy
To‘rt	Yangi
Mirza	O‘rta

ariq	Amerika
qo‘rg‘on	ko‘l
Chirchiq	Zelandiya
obod	Osiyo
Koreya	bo‘yi



Qo‘shma otlar ishtirok etgan beshta gap tuzib, yozing.



Quyida berilgan qo‘shma otlar tarkibidan xato yozilgan qo‘shma otlarni aniqlang, ularni to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chiring.

Yangi yo‘l, To‘rtko‘l, Quyi chirchiq, Mirzaobod, jigar rang, so‘zboshi, tok qaychi, kir sovun, qo‘ziqorin, otquloq, Kumushkon, Oq tosh.



E’lonlar matnini o‘zaro qiyoslab o‘qing.

E’LON!

Animatorlar uchun ajoyib imkoniyat!

O‘z kasbining ustasi bo‘lgan malakali dasturchilarni ishga qabul qilamiz.

Mutaxassisga qo‘yiladigan talablar:

- ***“Adobe Animate”, “3ds Max” kabi dasturlarda ishlay olish;***
- ***Ijodkorlik;***
- ***Ishga mas’uliyat;***

OYLIK MAOSH – 15 MILLION SO‘M.

Xodimlar bepul, mazali tushlik bilan ta’minlanadi.

Biz bilan ***adobe-animator_2022@gmail.com*** elektron pochtasi orqali bog‘laning.


E’LON

Yahshi dasturchilarni ishga qabul qilamiz.

Nomzot ***“Adobe Animate”, “3ds Max”*** dusturlari bilishi kerak. Ishga vaqtida kelib, vaqtida ketishi kerak.

16 million oylik beramiz.
Bepul obed beriladi.

max-animator_2022@gmail.com pochtasi orqali bog‘laning.



1. Sizningcha, e’lonlarning qay biri yaxshi yozilgan?
2. Siz qaysi ishxonani tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
3. Birinchi e’lonning yutuq va kamchiliklarini nimalarda ko‘ryapsiz?
4. Ikkinchi e’lonning yutuq va kamchiliklarini nimalarda ko‘ryapsiz?
5. Birinchi va ikkinchi e’lonlarga qanday qo‘shimcha, tuzatishlar kiritgan bo‘lar edingiz?
6. E’lon yozganda nimalarga e’tibor berish kerak deb o‘ylaysiz?

O‘zingiz e’lon yozing.

Tasavvur qiling, siz multiplikatsiya studiyasi rahbarisiz. Multfilm yaratish uchun yaxshi animatorga ehtiyojingiz bor. Mutaxassis izlab, e’lon matni yozing.

E’lon matnida insonni o‘ziga jalb qiluvchi qanday jumlalar bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz? Ularni yozing.

Namuna *"Diqqat, daromadli ish!" yoki "Bu barchaga foydali!"*

TELEBOSHLOVCHI BO‘LIB QOLSAM

Bu mavzuda o‘rganamiz

• teleboshlovchilik kasbi • sohaga doir til birliklari • munosabat bildirish va o‘z fikrini himoya qila olish • rasmiy va norasmiy uslub • sifat so‘z turkumi • yordamchi so‘zlar.

Rasmlarga qarang.





1. Rasmlarda qanday kasb egalari aks etgan? Bu kasb haqida nimalarni bilasiz?
2. Rasmlarni bir so‘z bilan rasmiy va norasmiy deya ta’riflash mumkin. Bu ikki tushunchaning farqini berilgan rasmlar asosida qanday tushuntirasiz?
3. Rasmiy nutqda so‘zlovchi aynan nimalarga e’tiborli bo‘ladi? Misollar bilan tushuntiring.
4. Norasmiy nutqda so‘zlovchi uchun nimalar cheklanmagan? Misollar bilan tushuntiring.

Ikki matnni taqqoslab o‘qing. Rasmiy va norasmiy nutqqa oid o‘rinlarni o‘zaro farqlashga harakat qiling.

Rasmiy nutq

Dasturimizni hayvonot olamiga oid muhim xabar bilan davom ettiramiz. Yurtimizdagi “Zarafshon” davlat qo‘riqxonasida brakonyerlik faoliyatiga chek qo‘yildi. Noqonuniy ovchilik faoliyati bilan shug‘ullangan shaxslar O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan qo‘ng‘ir ayiqlarni ovlagani aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan tuman ichki ishlar bo‘limi tomonidan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan.

Norasmiy nutq

Xayrli kech, azizlar! Bizda hayvonot olamiga qiziquvchilar uchun ajoyib yangilik bor. Aytishlaricha, “Zarafshon” qo‘riqxonasida bir necha juft qor qoplonlari paydo bo‘lgan. Katta ehtimol bilan, ular qo‘shni davlatlardan mehmon bo‘lib kelgan. Ma’lumot uchun aytib o‘tay, qor qoploni butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan yirtqichlardan biri hisoblanadi. Qizil kitobga kiritilgan ushbu hayvon davlat muhofazasida. Ularni ovlash og‘ir jinoyat sanaladi.

1. Sizningcha, aynan qaysi so‘zlar rasmiy va norasmiy nutqni bir-biridan farqlab turibdi?
2. Gaplarning tuzilishi va ifoda maqsadiga e’tibor bering. Ular qaysi xususiyatlariga ko‘ra rasmiy va norasmiy nutqqa xos bo‘la oladi?
3. Ayting-chi, rasmiy nutq qachon, qanday vaziyatda qo‘llanishi mumkin?
4. Rasmiy nutqning ustunligi nimada? Kamchiligi-chi?
5. Norasmiy nutq qachon, qanday vaziyatda qo‘llanishi mumkin?
6. Norasmiy nutqning ustunligi nimada? Kamchiligi-chi?

Berilgan so‘z va birikmalardan foydalanib gaplarni rasmiy yoki norasmiy nutq shakliga o‘zgartirib ko‘chiring.

aziz tomoshabinlar | qiziqarli | ko‘rsatuvni | ko‘chib o‘tgan | mutaxassislarning aniqlashicha | ajoyib

- Dasturimizni hayvonot olamiga oid muhim xabar bilan davom ettiramiz.
- Katta ehtimol bilan, ular qo‘shni davlatlardan mehmon bo‘lib kelgan.

Berilgan xabarni yetkazish maqsadida rasmiy yoki norasmiy nutq tayyorlang.



Muhammadfozil Ismoilov

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi 50-maktab o‘quvchisi Muhammadfozil Ismoilov “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida 1-o‘rinni olgan.

Televideniyeda namoyish etilayotgan ko‘rsatuvlarni kuzating. Bu ko‘rsatuvlarning biri haqida o‘z shaxsiy qarashlaringiz aks etgan matn yozing.

Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

TELEBOSHLOVCHI KIM?



XX asrning 40-yillariga kelib dunyoda teleboshlovchilik kasbi paydo bo‘ldi. Chunki shu yillarda endigina ixtiro qilingan televizor odamlarning uylariga kirib kela boshlagandi. U vaqtlarda telekanallar hozirgidek ko‘p bo‘lmagan. Faqat bitta kanal bo‘lgan. Efir vaqti esa kuniga bir soatdan oshmagan. Shu vaqtda mahallada yagona bo‘lgan “televizorli xonadon”ga butun qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilib, maza qilib televizor ko‘rishgan. Ekranda ko‘rinish berib, so‘nggi yangiliklarni aytayotgan teleboshlovchi esa odamlarning eng qadrdon kishisiga aylanib ketgan.

Yillar o‘tib, telekanallar ham, ko‘rsatuvlar ham ko‘paydi. Ko‘rsatuvlar axborot, ko‘ngilochar va shou kabi turlarga ajraldi. Natijada, yangiliklar va sport sharhlovchisi, ob-havo ma’lumotlari, shou va musiqiy ko‘rsatuvlar boshlovchisi kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Endi har bir ko‘rsatuv uchun alohida-alohida teleboshlovchi kerak bo‘lardi. Sababi “Axborot” ko‘rsatuvining boshlovchisi uchun “Musiqiy tanaffus” ko‘rsatuviga ham boshlovchilik qilish qiyin edi-da.

Teleboshlovchi studiyada faoliyat yuritadi. Aytgandek, suxandon va teleboshlovchini bir-biridan farqlash kerak. Suxandon tayyor matnni o‘qib beradi. Ya’ni o‘zi ijod qilmaydi. Ular asosan informatsion ko‘rsatuvlarda ishlaydi. Teleboshlovchi esa izlanadi, kerakli ma’lumotlarni yig‘adi, mustaqil ravishda intervyular oladi, qayerda qanday gapirish kerakligi ustida bosh qotiradi, vaziyatga qarab improvizatsiya qila oladi. Bir so‘z bilan aytganda, ular ijodkor bo‘lishadi.



Teleboshlovchi kamera qarshisida o‘zini qanday tutishni, tomoshabinlarning e’tiborini qanday jalb etishni, fikrini aniq va tushunarli tarzda yetkaza olishni bilishi lozim. Shuning uchun topqir, so‘zamol, uddaburon teleboshlovchilar kutilmagan vaziyatlarda ham o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydi. Bu sifatlarga

ega bo‘lmagan teleboshlovchilar faoliyati davomida ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ular birgina xato gapi yoki harakati bilan millionlab tomoshabinlar oldida uyalib qolishi hech gap emas.




Albatta, teleboshlovchi yolg‘iz o‘zi bo‘lmaydi, kadr ortida uning butun jamoasi ishlaydi. Jamoada rejissyor, prodyuser, ssenarist, grimchi, operator, chiroqchi va yana ko‘plab mutaxassislar yig‘iladi. Ammo efir vaqtida tomoshabinlar faqat boshlovchini ko‘radi xolos.

Teleboshlovchilik – dunyodagi eng og‘ir kasblardan biri. Bu kasb egalari deyarli dam olish kunlarisiz ishlashga majbur. Chunki odamlar dam olish kunlari ko‘proq televizor ko‘radi-da. Yana teleboshlovchilar tong sahardan studiyaga kelishga, ba’zan yarim tunda boshlovchilik qilishga majbur bo‘lishadi. Tasvirga olish jarayonlari bir necha soatga cho‘zilib ketganda esa tushlik qilishni ham unutib qo‘yishadi. Qolaversa, ular doim tashqi ko‘rinishlariga e’tibor berishga, sport bilan muntazam shug‘ullanishga majbur. Ha, uyquchi va dangasalarga bu kasb umuman mos kelmaydi.

Xo‘sh, endi ayting-chi, siz hali ham teleboshlovchi bo‘lishni orzu qilyapsizmi?

1. Teleboshlovchilik kasbi qachon, qaysi voqeadan so‘ng paydo bo‘ldi?
2. Nima uchun dastlab teleboshlovchilik kasbi ko‘p tarmoqli bo‘lmagan?
3. Ko‘rsatuvlarning turiga qarab, teleboshlovchilikning qanday yo‘nalishlari borligi haqida gapiring.
4. Yangiliklar sharhlovchisi bilan ko‘ngilochar ko‘rsatuv boshlovchisining qanday farqi bor?
5. Suxandon va teleboshlovchining farqi nimada?
6. Teleboshlovchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak? Bu xislatlar ularga nima uchun kerak bo‘ladi? Fikrlaringizni asoslab bering.
7. Nima uchun teleboshlovchilik dunyodagi eng og‘ir kasblardan biri hisoblanadi?
8. Sizningcha, teleboshlovchilik qanday kasb? O‘z fikringizni erkin bildiring, tanqid qilishdan cho‘chimang.
9. Sizningcha, teleboshlovchi va suxandon nutqi uchun qanday talab qo‘yilishi mumkin?



So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling. Ularning izohini kitob ortidagi lug‘atdan topib, ko‘chiring.

Telekanal, efir, intervyu, shou, studiya, informatsion, improvizatsiya, kadr, rejissyor, prodyuser, ssenarist, grimchi, operator.

Berilgan so‘z birikmalarining ma’nosini sinfda muhokama qiling.

efir vaqti | ko‘ngilochar ko‘rsatuv | shou dastur | improvizatsiya qilish | kadrorti

Matn asosida ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Har bir ma’lumotni sinfda muhokama qiling.

1. Teleboshlovchilik kasbi 1940-yilda paydo bo‘lgan.
2. Telekanallar endigina paydo bo‘lgan vaqtda efir vaqti bir soatdan ko‘p emas edi.
3. Teleboshlovchilarning ko‘payishiga teleko‘rsatuvlarning ortishi sabab bo‘lgan.
4. Teleboshlovchi tayyor matnni o‘qib beradi.
5. Teleboshlovchi odatda informatsion ko‘rsatuvlarda ishlaydi.
6. Teleboshlovchi yolg‘iz o‘zi bo‘lmaydi, efir vaqtida uning butun jamoasi ishlaydi.
7. Suxandon efir vaqtida tez-tez improvizatsiya qilishga majbur bo‘ladi.

Televideniyeda faoliyat yuritadigan mutaxassislardan qaysi birining vazifasini bajarishni istaysiz?

- Rejissyor
- Operator
- Prodyuser
- Suxandon
- Ssenarist
- Teleboshlovchi
- Grimchi

Bu kasblardan birini tanlab, fikrlaringizni quyidagi tartibdagi matn shaklida yozing:

- tanlagan kasbingiz;
- buning sababi;
- ushbu kasb egasining vazifasi;
- kasbiy sifatlari;
- bu kasbni egallash uchun nimalar qilish kerakligi.



Matndan olingan parchani o‘qing, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. “Qanday?”, “qanaqa?” so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarni alohida ko‘chiring.

Teleboshlovchi **kamera** qarshisida o‘zini qanday tutishni, tomoshabinlarning e’tiborini **qanday** jalb etishni, fikrini **aniq** va **tushunarli** tarzda yetkaza olishni bilishi lozim. Shuning uchun topqir, **so‘zamol, uddaburon** teleboshlovchilar kutilmagan vaziyatlarda ham o‘zlarini **yo‘qotib qo‘ymaydi.** Bu **sifat**larga ega bo‘lmagan teleboshlovchilar faoliyati davomida ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ular birgina **xato** gapi yoki harakati bilan millionlab **tomoshabinlar** oldida **uyalib qolishi** hech gap emas.



Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va “qanday?”, “qaysi?” so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar **sifat** deyiladi.



Berilgan so‘zlarni mos sifatlar bilan biriktirib, ko‘chiring. Ushbu otlarga yana qanday sifatlarni biriktirish mumkinligini misollar bilan ko‘rsatib bering.

Otlar	Sifatlar
ko‘rsatuv	keng
teleboshlovchi	musiqiy
yo‘l	ko‘ngilochar
kasb	topqir
mutaxassis	og‘ir
odam	obod
qishloq	dangasa
kishi	yaxshi
ko‘rsatuv	qadrdon



Yuqorida berilgan sifatlarni shaxs, narsa yoki o‘rin-joyning belgisini bildirib kelayotganiga ko‘ra ushbu jadvalga yozing.

Shaxsning belgisi	Narsaning belgisi	O‘rin-joy belgisi
?	?	?

Ayting-chi, bu so‘z birikmalarida sifat qanday vazifani bajarmoqda?

Matndan olingan quyidagi parchani o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan birliklar qanday vazifani bajarayotganini aniqlash maqsadida ularni tushirib qoldirib, qayta o‘qib ko‘ring, vazifasini tushuntiring.

Yillar o‘tib, telekanallar **ham**, ko‘rsatuvlar **ham** ko‘paydi. Ko‘rsatuvlar axborot, ko‘ngilochar **va** shou kabi turlarga ajraldi. Natijada, yangiliklar **va** sport sharhlovchisi, ob-havo ma’lumotlari, shou **va** musiqiy ko‘rsatuvlar boshlovchisi kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Endi har bir ko‘rsatuv **uchun** alohida-alohida teleboshlovchi kerak bo‘lardi. Sababi “Axborot” ko‘rsatuvining boshlovchisi **uchun** “Musiqiy tanaffus” ko‘rsatuviga **ham** boshlovchilik qilish qiyin edi-**da.**

Yordamchi so‘zlarni vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajrating:

1	So‘zni so‘zga bog‘lash	?
2	So‘zga qo‘shimcha ma’no yuklash	?

Uchta gap tuzib, yozing. Birinchi gapda sifat shaxsning, ikkinchi gapda narsaning, uchinchi gapda o‘rin-joyning belgisini bildirsin.

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar qo‘shma sifatlar hisoblanadi.
Qo‘shma sifatlar asosan qo‘shib yoziladi: *quyonyurak, devqomat, mehnatsevar.*
Juft va takror sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *baxtli-taxtli, yo‘l-yo‘l.*
Juft sifat qismlari -u/-yu vositasida bog‘lansa, ular ajratib yoziladi: *yakka-yu yagona*.

Berilgan sifatlar ichidan juft va qo‘shma sifatlarni alohida ko‘chiring.

Kamgap, esli-hushli, shirinsuxan, jahldor, boy-badavlat, hozirjavob, ishyoqmas, sog‘-salomat, mehnatsevar, kaltafahm, nozik-nihol, qo‘rqoq, chaqqon, madaniyatli, ayyor.

Yuqorida berilgan sifatlar tarkibidan teleboshlovchilik kasbiga xos bo‘lgan sifatlarni ajrating. Ularga qo‘shimcha qilishingiz mumkin. Sifatlardan foydalangan holda teleboshlovchilik kasbining muhim jihatlari yoritilgan kichik matn yozing.

Intervyu savollarini tayyorlang.



Tasavvur qiling, siz teleboshlovchisiz. Siz boshlovchilik qilayotgan ko‘rsatuvga shaxmatchi Nodirbek Abdusattorov kelgan. Ko‘rsatuvingiz tomoshabinlarga manzur bo‘lishi uchun chiroyli suhbat tashkil etishingiz kerak. Shu sababli Nodirbek uchun mazmunli savollar tuzib, yozing. Savollaringiz uchtadan kam bo‘lmasin.

Quyida berilgan ma’lumotlardan foydalanib Nodirbek Abdusattorovning jahon chempioni bo‘lgani haqida xabar matnini yozing. Yozgan matningiz rasmiy yoki norasmiy nutq shaklida bo‘lishi mumkin.

Ismi: Nodirbek Abdusattorov.
Tug‘ilgan sanasi: 2004-yil, 18-sentyabr.
Faoliyati: shaxmatchi.
Yutuqlari:

- 2017-yili 13 yoshida xalqaro toifadagi grossmeyster bo‘lgan.
- 2021-yil 29-dekabrda shaxmatning rapid (tezkor shaxmat) yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempioni bo‘lgan.
- Shaxmat tarixidagi eng yosh jahon chempioni.



O‘zingiz yozgan matnni qayta tahrir qiling. Yuqoridagi intervyuni do‘stingiz bilan uyushtirishga tayyorlaning.

O‘zingiz qiziqqan yoki tanlagan kasb talab qiladigan sifatlarni yozib chiqing. Sizda ushbu sifatlardan qaysilari borligi, qaysi sifatlar yo‘qligiga tanqidiy nazar tashlang.

MUSTAHKAMLASH

Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishingiz haqida o‘ylab ko‘ring. Savollarga javob bering.



1. Siz qaysi kasb egasi bo‘lishni xohlaysiz?
2. Nima uchun bu kasbni tanladingiz?
3. Siz tanlagan kasb egalari qanday fazilatlarga ega bo‘lishi muhim deb hisoblaysiz?

Kasb-hunarga oid maqollarni ko‘chiring. Belgi bildiruvchi so‘zlarning tagiga chizing.

1. Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz hunar. 2. Hunarli yigit – mevali daraxt. 3. Behunarning hunari – yalqovlik. 4. Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, odam – mehnati bilan. 5. Ilmsizga ishonch yo‘q, hunarsizga quvonch yo‘q.

Muayyan bir sohaga oid kasb egalari nomini guruhlarga ajratib ko‘chiring.

Fermer, arxitektor, shifokor, agronom, quruvchi, laborant, veterinar, suvoqchi, traktorchi, montaj ustalari, feldsher.

Tibbiyot xodimlari	Qurilish xodimlari	Qishloq xo‘jaligi xodimlari
?	?	?

Yuqoridagi so‘zlarga quyidagi qo‘shimchalarni qo‘shib, ularni gaplar tarkibida qo‘llab yozing. So‘zning gapdagi vazifasini aniqlang.

-ni, -ning, -ga, -da, -dan.

Namuna *Shifokorning (kimning? ikkinchi darajali bo‘lak) vazifasi insonlarni davolash, ularga yordam berish.*

Nutqimizni bezovchi vositalardan yana biri tasviriy ifodalardir. Ular maqol va ibora kabi nutqimizning ta’sirchanligini oshirishga yordam beradi va unga **ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi.** Tasviriy ifoda tushunchani bildirishi bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi bilan undan farq qiladi.

Quyida berilgan tasviriy ifodalar qanday kasb egalariga tegishli ekanini aniqlang. Har bir tasviriy ifodani izohlang.

Salomatligimiz posbonlari	Samo lochinlari
Qalam ahli	Yaylov sultoni
Mo‘yqalam sohibi	Osoyishtalik posbonlari






Biror kasb yoki hunar uchun tasviriy ifoda tanlang. Nima uchun shunday ifoda tanlaganingizni tushuntiring.


“Mening kasbim – mening kelajagim” mavzusida ijodiy matn yarating. Unda sifat darajalaridan foydalaning.


IMPORT YOKI EKSPORT?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• import va eksport tovarlari, ularning davlat iqtisodidagi ahamiyati • infografika va diagramma ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish • matn tuzilishiga doir tavsiyalar • fikrni izchil ifodalash • shaxsiy qarashlarini himoya qilish • qo‘shma sifatlar • taqdimot tayyorlash.

Infografika – rasmli ma’lumotlarni o‘rganing. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi haqidagi savollarga javob bering.





1. Rasmlarga qarab ayting-chi, eksport va import nima ekan?
2. Tashqi savdo deganda nimani tushundingiz?
3. O‘zbekiston qanday mahsulotlarni xorijga eksport qiladi? Ya’ni nimalarni sotadi?
4. O‘zbekiston asosan nimalarni boshqa davlatlardan sotib oladi? Ya’ni nimalarni import qiladi?
5. Ayting-chi, nega biz bu narsalarni sotib olamiz? Sizningcha, bu yaxshimi yoki yomon? Fikrlaringizni asoslang.
6. Sizningcha, O‘zbekiston yana nimalarni xorijiy davlatlarga sotadi? Yana nimalarni sotib oladi?
7. Diagrammaga qarab ayting-chi, biz eng ko‘p sotadigan narsalar nima ekan? Eng ko‘p sotib oladigan narsalarimiz-chi?
8. Nima uchun biz bu narsalarni ko‘p miqdorda sotib olamiz yoki sotamiz?
9. Nima deb o‘ylaysiz, davlatimiz rivojlanishi uchun ko‘proq eksport qilishimiz kerakmi yoki import? Fikrlaringizni asoslang.
10. Sizningcha, qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarsak, boshqa davlatlardan ko‘p buyurtma bo‘ladi? Nima uchun?

Berilgan rasm va ma’lumotlarning mazmunini sinfda muhokama qiling. Mahsulot turlarining nomi, qanday ishlab chiqarilishi, odamlarga nega kerakligini ayting.



Oziq-ovqat va ichimliklar



Xomashyo



Yonilg‘i



Kimyoviy moddalar



Tayyor mahsulotlar



Sanoat mollari



Xizmatlar



Mashina va uskunalar



Oltin va rangli metallar

Har bir turga mansub mahsulot va xizmat nomlarini namunadagi kabi yozing.

Namuna *Oziq-ovqat va ichimliklar: shakar, o‘simlik yog‘i, …*

Oldingi sahifada berilgan rasm va diagrammaga qarab 2021-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi qanday bo‘lgani haqida og‘zaki taqdimot qiling.

Mahsulot turlarining birini tanlab, u haqidagi ma’lumotlar bilan tanishing. Bu mahsulotning O‘zbekiston iqtisodi uchun qanchalik foydali ekanini asoslab, kichik matn yozing.

Matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering.

EKSPORT YOKI IMPORT?

Kunda-kunora televizor yoki radioda, ba’zan kattalarning suhbatida “eksport” va “import” degan so‘zlar qulog‘ingizga chalinsa kerak. Aslida, iqtisod sohasida muhim bo‘lgan bu so‘zlarni tushunish qiyin emas.

Agar biron davlat o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulot**ni** boshqa davlatga sotsa, bu *eksport* deb ataladi. *Import* esa, aksincha, biror mahsulotni boshqa davlat**dan** sotib olishdir.

Masalan, O‘zbekiston oltin va boshqa rangli metallar, tabiiy gaz, paxta hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘p eksport qiladi. Ya’ni boshqa davlatlarga sotadi. Shu bilan birga, bizda import mahsulotlari ham juda ko‘p. Biz samolyot, turli dastgohlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va dori-darmon**ning** asosiy qismini haligacha boshqa davlatlardan sotib olamiz, ya’ni import qilamiz.

Odatda rivojlangan davlatlar mahsulotlarini asosan eksport qiladi. Boshqa davlatlar esa bunday mahsulotlarni ishlab chiqara olmagani uchun ularni sotib olishga majbur. Jahon iqtisodiyoti ana shunday ishlaydi. E’tibor qilsangiz, biz asosan xomashyoni ko‘p eksport qilamiz. Tayyor mahsulotni esa ko‘proq import qilamiz. Xo‘sh, bu nimadan darak beradi? Afsuski, bu bizda xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratadigan zavod va fabrikalarning kam ekanini bildiradi. Xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida sotayotgan xorijliklar esa yaxshigina daromad oladi.

Agar import mahsulotlarini o‘zimiz ishlab chiqarganimizda, iqtisodimiz yanada rivojlanar edi. Sababi chet davlatdan biror narsa sotib olganimizda O‘zbekistondagi pullar o‘sha davlatga chiqib ketadi-da. Demak, biz bor e’tiborimizni eksportbop tovarlar ishlab chiqarish**ga** qaratishimiz kerak. Qaysi davlatning eksport mahsulotlari ko‘p bo‘lsa, shu davlatning iqtisodi baquvvat bo‘ladi. Uning aholisi ham boy yashaydi.

Xo‘sh, endi o‘ylab ko‘ring, kelajak**da** tadbirkor bo‘lsangiz, eksport bilan shug‘ullanasizmi yoki import bilan?

“Jajji akademik” jurnalidan

1. Nima uchun biz oltin va boshqa rangli metallar, tabiiy gaz, paxta hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘p eksport qilamiz?
2. O‘zbekistonning asosan xomashyo eksport qilishiga iqtisodiy jihatdan qanday baho berasiz? Fikrlaringizni asoslang.
3. Asosan xomashyo eksport qilishimizning sababi nimada? Bu muammoning yechimini nimalarda ko‘rasiz?
4. Eksport mahsulotlari ko‘p bo‘lgan qaysi davlatlarni bilasiz? Nima deb o‘ylaysiz, ular bu darajaga qanday erishgan?
5. Kelajakda tadbirkor bo‘lsangiz, iqtisodimiz rivoji uchun nimalar qilar edingiz?

Maqola matnining qismlari bilan tanishing.

Maqola matnini uning mazmunidan kelib chiqib, quyidagicha shartli qismlarga ajratish mumkin. Sinfda matn qismlariga nega bunday nom qo'yilganini muhokama qiling.

1 Maqola sarlavhasi

EKSPORT YOKI IMPORT?

2 Kirish

Kunda-kunora televizor yoki radioda, ba'zan kattalarning suhbatida "eksport" va "import" degan so'zlar qulog'ingizga chalinsa kerak. Aslida, iqtisod sohasida muhim bo'lgan bu so'zlarni tushunish qiyin emas.

3 Muhim ma'lumot

Agar biron davlat o'zida ishlab chiqarilgan mahsulot**ni** boshqa davlatga sotsa, bu *eksport* deb ataladi. *Import* esa, aksincha, biror mahsulotni boshqa davlat**dan** sotib olishdir.

4 Ma'lumotni misollar bilan tushuntirish

Masalan, O'zbekiston oltin va boshqa rangli metallar, tabiiy gaz, paxta hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'p eksport qiladi. Ya'ni boshqa davlatlarga sotadi. Shu bilan birga, bizda import mahsulotlari ham juda ko'p. Biz samolyot, turli dastgohlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va dori-darmon**ning** asosiy qismini haligacha boshqa davlatlardan sotib olamiz, ya'ni import qilamiz.

5 Muammo va tahlil

Odatda rivojlangan davlatlar mahsulotlarini asosan eksport qiladi. Boshqa davlatlar esa bunday mahsulotlarni ishlab chiqara olmagani uchun ularni sotib olishga majbur. Jahon iqtisodiyoti ana shunday ishlaydi. E'tibor qilsangiz, biz asosan xomashyoni ko'p eksport qilamiz. Tayyor mahsulotni esa ko'proq import qilamiz. Xo'sh, bu nimadan darak beradi? Afsuski, bu bizda xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratadigan zavod va fabrikalarning kam ekanini bildiradi. Xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida sotayotgan xorijliklar esa yaxshigina daromad oladi.

6 Xulosa va yechim

Agar import mahsulotlarini o'zimiz ishlab chiqarganimizda, iqtisodimiz yanada rivojlanar edi. Sababi chet davlatdan biror narsa sotib olganimizda O'zbekistondagi pullar o'sha davlatga chiqib ketadi-da. Demak, biz bor e'tiborimizni eksportbop tovarlar ishlab chiqarish**ga** qaratishimiz kerak. Qaysi davlatning eksport mahsulotlari ko'p bo'lsa, shu davlatning iqtisodi baquvvat bo'ladi. Uning aholisi ham boy yashaydi.

7 Fikrlashga undovchi savol

Xo'sh, endi o'ylab ko'ring, kelajak**da** tadbirkor bo'lsangiz, eksport bilan shug'ullanasizmi yoki import bilan?

"Jajji akademik» jurnalidan

Manba

8

1. Sizningcha, matnning ikkinchi qismi nima uchun "Kirish" deb nomlangan?
2. Matnning uchinchi qismi nega "Muhim ma'lumot" deb nomlangan? Bu qismdagi aynan nima muhim ma'lumot bo'lishi mumkin? Fikrlaringizni asoslang.
3. "Ma'lumotni misollar bilan tushuntirish" qismida misol sifatida qaysi ma'lumotlarga urg'u berilgan? Bu qismni yana qanday nomlash mumkin?
4. "Muammo va tahlil" qismidagi qaysi gap muammoni to'laqonli ifodalaydi? Qaysi gapda tahlilni ko'rish mumkin?
5. "Xulosa va yechim" qismidagi xulosa qaysi, yechim-chi?
6. "Fikrlashga undovchi savol" qismi matnda nima uchun berilgan deb o'ylaysiz?

Quyidagi so‘z va qo‘shimchalar ishtirokida namunadagi kabi sifatlar hosil qiling.

Namuna *rang + li, eksport + bop.*

So‘zlar	Qo‘shimchalar
hunar	-bop
bozor	-gi
quvvat	-dor
qadim	-chan
xaridor	-mand
pul	ser-
talab	ba-
daromad	-gir

To‘g‘ri yozilgan qo‘shma sifatlarni ko‘chiring.

mehnatsevar – mehnat sevar
jon kuyar – jonkuyar
kam xarj – kamxarj

xushmuomala – xush muomala
ish yoqmas – ishyoqmas
xaridortalab – xaridor talab

Biror mavzuda kirish, muammo va tahlil, xulosa qismlaridan iborat maqola yozing.



“Eksport yoki import?” matnidagi ba’zi gaplarni ajratib ko‘rsatilgan qo‘shimchalarsiz o‘qing. Ushbu qo‘shimchalar gapda qanday vazifani bajarayotganini aniqlang.

Bir so‘zga qo‘shilib, shu so‘zni ikkinchi so‘zga bog‘lovchi qo‘shimchalar kelishik shakllari sanaladi. O‘zbek tilida oltita kelishik mavjud bo‘lib, har qaysisining o‘z nomi va shakli bor. Kelishik qo‘shimchalarini yanglish qo‘llash uslubiy xato hisoblanadi.

Kelishik qo‘shimchalari ishtirok etgan so‘zlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birgalikda ko‘chiring va namunadagidek tahlil qilib yozing.

Namuna *dori-darmonning qismi – qaratqich kelishigi, dori-darmon, ya’ni otga bog‘langan.*

Ushbu jadvalni daftaringizga chizing. Matn tarkibidan kelishiklarning qo‘llanishiga oid misollarni aniqlab, jadvalning uchinchi ustuniga yozing.

Kelishik nomi	Qo‘shimchasi	Misollar
Bosh kelishik	-	?
Tushum kelishigi	-ni	mahsulotlarini
Qaratqich kelishigi	-ning	?
Jo‘nalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	?
O‘rin-payt kelishigi	-da	?
Chiqish kelishigi	-dan	?

Matndan olingan ushbu parchani nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib, ko‘chiring.

Agar import mahsulotlari...(-ni, -ning) o‘zimiz ishlab chiqarganimizda, iqtisodimiz yanada rivojlanar edi. Sababi chet davlat... (-ga, -dan) biror narsa sotib olganimizda O‘zbekistondagi pullar o‘sha davlat...(-ga, -dan) chiqib ketadi-da. Demak, biz bor e’tiborimiz...(-ni, -ning) eksportbop tovarlar ishlab chiqarishga qaratishimiz kerak. Qaysi davlat...(-ni, -ning) eksport mahsulotlari ko‘p bo‘lsa, shu davlat...(-ni, -ning) iqtisodi baquvvat bo‘ladi. U...(-ning, -ni) aholisi ham boy yashaydi.

“Eksport yoki import?” matnidan quyida berilgan so‘z turkumlariga 5 tadan misol topib, yozing.

Ot	Sifat	Fe’l	Olmosh

Mavzu yuzasidan olgan ma’lumotlaringiz yordamida quyidagi atamalar uchun izoh yozing.

- **Import –**
- **Eksport –**
- **Tashqi savdo aylanmasi –**
- **Tovar –**
- **Xomashyo –**



O‘zbekistonning 2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2035-yilga kelib, siz taxminan 26–27 yoshga to‘lasiz. Ehtimol, u vaqtlarda universitetni bitirib, yaxshi joyda ishlayotgan bo‘larsiz. Bu paytda O‘zbekistonning iqtisodi qanday bo‘lishini tasavvur qiling. Mavzuning boshida berilgan rasm va diagrammalardan, olgan ma’lumotlaringizdan foydalanib O‘zbekistonning 2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi yuzasidan hisobot taqdimotini tayyorlang.

Taqdimotingizda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi zarur:

- 2035-yilda O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasi qiymati qancha bo‘ladi (AQSH dollarida)?
- Tashqi savdoning qancha qismi eksport va qancha qismi import tovarlariga to‘g‘ri keladi?
- Qanday tovarlar eksport va import qilingani aks etgan diagramma (boshqa ko‘rgazmali qurollardan ham foydalanishingiz mumkin).

“O‘zbekistonning 2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi” mavzusidagi hisobotingizni taqdimot qilishga tayyorlaning.

O‘zbekistonning “2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi” mavzusida tayyorlagan hisobotingizni taqdimot qiling. Taqdimot qilish uchun sizga 3 daqiqa vaqt ajratilgan.

Taqdimotda quyidagi ko‘rsatmalarga e’tibor qiling:

– butun sinfning e’tiborini o‘zingizga jalb qiling;

– ma’ruzaning asosiy maqsadi haqida gapiring;

– ajratilgan vaqt chegarasidan chiqib ketmang;

– nutqingizning izchil va ravonligiga ahamiyat qarating.



Do‘stingizning taqdimotiga yuqorida berilgan mezonlar asosida munosabat bildiring.

Sinfdoshlaringizning taqdimotiga qisqacha munosabatingizni yozing.

Namuna

Nodir

– *o’zining nutqi va harakatlari bilan barchani jalb qila oldi;*

– *bir xil fikrni bir necha marta takrorladi (masalan, ...)...*

SOLIQLARNI TO‘LAB BORASIZMI?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• soliqlar va ularning turlari, ijtimoiy ahamiyati • infografikani tushunish • sifat darajalari • yozma nutqda sintaktik vositalardan to‘g‘ri foydalanish • ma’ruza qilish.

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

Qanday soliqlar bor?

MOL-MULK SOLIG‘I


Odamlar o‘zlari egalik qilib turgan mol-mulk uchun soliq to‘laydi



DAROMAD SOLIG‘I

Odamlar o‘z daromadining bir qismini soliq sifatida davlatga to‘laydi





YER SOLIG‘I

Odamlar o‘zlari foydalanib kelayotgan yer maydoni uchun soliq to‘laydi

1. Ayting-chi, soliq deganda nimani tushunasiz?
2. Yana nimalar uchun soliq to‘lanadi?
3. Soliqlarning qanday ijtimoiy ahamiyati bor? Ya’ni odamlar uchun qanday foydasi bor? Fikrlaringizni asoslang.
4. Soliqlarni to‘lamaslikning oqibati nima bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

Ushbu gaplarni o‘zaro bog‘lab, matn hosil qiling. Bunda gaplarni o‘zaro bog‘lovchi so‘zlardan hamda takrorning oldini olish maqsadida olmoshlardan foydalaning.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *shuningdek, ular, yana, ham, hamda, demak, xullas, shuning uchun…*

1. Odamlar o‘zlari egalik qilib turgan mol-mulk uchun soliq to‘laydi. 2. Odamlar o‘z daromadining bir qismini soliq sifatida davlatga to‘laydi. 3. Odamlar o‘zlari foydalanib kelayotgan yer maydoni uchun soliq to‘laydi.

O‘zingiz yozgan gaplarning biridan bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab, ularning tagiga chizing.

Soliqlarning sarflanishiga oid infografika bilan tanishing.



Dastlabki bilimlaringiz asosida infografikada berilgan ma’lumotlarga sharh yozing.

Namuna *Davlat odamlardan yig‘ilgan soliqlarni ta’lim uchun sarflaydi. Agar odamlar soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab borishsa, ularning farzandlarida zamonaviy maktablarda o‘qish imkoniyati paydo bo‘ladi.*

Shahringiz (yoki tumaningiz) hokimiga murojaat xati yozing. Unda soliqlardan tushgan mablag‘ hisobidan hududingizdagi qanday muammoni hal qilish mumkinligi haqida tavsiya bering.

SOLIQLAR

Ba’zida ota-onangizdan “yer solig‘ini to‘lab qo‘yish kerak” yoki “daromad solig‘i bo‘yicha deklaratsiya to‘ldirib keldim” degan gaplarni eshitib qolasiz. Biroq soliq o‘zi nima ekanini bilasizmi?

Soliqlar deganda davlat byudjetiga yo‘naltiriladigan **majburiy** pul to‘lovlari tushuniladi. Ya’ni har qanday mamlakatda odamlar davlatga berishi shart bo‘lgan to‘lovlar mavjud.

Keling, buni harbiylar misolida tushunib olamiz. Tasavvur qiling, siz **katta** davlatning prezidentisiz. Demak, sizga davlat aholisini **yovuz** kuchlardan himoya qilish va qo‘riqlash uchun armiya kerak bo‘ladi. Ammo **armiya**dagi askarlarning yeyishi, ichishi va ish haqi uchun ko‘p pul kerak. Xo‘sh, bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Siz bu pullarni askarlar xizmatidan foydalanayotgan aholidan doimiy ravishda yig‘ib olasiz. Mana shunga o‘xshash to‘lovlar bugungi tilda umumiy qilib “soliq” deyiladi.

Soliq to‘lovchilar to‘lagan pul davlatning rivojlanishi, **aholi**ning **yaxshi** yashashi uchun sarflanadi. Soliqlar evaziga bolalar maktabda bepul o‘qiydi va shifoxonada bepul davolanadi. Shuning uchun ham qonunlarimizda har bir shaxs o‘ziga belgilangan soliqlarni vaqtida to‘lashi shart ekani qayd etilgan. Soliqlarni to‘lashdan bosh tortganlar **ma’muriy** va **jinoiy** **javobgarlik**ka tortiladi. Soliqlar esa majburiy tarzda undirib olinadi.

Abduqahhor Rahimov, huquqshunos



1. Qaysi xatboshi yoki xatboshilar matnning kirish qismi bo‘la oladi? Javobingizni izohlang.
2. Huquqiy tilda soliq deb nimaga aytiladi?
3. “...davlat byudjetiga yo‘naltiriladigan majburiy pul” degan jumlani qanday tushundingiz?
4. Matnning asosiy qismi qaysi gap bilan boshlangan deb o‘ylaysiz?
5. Matnda soliq to‘lashning qanday ijtimoiy ahamiyati haqida so‘z borgan?
6. Sizning oilangizda kimlar soliq to‘lovchi hisoblanadi? Siz ham soliq to‘lovchimisiz?
7. “Soliqlar esa majburiy tarzda undirib olinadi” degan gapni qanday tushundingiz?
8. Matnning xulosa qismi qaysi? Nima uchun?

Matn asosida berilgan topshiriqni bajaring.

- Matndan soliq tushunchasiga aniq huquqiy ta’rif berilgan gapni topib, ko‘chiring.
- Matnda soliq to‘lashning ijtimoiy ahamiyati haqida aytilgan eng muhim gaplarni topib, ko‘chiring. Tanlovingizni asoslab bering.
- Matnning xulosa qismidan o‘zingiz eng muhim deb bilgan gapni topib, ko‘chiring. Tanlovingizni asoslab bering.
- Matn xatboshilari uchun berilgan kichik sarlavhalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda ko‘chiring.



Berilgan namunalar bilan tanishing. Matndan ixtiyoriy gaplarni shu tarzda tahlil qilib yozing.

T/r	Gap bo‘laklari	Namuna
1	Ega (Kim?)	Tasavvur qiling, **siz** katta davlatning prezidentisiz.
2	Kesim (Nima qilinadi?)	Soliqlar majburiy tarzda **undirib olinadi**.
3	Ikkinchi darajali bo‘laklar (Kimlarning? Nimalarni? Qayerda?)	**Askarlarning** yeyishi, ichishi va ish haqi uchun ko‘p pul kerak.
		Har bir shaxs o‘ziga belgilangan **soliqlarni** vaqtida to‘lashi shart.
		Soliqlar evaziga bolalar **maktabda** bepul o‘qiydi.

Matndan *-lar* qo‘shimchasi qo‘llangan so‘zlarni aniqlang, *-lar* qo‘shimchasining vazifasini tushuntiring.

Ko‘k rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga *-lar* qo‘shimchasini qo‘sha olasizmi? Javobingizni izohlang.

Ko‘plik ma’nosi mavjud bo‘lgan quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Xalq, poda, jamoa, guruh, to‘da, olomon.

Uyda ota-onangiz bilan soliqlarni vaqtida to‘lab borish kerakligi haqida suhbatlashing. Suhbat asosida “Oilamning yurt ravnaqiga qo‘shayotgan hissasi” mavzusida kichik matn yarating.

“Soliqlar” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni aniqlang.

1	Ushbu so‘zlarning barchasi harakatning belgisini bildiradi.
2	Ushbu so‘zlarning barchasi “qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘la oladi.
3	Ushbu so‘zlarning barchasi *-iy* qo‘shimchasining qo‘shilishidan yasalgan.
4	Ushbu so‘zlarning barchasi narsa-buyumning belgisini bildiradi.
5	Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibida rang va maza-ta’mni ifodalovchi so‘zlar mavjud.
6	Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibida hajm-o‘lchov va xususiyatni bildiruvchi so‘zlar mavjud.

O‘zingiz ajratgan xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlarga misollar yozing. Darajalanish xususiyatiga ega bo‘lgan sifatlarni darajalab yozing.


Namuna *baland — balandroq, juda baland, eng baland.*

Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering, ularning gapdagi vazifasini aniqlab, namunadagidek yozing.

Namuna *pul – nima?, ega.*

Soliq to‘lovchilar to‘lagan **pul** davlatning rivojlanishi, aholining **yaxshi yashashi uchun** sarflanadi. Soliqlar evaziga **bolalar** maktabda bepul o‘qiydi va shifoxonada bepul davolanadi. Shuning uchun ham **qonunlarimizda** har bir shaxs o‘ziga belgilangan soliqlarni vaqtida to‘lashi shart ekani **qayd etilgan**. Soliqlarni to‘lashdan bosh tortganlar **ma’muriy** va **jinoiy** javobgarlikka tortiladi. Soliqlar esa majburiy tarzda undirib olinadi.

Soliqlarni elektron shaklda to‘lash bo‘yicha berilgan yo‘riqnoma bilan tanishing. Ushbu infografikani matnga aylantirib yozing.



Izoh: JShShIR – jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami.

Yozgan matningizda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga e’tibor bering.

1. Soliqlarni elektron shaklda to‘lashning qanday usullari bor?
2. Soliqlarni elektron shaklda to‘lashning qanday afzalliklari bor?
3. Ushbu infografika kimlarga foydali bo‘lishi mumkin?
4. Infografikani qanday nomlash mumkin?

Quyida soliq idorasidan keladigan to‘lov xabarnomasi berilgan. Fuqaro sifatida xabarnoma bilan tanishib, undagi ayrim ma’lumotlarni aniqlab, matn yozing.

1. To‘lov xabarnomasi kimga yuborilgan?
2. To‘lov xabarnomasida soliqning qanday turini to‘lash haqida ogohlantirilmoqda?
3. To‘lanadigan soliq miqdorini aniqlang.
4. To‘lov muddatini aniqlang.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI

2022-yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarini to‘lash to‘g‘risida

TO‘LOV XABARNOMASI

Seriya raqami N00019254 Sanasi 01.03.2022-y.

Jami to‘lov 528 106.43 so‘m

Manzil:
Mulkdor:
STIR:
Kadastr raqami:

Soliq kodeksiga asosan egaligingizda va (yoki) foydalanishingizda bo‘lgan mol-mulk hamda yer uchastkalari uchun quyidagi soliqlar hisoblandi:

Soliq turlari / Ko‘rsatkichlari	Mol-mulk solig‘i	Yer solig‘i	SORJ	Jami
2022-yilga hisoblangan soliq summasi	527 217.36	0	0	527 217.36
shundan				
15-aprelgacha to‘lanishi lozim bo‘lgan summa	263 608.68	0	0	263 608.68
15-oktyabrgacha to‘lanishi lozim bo‘lgan summa	263 608.68	0	0	263 608.68
O‘tgan yildan qolgan soliq qarzi	0	0	0	0
Soliq qarzi uchun hisoblangan penya	0	0	1 643.99	1 643.99
**Jumladan, joriy yilda o‘tgan yillar uchun hisoblangan soliq summasi	0	0	0	0
Oldindan amalga oshirilgan to‘lov summasi	754.92	0	0	754.92
Joriy yilda to‘langan soliq summasi	0	0	0	0
Jami to‘lanishi lozim bo‘lgan summa	526 462.44	0	1 643.99	528 106.43

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig‘i hisob-kitobi

Mol-mulk solig‘i

Kadastr qiymati (so‘mda)	210 866 943
Mulk maydoni (kv.m)	109.55
Soliq stavkasi	0.25
Soliq summasi	527 217.36
Imtiyoz summasi	0
2022-yilga stavkaga muvofiq hisoblangan soliq	527 217.36
2021-yilga hisoblangan soliq	485 039.97
2021-yilga hisoblangan soliqning koeff. bo‘yicha summasi (koeff. 1,25)	630 551.95
To‘lanishi lozim bo‘lgan summa	527 217.36

Yer solig‘i

Yer uchastkasi maydoni (kv.m)	Hujjat bo‘yicha yer maydoni	0
	Noqonuniy egallangan yer maydoni	0
Bir kv.m. uchun soliq stavkasi	Hujjat bo‘yicha yer maydoni	1 226.1
	Noqonuniy egallangan yer maydoni	3 678.3
2022-yilga stavkaga muvofiq hisoblangan soliq		0
2021-yilga hisoblangan soliq		0
2021-yilga hisoblangan soliqning koeff. bo‘yicha summasi (koeff. 1,25)		0
Imtiyoz summasi		0
To‘lanishi lozim bo‘lgan summa		0

E S L A T M A !!!

Joriy yil uchun hisoblangan soliqlarni to‘lash teng ulushlarda *15-aprel va 15-oktyabrga* qadar amalga oshirilishi lozim. *(SKning 433-440-moddalari)*

Yer uchastkalaridan hujjatsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgandan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan stavkaning *uch baravari* miqdorida hisoblanadi. Agar soliq imtiyozlarini olish huquqiga ega bo‘lsangiz, imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etishingiz kerak.

SKning 426-moddasiga asosan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati mol-mulk solig‘ining soliq bazasi hisoblanadi, soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qiymati ikki million so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas. Mol-mulkning kadastr qiymati va yer maydonlari o‘rtasida farq aniqlangan taqdirda hududiy kadastr idoralariga murojaat etishingiz lozim bo‘ladi.

**SKning 88-moddasiga asosan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati, soliq davri tugaganidan keyin besh yilni tashkil etadi.

To‘lov quyidagi hisob raqamlarga mobil ilovalar, bank plastik kartalari orqali yoki bank kassalariga naqd pul shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Mol-mulk solig‘i bo‘: 100022 860 8 26277 3131101 993 MFO: 00014
Yer solig‘i: (dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) bo‘: 100022 860 6 26277 3131205 993 MFO: 00014
Yer solig‘i (dehqon xo‘jaliklari uchun) bo‘: 100022 860 6 26277 3131305 993 MFO: 00014
SORJ uchun bo‘: 201422 860 4 26277 3130316 993 MFO: 00014

tumani (shahar) DSI boshlig‘i M.O‘. imzo

Mas’ul xodim: tel: 9989

O G O H L A N T I R A M I Z !!!

SKning 125-moddasiga muvofiq mol-mulk va yer soliqlarini to‘lash muddati tugaganidan keyin soliq qarzi *sud tartibida undiriladi*. To‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan *har bir kun uchun* SKning 110-moddasiga asosan *penya hisoblanadi*.

“Chegarada nega boj to‘lashadi?” audiomatnini tinglang.



1. Boj deb nimaga aytiladi?
2. Nega odamlar yoki davlatlar boj to‘laydi?
3. Qanday holatlarda boj to‘lanmasligi yoki kamaytirilishi mumkin?
4. Davlatlar uchun “umumiy bozor” deganda nimani tushunish mumkin?

Audiomatn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Germaniyadan sotib olingan avtomobil yurtimizga yetib kelgunicha qaysi davlatlarni bosib o‘tadi? Ularni topib, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Avstraliya	Qozog‘iston	Pokiston	Avstriya
Ukraina	Rossiya	Gretsiya	Polsha

Berilgan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nolari haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni quyidagi so‘zlar bilan taqqoslang va qanday qo‘shimcha ma’no borligini aniqlang.

- Kel, **qizalog‘im**, bojxona haqidagi savollaringga javob bera qolay.
- **Qizcha** shoshib bobosining yoniga kelib o‘tirdi.
- Nima uchun, **bobojon**?

Qiz – qizcha, qiz – qizaloq, bobo – bobojon.

Quyida berilgan so‘zlar va qo‘shimchalarni namunadagidek yozing.

Namuna *Kitobcha – kichraytirish ma’nosi, ….*

kitob	-choq
toy	-xon
tugun	-kay
aka	-cha
Lola	-nisa
Zebi	-chak
bechora	-jon
bola	-gina

Quyida “Chegarada nega boj to‘lashadi?” hikoyasidan olingan xulosalar berilgan. Ular tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning so‘rog‘ini va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Bojlarni undirib oladigan **idorani** “bojxona” deyishadi.

2. Bojxonada olib o‘tilayotgan har bir molning hisobi yuritiladi, ular uchun **boj undiriladi**.


3. Bojdan tushadigan **daromadlar** har bir mamlakatning o‘zida qoldiriladi.

4. Davlatlar **o‘zaro kelishgan holda** bir-birlari uchun boj to‘lovini bekor qilishlari mumkin.

Davlat bojxona qo‘mitasining logotipi bilan tanishing. Logotipda mavjud tasvirlarni izohlab yozing.



Berilgan rasmga qarang. Nima uchun soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash kerakligi haqida eslatma mazmunida matn yozing.



Bunda quyida berilgan ko‘rsatmadan foydalanishingiz mumkin.

1. Soliq bu — ...?
2. Odamlar nimalar uchun soliq to‘laydilar?
3. Soliqdan tushgan daromadlar nimalarga sarflanadi?
4. Soliqlar vaqtida to‘lanmay qolsa, ...

Oila a’zolaringizga soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashning ahamiyati haqida gapirib bering.

MUSTAHKAMLASH

Maqollarni o‘qing. Avval tadbirkorlikka, keyin tejamkorlikka oid maqollarni ko‘chirib yozing.

1. ***Puxtaning*** *ishi besh, shoshmaning ishi bo‘sh. 2. Daryoga* ***ot*** *solmasdan oldin kechuvini top. 3. To‘qlikda ochlikni* ***o‘yla****, boyiganda muhtojlikni. 4. Hisobini bilgan bir yil yetim,* ***hisobini bilmagan*** *o‘lguncha yetim. 5. Foydadan foyda chiqmasa,* ***qora*** *sigir qayda? 6. “Nimani o‘qiding?” deb* ***so‘rama****, “Nimani bilding?” deb so‘ra.*

Maqollarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

Namuna *Puxtaning – kimning?, ikkinchi darajali bo‘lak.*

Maqollar tarkibidan kelishik qo‘shimchalari qatnashgan so‘zlarga misollar topib, yozing.

Kelishik nomi	Misollar
Bosh kelishik	?
Tushum kelishigi	?
Qaratqich kelishigi	?
Jo‘nalish kelishigi	?
O‘rin-payt kelishigi	?
Chiqish kelishigi	?

Tadbirkor shaxsiga xos sifatlarni sodda va qo‘shma sifatlarga ajratib yozing. Notanish so‘zlarning izohini kitob oxiridagi lug‘atdan topib, o‘qing.

Xushmuomala, kreativ (ijodkor), novator, tashkilotchi, shirinso‘z, intiluvchan, qat’iy, tejamkor, zamonaviy, mehnatsevar, halol, harakatchan, hozirjavob.

Sodda yasama sifatlarni asos va qo‘shimchaga, qo‘shma sifatlarni esa ikki asosga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Kelinglar, iqtisod qilishni oiladan boshlaymiz. Buning uchun reja tuzib olish juda muhim! Quyidagicha jadval tuzing.

- Jadvalning birinchi ustuniga oilangizga bir oyda keladigan (maosh va boshqa) daromadlarni yozing.
- Ikkinchi ustun bir nechta qismdan iborat bo‘lishi mumkin. Siz unda xarajatlarning turlarini va pul miqdorini yozasiz.
- Uchinchi ustunda oylik xarajatlardan ortib qolgan pulni nimalarga sarflash mumkinligi haqida qisqa shaklda tavsiya yozing.

Daromad	Xarajat	Jamg‘arma

RAQAMLASHGAN DUNYO

Bu mavzuda o‘rganamiz

• raqamli texnologiyalar • internetning jamiyatdagi o‘rni • sohaga oid atamalar • o‘z va o‘zlashma so‘zlar • hisbelgilar • chizma va ma’lumotlardan foydalanib matn yozish.

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.



Onlayn ta’lim



Onlayn bozor



Onlayn to‘lov



Elektron pullar (kriptovalyuta)



Elektron imzo



Virtual sayohat

1. Yuqoridagi rasmlar asosida “raqamli dunyo” deganda nimani tushunganingiz haqida gapiring.
2. Onlayn ta’limning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. “Onlayn xarid”, “internet do‘kon”, “onlayn bozor” deganda nimalarni tushunasiz? Ularga misollar keltira olasizmi?
4. Onlayn to‘lovdan qachon, qay maqsadda foydalanamiz? Bu bizga nima uchun kerak?
5. Kriptovalyutalar, xususan, bitkoin haqida eshitganmisiz? Nimalarni bilasiz?
6. “Virtual borliq”, “virtual sayohat” deganda nimalarni tushunasiz? Bu sohaning qanday imkoniyatlari bor? Soha kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

Qiziqarli ma’lumot

Hisbelgi nima?

Telegramdagi “Orif Tolib sahifasi” kanalida “smaylik” so‘ziga o‘zbekcha nom berish haqida so‘rovnoma o‘tkazilgan. Obunachilar “kulgich”, “hisbelgi”, “kuldirgich”, “kulinchoq” so‘zlari ichidan “hisbelgi” so‘ziga ko‘proq ovoz bergan. Chunki hisbelgilar odamning his-tuyg‘ularini ifodalaydi-da.



Ingliz tilida: “emoji”
Rus tilida: “смайлик”

Ayting-chi, siz ham “smaylik” so‘zini o‘zbekcha “hisbelgi” so‘ziga o‘zgartirish kerak deb hisoblaysizmi? Bu biz uchun nega kerak?

Tildagi so‘zlar – lug‘at doimiy ravishda boyib boradi. Bu jarayon ikki xil usulda amalga oshadi: birinchi usulda shevalardan so‘z olinadi yoki yangi so‘zlar yasaladi, ikkinchi usulda esa chet tillardan so‘z o‘zlashtiriladi. Birinchi usul lug‘at boyligimizning **ichki imkoniyat** asosida, ikkinchi usul **tashqi imkoniyat** asosida boyishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, tilimizdagi so‘zlar ikki qatlamdan iborat bo‘ladi. Birinchisi – **o‘z qatlam,** ikkinchisi – **o‘zlashma qatlam.** O‘z qatlamdagi so‘zlar tilimizda qadimdan qo‘llab kelinayotgan so‘zlardir. Ular umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlar hisoblanadi: *quvonch, oyoq, ko‘klam, ikki, bugun, to‘ng‘ich*. Arab, fors, Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar esa o‘zlashma qatlamni tashkil etadi: *kitob, she’r, bahor, non, pul, brifing, dizayn, planshet.*

Xorijiy tillardan olingan so‘zlar bilan tanishing. Kitob oxirida berilgan lug‘atdan izohini topib, ko‘chiring.

onlayn | elektron | internet | virtual | bitkoin | kriptovalyuta

Yuqoridagi so‘zlarning ma’nosini sinfda muhokama qiling. Ularning o‘zbekcha muqobilini o‘ylab toping va yozing.


1. Nega aynan shu so‘zlar qo‘llanadi?
2. Bu so‘zlarni o‘zbekchalashtirish mumkinmi?
3. O‘zingiz yaratgan “atama”ni asoslang.

Xorijiy tillardan olingan va odamlar ishlatib kelayotgan so‘zlardan iborat kichik ro‘yxat tuzing. Lug‘atdan foydalanib bu so‘zlarning o‘zbekchasini o‘ylab toping.

RAQAMLI DUNYO

Raqamlashtirish nima?

Sodda qilib aytganda, axborotlarni **kompyuter** tiliga o‘girish raqamlashtirishdir. Insonlar sezgi organlari orqali qabul qilgan turli ma’lumotlarni biz “axborot” deb ataymiz. Axborotlar matn, hujjat, rasm, videotasvir, tovush kabi shakllarga ega. Masalan, **fotokamera**da olingan rasm kompyuter xotirasida aynan rasm sifatida emas, balki raqamlar – bit ko‘rinishida saqlanadi. Boshqacha aytganda, kompyuterning ichi matn, hujjat, rasm, videotasvir, tovushlar bilan emas, balki raqamlar bilan to‘la.



Raqamli texnologiyalar nima?

Raqamlashtirilgan axborot bilan ishlay oladigan har qanday **qurilma** raqamli texnologiyadir. Kompyuter, **smartfon** va **televizor** odamlar eng ko‘p foydalanadigan raqamli texnologiyalar sirasiga kiradi.

Dunyoning raqamlashtirilishi

2007-yilda Stiv Jobs “iPhone” smartfonini ommaga namoyish etganidan so‘ng insoniyat tarixida yangi **davr boshlandi**. Raqamli texnologiyalar turmushimizning ajralmas qismiga aylandi. Obrazli qilib aytganda, **internet kaftimizga qo‘ndi**. Sekin-asta biz foydalanadigan ko‘p narsalar “raqamlashib” ketdi. Hozir pul, hujjatlar, turli xizmatlar, san’at asarlari, kishilarning imzosi va hatto **his-tuyg‘u** ham raqamli ko‘rinishda mavjud. Endi uydan chiqmay poyezdga chipta olish, ovqat buyurish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish juda oson bo‘lib qoldi. Ko‘pchilik odamlar uyda turib ishlashni, ta’lim olish yoki xarid qilishni o‘zlari uchun qulay va **kamxarj** deb hisoblay boshladi.

Hukumatimiz tomonidan ham aholi uchun xizmatlarni raqamlashtirishga katta **e’tibor qaratilmoqda**. Masalan, davlat xizmatlari portalida biror xizmatdan foydalanish uchun elektron ariza yozish, unga elektron imzo qo‘yish imkoni mavjud. Kommunal to‘lovlarni to‘lash yoki **bank** xizmatlaridan foydalanish ham to‘liq raqamlashtirilgan.

Ijobiy yoki salbiy

Dunyo “raqamlashib” bo‘ldi, endi **ortga yo‘l yo‘q**. Ammo bu jarayonning ijobiy taraflari bilan birga salbiy oqibatlari ham bor ekanini unutmasligimiz kerak. Odamlar telefondan **bosh ko‘tarmay qo‘ydi**. Buning natijasida esa ularda o‘zaro **oqibat so‘nib bormoqda**. Shuningdek, bunday tezkorlik ularni **tabiatdan uzib qo‘yayotgani** ham achchiq haqiqatdir. Hamma narsa shu zaylda raqamlashib ketaversa, yaqin kelajakda odamlar virtual olamda “yashay” boshlashi mumkin. Xo‘sh, ana shu zamonlar kelganda insoniylikni yo‘qotib qo‘ymasmikanmiz?

Sa’dullo Quronov

1. Raqamlashtirish deganda nimani tushundingiz? Bu jarayonda nima raqamlashtiriladi?
2. Kompyuter, smartfon va televizor kabi yana qanday raqamli texnologiyalarni bilasiz?
3. Maqolaga ko‘ra, “iPhone” smartfoni ixtiro qilinishi bilan “dunyoning raqamlashishi” tezlashib ketadi. Sizningcha, bu jarayonni yana qanday ixtirolar tezlashtirib yuborgan?
4. “Sekin-asta biz foydalanadigan ko‘p narsalar “raqamlashib” ketdi”. Mazkur gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z nima uchun qo‘shtirnoqqa olingan deb o‘ylaysiz?
5. “Hatto his-tuyg‘u ham raqamli ko‘rinishda mavjud” deganda nima nazarda tutilgan?
6. Dunyoning raqamlashishi natijasida “insoniylikni yo‘qotib qo‘ymasmikanmiz?” degan savolga siz qanday javob berasiz?

Matn yordamida quyidagi atamalar uchun ta’rif yozing.

Raqamlashtirish bu – ... .

Axborot bu – ... .

Raqamli texnologiyalar bu – ... .

Internet bilan bog‘liq atamalarni o‘qing. Ularni izohlari bilan moslab ko‘chiring.

akkaunt	admin	veb brauzer
smartfon	bloger	“iPhone”

1. Internet tarmoqlarida o‘z qarashlarini doimiy ravishda e’lon qilib boradigan shaxs
2. Kompyuter o‘rnini bosuvchi, undagi vazifalarning ko‘pini bajara oluvchi mobil aloqa vositasi
3. Sayt, ijtimoiy tarmoqlar va ilovalarda foydalanuvchining shaxsiy hisobi
4. Internetdan foydalanish uchun ishlatiladigan dastur
5. Internet bilan bog‘liq muayyan tarmoq mas’uli, uni boshqaruvchi shaxs
6. "Apple" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan smartfonlarning nomi

Raqamlashtirishning ijobiy va salbiy jihatlarini ikki ustunga ajratib yozing.

Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni
✓	✗

Ijtimoiy tarmoqdagi do‘stingiz uchun xat yozing. Uning ismiga quyida berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘shing. Ular so‘zga qanday qo‘shimcha ma’no berayotgani haqida o‘ylab ko‘ring.

Lola**xon** | Aziz**jon** | Go‘zal**oy** | Akbar**xon** | dugona**ginam**

“Raqamli dunyo” matnida ajratib ko‘rsatilgan birliklar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Muallif ushbu birliklarni qo‘llash orqali nima demoqchi ekanini izohlab yozing. Bunda “ya’ni” aniqlov bog‘lovchisidan foydalanishingiz mumkin.

Namuna *Obrazli qilib aytganda, internet kaftimizga qo‘ndi. Ya’ni endi biz internet yordamida butun dunyoda bo‘layotgan voqealar va yangiliklardan hech bir qiyinchiliksiz xabardor bo‘lib turishimiz mumkin.*

Eslatma!

“Ya’ni” bog‘lovchisi gap bo‘laklari va gaplarga aniqlik kiritish, ularni izohlash uchun qo‘llanadi.
*Sarvar, **ya’ni** kenja ukam endi uchga kirdi.*
*Men aytgandek bo‘ldi, **ya’ni** kubok qo‘shni mahallaga nasib qildi.*
“Ya’ni” so‘zidan oldin vergul qo‘yiladi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib, yozing.

Sodda so‘z	Qo‘shma so‘z	Juft so‘z
?	?	?

Matndan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nodoshlarini aniqlab, yozing.

sodda | axborot | odamlar | xizmat | olish | kamxarj

tasvir | qurilma | tarix | ta’lim | xarid qilish

Uyingizda ota-onangiz bilan internet va undagi xizmatlar haqida suhbatlashing. Xizmatlardan foydalanish jarayoni, qanday ilovalar borligi, ulardan foydalanishning qulayliklari haqida matn yozing.




SMS yoki onlayn yozma muloqot shakllariga diqqat qiling.

1



2



1. Sizning yozishmalaringiz yuqorida berilgan qaysi namunaga ko'proq o'xshab ketadi?

2. Birinchi namunada qanday xatolarga yo'l qo'yilgan, so'zlarning imlosiga, gap tuzish va tinish belgilarini qo'llashga doir xatolarni ko'rsating.

3. Ikkinchi namunadagi yozishma sizga yoqdimi? Siz ham shunday yozasizmi yoki biroz boshqacharoq? Fikrlaringizni asoslab bering.


Birinchi yozishmada yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib, ko'chiring.

Berilgan SMS xabar namunalari bilan tanishing. Ularni qo'llab partadoshingiz bilan SMS yozishmasi namunasini yozing.

Assalomu alaykum!	Xayrli kun!	Kechirasiz, sizdan bir narsani so'ramoqchi edim.	Yaxshimisiz?!
Yaxshi, rahmat! O'zingiz-chi?	Rahmat!		Ko'rishguncha!

Berilgan hisbelgilarga mos bo‘lgan kayfiyat, his-tuyg‘u, fe’l-atvorga oid so‘zlarni yozing. Siz tanlagan so‘z boshqalarnikidan farq qilishi mumkin.

1 

2 


3 


4 

5 

6 

7 

8 

9 

10 

Namuna *10 – mamnuniyat, ...*

Yuqoridagi 1-, 5-, 7-, 10-hisbelgilar ma’nosiga mos gaplar tuzib, yozing.

Hisbelgi – his-tuyg‘u, narsa va hodisalarni ifodalovchi belgi. Odatda bitta so‘z yoki gap ma’nosiga teng keladi. Hisbelgi odam, hayvon va turli predmetlar shaklida bo‘lishi mumkin.

Hisbelgi rasmiy bo‘lmagan matnlarda, shaxsiy yozishmalarda qo‘llanadi. Uning qo‘llanishi tinish belgilarining vazifasiga ta’sir etmaydi.

Sinfingizning ijtimoiy tarmoqdagi guruhiga kiring. Unda mavjud yozishmalarning ma’lum qismidagi xatolar haqida tahliliy ma’lumot tayyorlang.



Internet xavfsizligiga doir tavsiyalar bilan tanishing.




Akkauntga kirayotganda login va parolni hech kimga ko‘rsatmang.



Hech qachon begona odam bilan gaplashmang.



Rasmlaringizni tarmoqlarga joylamang.



Telefonni va undagi ma’lumotlarni asrang. O‘zingiz yoki yaqinlaringizning telefonini har kimga beravermang.



Kompyuter o‘yinlarini o‘ynash vaqtida hushyor bo‘ling. Ayniqsa, ota-onangiz telefonidan foydalanganda. Firibgarlar sizni aldab, ota-onangizning hisob raqamidagi pullarni yechib olishi mumkin.

Berilgan tavsiyalarga rioya qilmaslikning salbiy oqibatlarini yozing. Kompyuter o‘yinlari bilan bog‘liq tavsiyadan namuna sifatida foydalaning.

Foydalanish uchun so‘zlar: shuning uchun, shu sababli, chunki, axir, bu va ...

Internet va ijtimoiy tarmoqlarga oid qisqartma so‘zlar izohi bilan tanishing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

FB – “Facebook” ijtimoiy tarmog‘i.
IG – “Instagram” ijtimoiy tarmog‘i.
SMS – inglizcha “short” – qisqa, “message” – xabar, “service” – xizmat. Qisqa xabarlar yaratish xizmati.
MMS – inglizcha “media”, “message” va “service”– rasm, video, audio shaklga ega bo‘lgan xabarlarni yetkazish xizmati.



Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi. Masalan: *BMT, YUNESKO, SamDUning, O‘zMUga* kabi.

1. Qisqartma so‘zlar nima maqsadda yaratiladi?
2. Ulardan qanday o‘rinlarda foydalanish mumkin?
3. Sizning shaxsiy qisqartmalaringiz bormi? Ulardan foydalanish o‘rinlimi?

Qisqartma so‘zlar yordamida kichik matn yarating. Partadoshingiz yozgan matnni tekshiring. Unda qanday xatolar borligini aniqlang.

“YouTube” platformasi yoki ijtimoiy tarmoqlarda o‘zingiz kuzatayotgan kanaldagi ma’lumotlar ostida qoldirilgan izohlar bilan tanishing. Izohlarni tanqidiy tahlil qiling. Kuzatuvlaringiz asosida kichik maqola yozing. Maqolada boshqalarning fikriga munosabat bildirishga doir qoidalarga to‘xtaling.

MENDELEYEV ELEMENTLARI

Bu mavzuda o‘rganamiz


• kimyo fanining ahamiyati • sohaga oid til birliklari • so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari • ma’nodosh so‘zlar • sonlarning imlosi • hisob-o‘lchov so‘zlari imlosi • axborot matni.

Kimyo faniga oid qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishing. Sonlar va hisob-o‘lchov so‘zlari imlosiga e’tibor bering.

1869-yilda rus kimyogari Dmitriy Mendeleyev kimyoviy elementlarning davriy jadvalini yaratdi. Bu jadvalning o‘ziga xosligi shunda ediki, unda elementlar aniq qoida va qonuniyat asosida tartiblanadi. Xossalari bir-biriga o‘xshash elementlar bir-biriga tutashtiriladi. Bu ixtiro kimyo fanini tushunish, o‘rganish va yangi elementlarni kashf etishni osonlashtirgan.

Zamonaviy samolyotlar parvoz qilishi uchun taxminan **80 tonna** kislorod kerak bo‘ladi. Tabiat bu miqdordagi kislorodni **40 ming gektarlik** o‘rmonda ishlab chiqaradi.





Bir **tonna** okean suvidan taxminan **7 mg** oltin ajratib olish mumkin.

Litiy eng yengil **metall** hisoblanadi.



Temir Selsiy bo‘yicha **5000 gradus** issiqlikda gazga aylanadi.



1 l dengiz suvida taxminan **20 g** tuz mavjud.



Odam tanasining taxminan **75%** i suvdan iborat.

1. Ayting-chi, kimyo fani nima uchun kerak?
2. Bizning kundalik hayotimiz kimyo fani bilan qanday aloqadorlikda o‘tadi? Misollar bilan javob bering.
3. Ayting-chi, ona tili va kimyo fanlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin? Kengroq mushohada yuriting va fikrlaringizni dalillang.

Hisob-o‘lchov so‘zlarining qisqartmalarini yodda saqlang.

metr	m	kilogramm	kg	sekund	s	litr	l
santimetr	cm	tonna	t	minut	min	millilitr	ml
detsimetr	dm	sentner	q	soat	h	milligramm	mg

Xalqaro qabul qilingan qoidaga ko‘ra, hisob-o‘lchov so‘zlarining qisqartmasi barcha tillar uchun bir xildir. Masalan, siz 1 soat so‘zini qisqartma shaklda bermoqchisiz. Uni **1 s** tarzida yozsangiz, xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lasiz. To‘g‘risi **1 h** bo‘ladi.

Qisqartma shaklidagi hisob-o‘lchov birligiga qo‘shilgan qo‘shimcha ajratib yoziladi. Misollar: *10 kg dan ko‘p, 5 l ga teng.*

Berilgan gaplarni hisob-o‘lchov so‘zlarini qisqartirib, qisqartmalarni esa kengaytirib ko‘chiring.

- Bir tonna okean suvidan taxminan **7 mg** oltin ajratib olish mumkin.
- **1 l** dengiz suvida taxminan **20 g** tuz mavjud.
- Odam tanasining taxminan **75%** i suvdan iborat.
- Zamonaviy samolyotlar parvoz qilishi uchun taxminan **80 tonna** kislorod kerak bo‘ladi. Tabiat bu miqdordagi kislorodni **40 ming gektarlik** o‘rmonda ishlab chiqaradi.

Berilgan hisob-o‘lchov so‘zlarini quyidagi guruhlarga ajratib ko‘chiring. Ulardan foydalanib gaplar tuzing va yozing.

Milligramm, sotix, millimetr, kilogramm, gramm, kilometr, gektar, tonna, santimetr, sentner, detsimetr.

Og‘irlik o‘lchovlari	Uzunlik o‘lchovlari	Maydon o‘lchovlari

Lug‘at yordamida tarixiy o‘lchov so‘zlarining ma’nolari bilan tanishing va izohi bilan yozing. Ushbu so‘zlardan qanday o‘rinlarda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

misqol | botmon | tanob | chaqirim | qadoq | pud | quloch

Berilgan birikmalardagi hisob-o‘lchov so‘zlarini aniqlang, ularga so‘roq bering va namunadagidek yozing.

Namuna: *bir hovuch suv, hovuch — (nima?, ot).*

Bir hovuch suv, ikki qop kartoshka, uch piyola sut, to‘rt qarich yer, ikki etak paxta, to‘rt chelak olma, bir savat non, besh litr yonilg‘i.

Ot so‘z turkumi bilan ifodalanadigan hisob-o‘lchov so‘zlariga misollar yozing.

Matnni diqqat bilan o‘qing, savollarga javob bering.

FALSAFA TOSHINI QIDIRIB

Sarguzasht va fantastik **asarlar**ni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko‘p eshitgan bo‘lishlari kerak. Ertaklarda falsafa toshi har qanday moddani oltinga aylantira olishi haqida aytiladi.

Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan. Juda boy bo‘lishni xohlagan podsholar esa olimlarga afsonaviy **tosh**ni topishni buyurgan. Bunday olimlarni “alkimyogar” deb atashgan.


Alkimyogarlar tarixiy **laboratoriya**da tuxum sarig‘iga toshbaqa kosasining kukunini yoki quritilgan qurbaqa ko‘ziga qalampir va kumush kukunini aralashtirib, noma’lum **modda**ni, ya’ni falsafa toshini tayyorlashga **uringan**. Lekin ular qanchalik **harakat qilishmasin**, afsonaviy toshni **yarata olishmagan**.

Biroq alkimyogarlar o‘zlari bilmagan holda ajib **kashfiyot**larga sababchi bo‘lishgan. Ular o‘zlarining ajabtovur **tajriba**lari mobaynida turli shifobaxsh **dorilar** va kimyoviy **moddalar**ni beixtiyor yaratib qo‘yishgan.

Masalan, 1602-yilda bolonyalik Kassiarolo ismli kosib va alkimyogar tog‘dan hajmiga nisbatan juda og‘ir, ko‘rinishi g‘alati bir **tosh**ni topib oladi. Albatta, kimyogar buni falsafa toshini topish uchun ajoyib imkoniyat deb o‘ylaydi. Kassiarolo toshni oltinga aylantirish maqsadida uni ko‘mir bilan eritadi va suyuq **metall**ga turli narsalarni qo‘shib ko‘radi. Afsuski, metall oltinga aylanmaydi. **Lekin** alkimyogar umrida duch kelmagan g‘aroyib **metall**ni kashf etganini bilardi. Bu metall hozir sanoatda ko‘p ishlatiladigan bariy edi. Mishyak, fosfor, rux, surma, vismut kabi kimyoviy **elementlar** ham falsafa toshini qidirayotgan alkimyogarlar tomonidan kutilmaganda **kashf qilingan**. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda hatto buyuk fizik Isaak Nyuton ham umrining yakunida falsafa toshini qidirib, alkimyo bilan shug‘ullangan ekan.

XVIII asrga kelib alkimyogarlar falsafa toshini qidirish befoyda ekanini tushunib yetishadi. Endi ular odamlar uchun foydali **moddalar**ni qidira boshlaydilar. To‘g‘ri, tarixda yashab o‘tgan alkimyogarlar o‘zlari orzu qilgan falsafa toshini topa olishmadi, lekin ular o‘z izlanishlari bilan zamonaviy **kimyo** fanining paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lishdi.

“Galaktikada bir kun” asaridan



1. Nega sarguzasht va fantastik asarlarni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko‘p eshitgan bo‘lishi mumkin?
2. Falsafa toshining eng muhim xususiyati nimada edi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, alkimyogarlar rostdan ham tuxum sarig‘iga toshbaqa kosasi kukunini aralashtirib, falsafa toshini yasamoqchi bo‘lishganmi yoki muallif asar qiziq chiqishi uchun shunday o‘xshatish qilganmi?
4. Alkimyogarlar nega o‘zlari bilmagan holda tasodifiy kashfiyotlar qilgan deb o‘ylaysiz?
5. Nima uchun alkimyogarlar falsafa toshini qidirish befoyda ekanini tushunib yetgan bo‘lishi mumkin?
6. Nega aynan XVIII asrga kelib, alkimyogarlarning fikrlari o‘zgargan? Buni qanday izohlay olasiz?

Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g‘oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang.

A. Falsafa toshi haqiqat emas, cho‘pchak.
B. Falsafa toshi faqat alkimyogar va podshohlar uchun kerak bo‘lgan.
C. Inson umrini cho‘pchaklarga ishonib behuda o‘tkazishi noto‘g‘ri.
D. Falsafa toshi cho‘pchak bo‘lsa-da, kimyo fanining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

2. Matnda Kassiaroloning topilmasiga nisbatan “kimyogar buni falsafa toshini topish uchun ajoyib imkoniyat deb o‘ylaydi” deyilgan. Matndagi qaysi gap yoki jumla kimyogarning bunday xulosaga kelishini asoslagan?

A. Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan.
B. Kassiarolo toshni oltinga aylantirish maqsadida uni ko‘mir bilan eritadi.
C. Alkimyogar tog‘dan hajmiga nisbatan juda og‘ir, ko‘rinishi g‘alati bir toshni topib oladi.

Berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nosida qo‘llab gaplar tuzing, ikki ustunga yozing.

Oltin Kumush Mis Temir

O‘z ma’nosida	Ko‘chma ma’noda






Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning belgisini bildirib kelgan so‘zlarni aniqlang, ularni birgalikda ko‘chiring.

Namuna *afsonaviy tosh, ...*

Yozib olgan so‘z birikmalaringiz tarkibidagi yasama sifatlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating.

Afsonaviy – afsona + viy, ...

Matnni ko‘chiring. Xatboshilar hamda ular tarkibidagi gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni aniqlab, ularning tagiga chizing. Matndagi 3- va 4-xatboshilar hamda 4- va 5-xatboshilarni qanday vositalar o‘zaro bog‘lab turganini tahlil qiling.

Sarguzasht va fantastik asarlarni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko‘p eshitgan bo‘lishlari kerak. Ertaklarda falsafa toshi har qanday moddani oltinga aylantira olishi haqida aytiladi.

Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan. Juda boy bo‘lishni xohlagan podsholar esa olimlarga afsonaviy toshni topishni buyurgan. Bunday olimlarni alkimyogar deb atashgan.

Siz ham fantastik hikoya yoza olasizmi? O‘z xayolingizdagi fantastik hikoyani yozishga harakat qiling. Agar sizda hech qanday g‘oya bo‘lmasa, o‘zingiz eshitgan yoki o‘qigan fantastik hikoya haqida yozing.

“Falsafa toshini qidirib” matnidan olingan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.

1. **Tarix**da hatto **olimlar** ham bunday toshning borligiga ishonishgan.

2. Juda boy bo‘lishni xohlagan **podsho**lar esa olimlarga afsonaviy toshni topishni buyurgan.

3. Masalan, 1602-yilda bolonyalik Kassiarolo ismli kosib va alkimyogar tog‘dan hajmiga nisbatan juda og‘ir, ko‘rinishi **g‘alati** bir toshni topib oladi.

4. Kassiarolo toshni **olting**a aylantirish maqsadida uni ko‘mir bilan eritadi va suyuq metallga turli narsalarni qo‘shib ko‘radi.

5. Alkimyogar umrida duch kelmagan, **g‘aroyib** metallni kashf etganini bilardi.

tarix	olim	podsho	g‘alati	oltin	g‘aroyib

O‘zingiz aniqlagan ma’nodosh so‘zlarni ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga qo‘yib, gaplarni qayta o‘qing. Qanday o‘zgarish bo‘lganini aniqladingiz?

“Falsafa toshini qidirib” matnida ko‘k rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sanaladi. Muallif nima uchun ushbu so‘zlarni qayta qo‘llamasdan, ularning ma’nodoshlaridan foydalangan?

Ajratilgan so‘zlarni matn mazmunini saqlagan holda boshqa so‘zlar bilan almashtirib, quyidagi parchada ko‘chiring.

XVIII asrga kelib, alkimyogarlar falsafa toshini **qidirish** befoyda ekanini **tushunib yetishadi**. Endi ular **odamlar** uchun foydali moddalarni qidira boshlaydilar. To‘g‘ri, tarixda yashab o‘tgan alkimyogarlar o‘zlari orzu qilgan falsafa toshini topa olishmadi, lekin ular o‘z izlanishlari bilan zamonaviy kimyo fanining paydo bo‘lishiga **sababchi bo‘lishdi.**

Matnda sonlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Quyida berilgan raqamli birikmalar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

XXI asr | 6-“A” sinf | 21-qavat | 2022-yil

Biror taomning tayyorlanish jarayoni haqida hisob-o‘lchov so‘zlaridan foydalanib matn tuzing. U quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim.

Kerakli masalliqlar:

.....

.....

.....

Tayyorlanish jarayoni:


.....




Rasmlar asosida ifodalangan tajriba jarayonini matn ko‘rinishida yozing. Yozgan matningizda quyidagilar aks etishi zarur:

1. Tajriba o‘tkazish uchun nimalar kerakligi.
2. Tajribaning to‘liq jarayoni (qilinadigan ishlar 1. ... 2. ... 3. ... kabi ketma-ketlikda beriladi).
3. Erishiladigan natija, ya’ni tajriba so‘ngida nima kuzatilishi.
4. Xulosa, ya’ni bu tajriba orqali nimani bilib olish mumkinligi.







Partadoshingiz bilan yozgan matnlaringizni almashing, ularni tekshiring. O‘zingiz aniqlagan xatolarni izohlab bering.

Yana qanday tajribalar haqida bilasiz? Hisob-o‘lchov so‘zlaridan foydalanib yuqoridagi tartib asosida tajribaning borishi haqida og‘zaki ma’lumot bering.

Ikki turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining qadog‘idagi ozuqaviy qiymatga oid ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslab yozing. Yozgan matningizda ularning foydaliligi bo‘yicha xulosalaringizni ham ifodalang.

YONG‘IN XAVFSIZLIGI QOIDALARI



Bu mavzuda o‘rganamiz

• yong‘in kelib chiqishi sabablari va yong‘in xavfsizligi qoidalari • xavfsizlik belgilari • ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi va ularning imlosi • muhokama matni.

Rasmlarga qarang. Yong‘in qanday holatlarda kelib chiqishi mumkinligini muhokama qiling.





1. Yong‘in yana qanday holatlarda kelib chiqishi mumkin?
2. Ayting-chi, nega ko‘p hollarda yong‘inning kelib chiqishiga bolalar sababchi bo‘lib qoladi?
3. Siz yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilasizmi? Misollar bilan javob bering.

Rasmlar asosida yong‘in xavfsizligiga doir qoidalar yozing.

Xavfsizlik belgilarini diqqat bilan o‘rganing. Belgilarga mos izohni topib, harfini yozing.

Namuna *9 – J. ...*

1 

2 

3 

4 

5 

6 

7 

8 

9 

A O‘t o‘chirgich

B Yo‘naltiruvchi ko‘rsatkich

D Chiqish joyi

E Odamlar yig‘ilishi uchun mo‘ljallangan joy

F Diqqat, xavfli!

G Portlash xavfi mavjud

H Yong‘in xavfi bor

I Olov yoqish taqiqlanadi

J Chekish taqiqlanadi

Quyida berilgan fe’llarni *o‘chirmoq* fe’liga bog‘lab yozing. Ularni o‘zaro taqqoslang, ma’nolarida qanday farqni sezdingiz?

Namuna *o‘chira boshlamoq.*

Boshlamoq, chiqmoq, tashlamoq, ko‘rmoq, turmoq, qo‘ymoq.

Berilgan fe’llarni o‘zaro juftlab so‘z qo‘shilmasi hosil qiling. Ular ishtirokida belgilarni izohlab gaplar tuzing.

Namuna *Ayrim joylarda chekish taqiqlanadi. Chunki tamaki qoldiqlari yerga **tashlab yuborilishi** oqibatida ham yong‘in kelib chiqishi mumkin.*

portlamoq	boshlamoq
chiqmoq	ketmoq
ogohlantirmoq	ketmoq
yonmoq	qo‘ymoq

Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlar bilan bog‘liq taqiqlovchi belgilarni chizing. Belgi yoniga ularning izohini yozing.

Namuna



Matnni o‘qib, muhokamaga kirishing.

KIM KO‘PROQ AYBDOR?

Aniqlanishicha, 90 foiz holatlarda yong‘in odamlarning e’tiborsizligi tufayli kelib chiqadi. O‘rinli bir savol tug‘iladi: bu “e’tiborsiz odamlar” kimlar? Bolalarmi yoki kattalar? Albatta, bu savolga aniq javob topish mushkul. Ammo yong‘inni keltirib chiqaradigan eng ko‘p holatlarni tahlil qilib, jo‘yali xulosa chiqarish mumkin.

Demak, yong‘in ko‘proq quyidagi holatlarda kelib chiqadi:

- nosoz elektr qurilmalaridan foydalanganda;
- qurilmalarni o‘chirish yoddan ko‘tarilganda (asosan dazmol);
- gaz sizib chiqishi oqibatida;
- elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida;
- olovdan noto‘g‘ri foydalanganda;
- aerozol ballonlari olovga yaqin joyda qoldirilganda;
- sigaret cho‘g‘i yonuvchi narsalar ustiga tushishi oqibatida.

Endi mulohaza qiling, yuqorida sanalgan holatlarda kim ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadi: kattalarmi yoki bolalar?

Muhokama qizg‘in bo‘lishi uchun ayrim holatlarni batafsil yoritamiz.


Birinchi holat – nosoz qurilmalar. **Eskirib qolgan qurilmalarda yong‘in kelib chiqishi xavfi ko‘p bo‘ladi. Ular elektr tokini keragidan ko‘p ishlatib yuboradi.** Bunday qurilmalarning

bir nechtasini teng ishlatish xavfli. **Sababi elektr simlari bunday kuchlanishni ko‘tara olmay, qizib ketadi va yong‘in chiqishiga sabab bo‘ladi.**

Ikkinchi holat – dazmolni o‘chirishni unutib qo‘yish. Bu yong‘in chiqishiga eng ko‘p sabab bo‘ladigan holatlardan biridir. Shu sababli uydan chiqishdan oldin, har ehtimolga qarshi, dazmolni tekshirib qo‘yishni unutmaslik kerak.

Uchinchi holat – gaz sizib chiqishi. Ko‘p hollarda yong‘in gaz plitasidan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik oqibatida ham kelib chiqadi. **Odatda qarovsiz qolgan qozondagi suyuqlik qaynab toshib ketadi va olovni o‘chirib qo‘yadi. So‘ng gaz butun oshxona bo‘ylab tarqala boshlaydi.** Bunday paytda hatto chiroq yonishi sababli yong‘in kelib chiqishi mumkin.

Xo‘sh, ayting-chi, kim ko‘proq aybdor? Yoki bu masalada hamma birdek mas’ul bo‘lishi kerakmi? Nima bo‘lganda ham, bir narsa aniq: biz uchun yong‘in bilan kurashishdan ko‘ra uning oldini olish afzalroq.



1. Sizningcha, yong‘in kelib chiqishiga kim ko‘proq sababchi? Bolalarmi yoki kattalar? Javobingizni asoslang.
2. Yong‘in xavfsizligi masalasida hamma birdek mas’ul bo‘lishi kerak deb o‘ylaysizmi?
3. Yong‘in asosan odamlardagi qaysi illat tufayli kelib chiqadi?
4. Elektr qurilmalarida qanday holatlarda yong‘in kelib chiqadi?
5. Gaz plitasidan foydalanganda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak?
6. Yong‘in sodir bo‘lganda o‘t o‘chiruvchilarga xabar berish uchun qaysi raqamga qo‘ng‘iroq qilish kerakligini bilasizmi?

Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g‘oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang.

A. Yong‘in kelib chiqishiga ko‘proq kattalar sababchi bo‘ladi.
B. Yong‘in odamlarning e’tiborsizligi tufayli kelib chiqadi.
C. Yong‘inning oldini olish muhim.
D. Elektr qurilmalardan foydalanganda ularning sozligiga e’tibor qilish kerak.

Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning uchtasi noto‘g‘ri. Ularni toping va javobingizni izohlang.

1. Gaz plitasida qarovsiz qolgan qozon yong‘inga sabab bo‘lishi mumkin.
2. Ba’zida yong‘in odamlarning e’tiborsizligi tufayli kelib chiqadi.
3. Yong‘in bilan kurashish uning oldini olishdan afzalroq.
4. Eski qurilmalarda yong‘in kelib chiqish xavfi ko‘proq bo‘ladi.
5. Elektr qurilmalarini, xususan, dazmolni o‘chirish yoddan ko‘tarilganda yong‘in sodir bo‘lishi mumkin.
6. Bir nechta qurilmani teng yoqishning imkoni yo‘q.

Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlardan birini 3–4 gapdan iborat matn ko‘rinishida yozing.

Yong‘in quyidagi holatlarda ham kelib chiqadi:

- nosoz elektr qurilmalaridan foydalanganda;
- elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida;
- olovdan noto‘g‘ri foydalanganda;
- sigaret cho‘g‘ining yonuvchi narsalar ustiga tushishi oqibatida.

Namuna *Nosoz elektr qurilmalarda elektr simlarining bir-biriga noto‘g‘ri ulanishi, simlarda ochiq joylarning mavjudligi, undan foydalanganda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik holatlari kuzatilganda yong‘in kelib chiqishi mumkin.*

Matn tarkibidan sizni muhokamaga undovchi gaplarni ajratib, yozing. Yozgan gaplaringizning ifoda shakli (so‘roq, darak, buyruq)ga e’tibor bering, ularni izohlang.

Quyidagi matnni berilgan savollar yordamida muhokama matniga aylantirib yozing.

Ko‘p hollarda yong‘in gaz plitasidan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik oqibatida ham kelib chiqadi. Odatda qarovsiz qolgan qozondagi suyuqlik qaynab, toshib ketadi va olovni o‘chirib qo‘yadi. So‘ng gaz butun oshxona bo‘ylab tarqala boshlaydi. Bunday paytda hatto chiroqning yonishi sababli yong‘in kelib chiqishi mumkin.

Foydalanish uchun:

- Siz nima deb o‘ylaysiz?
- Gaz plitasidan foydalanganda nimalarga e’tibor qilish kerak deb o‘ylaysiz?
- Gaz plitasidan to‘g‘ri foydalana olmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- Ovqat pishirishni bilmaslik ham yong‘inga sabab bo‘lishi mumkinmi?

Maqollarning izohlarini yozing.

Olov bilan o‘ynashsang, kuyasan. Olov – tilsiz yov. Olovning tishi yo‘q, ho‘l-u quruq bilan ishi yo‘q.

“Kim ko‘proq aybdor?” matnida ajratib ko‘rsatilgan gaplarni namunadagidek yozing. Gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini izohlang.

Namuna

Eskirib qolgan qurilmalarda yong‘in kelib chiqishi xavfi ko‘p bo‘ladi. Ular elektr tokini keragidan ko‘p ishlatib yuboradi.	Eskirib qolgan qurilmalarda yong‘in kelib chiqishi xavfi ko‘p bo‘ladi. Ular elektr tokini keragidan ko‘p ishlatadi.

-a/-y, -(i)b bilan tugagan fe’llardan keyin kelib, o‘zining mustaqil ma’nolarini yo‘qotgan fe’llar ko‘makchi fe’llar hisoblanadi: *ayta* ***olmoq***, *ko‘rib* ***qolmoq***. Ular asosiy fe’ldan anglashilgan harakat-holatga turli *(boshlanish, davomiylik, tugallanish, to‘satdan yuz berish, imkoniyat, tez va oson bajarish, birov uchun bajarish…)* yordamchi ma’nolarni qo‘shadi.

Yetakchi va ko‘makchi fe’llar birikuvidan hosil bo‘lgan birlik bitta so‘z sanaladi. Masalan, *aytib yubormoq* so‘zi. Bunda *yubormoq* ko‘makchi fe’li *aytmoq* harakatining kutilmaganda ro‘y berganini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Boshlamoq, olmoq, bermoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq, ko‘rmoq kabi qator fe’llar ko‘makchi fe’l bo‘lib kela oladi. *Boshlamoq* so‘zi ko‘makchi fe’l vazifasida ham o‘z ma’nosini saqlaydi.

“Kim ko‘proq aybdor?” matnida ajratib ko‘rsatilgan fe’llarni yetakchi va ko‘makchi fe’lga ajrating. Ko‘makchi fe’lning berilishiga ko‘ra so‘z qo‘shilmalarini quyidagi jadval yordamida ikki ustunga ajratib yozing.

Harakatning bajarilish tarzini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar	Harakatning bajarilish bosqichini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar
yubormoq	boshlamoq
olmoq	yotmoq
tashlamoq	yurmoq
qo‘ymoq	turmoq
	chiqmoq

Quyida berilgan so‘zlarni o‘zaro ma’nodoshlik asosida ajrating. Ularni izohlari bilan birga ko‘chiring.

alanga olov cho‘g‘

kul o‘t yolqin

- Yonib bo‘lib, alangasi so‘ngan o‘tin, ko‘mir va hokazolar.
- Yonib turgan olovdan ko‘tarilayotgan shu’la.
- Narsa-buyumning yonish jarayoni.

So‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nosida qo‘llab gaplar tuzing.

Masalan:

O‘z ma’no: *Ashulachilarning quyoshda qoraygan yuzlari mash’allarning alangasida yaltirar edi.*

Ko‘chma ma’no: *Muzday choy ichimni qovurayotgan alanga taftini sal pasaytirganday bo‘ldi.*

Berilgan yetakchi va ko‘makchi fe’llar ishtirokida so‘z qo‘shilmalari tuzing va ularni gap ichida keltiring. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlang.

Ko‘rmoq	boshlamoq
	yotmoq
	chiqmoq

Yozmoq	tashlamoq
	olmoq
	turmoq

Namuna *Shifokor kasallik sabablarini o‘rganish niyatida kasallik varaqasini ko‘ra boshladi.*

Rasmlarga qarang. Muhokamaga sabab bo‘lgan mavzu yuzasidan o‘z xulosalaringizni asoslab esse yozing.



Sinfdoshlaringiz yozgan esse bilan tanishing. Ular yozgan matnda so‘z qo‘llash, ifoda usuli, matndagi fikrlarning asoslangani va gaplarning o‘zaro bog‘langaniga baho bering.

Berilgan fe’llarni avval o‘z ma’nosida, keyin esa ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llab gaplar tuzing.

yubormoq	boshlamoq
olmoq	yotmoq
tashlamoq	yurmoq
qo‘ymoq	turmoq

Namuna ***1.*** *Oyim meni qo‘shnimiznikiga Oqila xolani chaqirib kelish uchun* ***yubordi.*** ***2.*** *Yangi uyga ko‘chishga qo‘shnimiz Anvar* ***qarashib yubordi.***

“Adabiyot” darsligidan ko‘makchi fe’llar ishtirok etgan gaplarga 10 ta misol topib, yozing. Ular qanday ma’noni ifodalayotganini tahlil qiling.

Namuna *Xavotirlangan ona Boburga taskin beradigan, uning ko‘nglini ko‘taradigan chora izlay boshladi. (P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”)*

MUSTAHKAMLASH

Tengdoshingiz Aziza “Telegram”da internetdan foydalanish bilan bog‘liq maxsus darslarni joylashtirib borishni, shu orqali o‘z tengdoshlariga yordam berishni maqsad qilgan. Quyida u yozgan xabarnoma bilan tanishing.

Bilasizmi, do‘stlar, bugun har birimiz zamon bilan hamnafas yashashimiz zarur. Bunda esa sotsial setlardan foydalanishning o‘ziga xos o‘rni bor. Sotsial set bu – maxsus programma asosida yaratilgan, informatsiya almashish imkonini beruvchi vosita. Hozirgi kunda uning turli xillari mavjud. Masalan, “Instagram”, “Telegram”, “Snapchat”, “Pinterest”. Sotsial setdan foydalanuvchi inson o‘zi uchun profil ochishi, uni nomlashi, o‘zi haqidagi ba’zi ma’lumotlarni kiritish orqali o‘z lichkasini yaratib olishi mumkin.

Menimcha, har bir yosh bugungi kunda o‘z vaqtining juda katta qismini aynan mana shunday setlarda o‘tkazib yuborsa kerak. Chunki sotsial setlar – o‘zaro obsheniya qilishning eng qulay usuli. Masalan, kimgadir qandaydir soobsheniya yoki informatsiyani jo‘natmoqchi bo‘lsangiz, uni sotsial set orqali bir zumda yetkazish mumkin. Ammo sotsial setlardan ham foydalanishning o‘ziga yarasha qoidalari mavjud. Bu haqida men sizga keyingi videolarimda ma’lumot bermoqchiman.



Azizaning matnidan o‘zlashma so‘zlarni ajratib yozing.

Qaysi so‘zlarning o‘zbekcha tarjimasi borligini aniqlang, ushbu so‘zlar yordamida kichik lug‘at yarating. So‘zlarni almashtirib, matnni qayta o‘qing.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari ishtirokida gaplar tuzib yozing. Ularning ma’nolarida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlang.

o‘qib qo‘ymoq	o‘qiy ketmoq	o‘qib chiqmoq
o‘qib bermoq	o‘qib tashlamoq	o‘qib turmoq

Namuna *Men yaqinda mashhur yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini o‘qib chiqdim. (harakatning yakunlangani)*

Quyida berilgan havola orqali olmali pirogning tayyorlanish retseptini yozib keling. Bunda barcha jarayonlarni batafsil yoritishga harakat qiling.

HADISLAR HIKMATI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• hadis ilmi • hadislarning hayotimizda tutgan o‘rni • ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar • matnni sharhlash.

Imom Buxoriyning “Adab al-mufrad” nomli kitobida keltirilgan hadislarni o‘qing.

- Hadislardagi har bir so‘z, jumlaga e’tibor bering.
- Ulardagi farqni izohlang.
- Hadislar ma’nolariga ko‘ra bir-biridan qanday farq qilayotganini, farqlanishga sabab bo‘layotgan so‘z va jumlani muhokama qiling.

1. Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Salomni tarqating, salomat bo‘lasiz”, – dedilar.
2. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Kichik kattaga, piyoda o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
3. Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Otliq o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
4. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Ulovdagi piyodaga, piyoda o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
5. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Otliq piyodaga, piyoda turgan kishiga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
6. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning aytayotganlarini eshitdim: “Ulovdagi piyodaga salom bersin, piyoda o‘tirganga salom bersin, ozchilik ko‘pchilikka salom bersin. Kim salomga alik olsa, o‘ziga foyda. Kim alik olmasa, unga hech narsa yo‘q”.

1. Hadis nima?
2. Ayting-chi, bu hadislar bizga nimalarni o‘rgatadi?
3. Sizningcha, bu hadislarning qay biriga birinchi galda amal qilish kerak? Nima uchun?
4. Salom berishdan maqsad nima? Qaysi hadisda salomlashishning hikmati aks etgan?

Hadislardan olgan bilimlaringizni tartib bilan yozing.

Namuna

1. *Odamlar bir-birlariga albatta salom berishi kerak.*
2. ...

Ba’zan nutqimizda boshqalarning gapini aynan keltiramiz. Birovning aynan keltirilgan gapi ko‘chirma gap, o‘zimiz aytgan (so‘zlovchining gapi) esa muallif gapi deyiladi.

“Bir kuni hammasi o‘zgaradi”, – *dedi opam ko‘zda yosh bilan.*

ko‘chirma gap — muallif gapi

Muallif gapi (M yoki m) va ko‘chirma gap (K yoki k) bir-biriga nisbatan turlicha joylashishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1) M: “K”.	M: “K?”	M: “K!”
2) M: “K”, — m.	M: “K?” — m.	M: “K!” — m.
3) “K”, — m.	“K?” — m.	“K!” — m.
4) “K, — m, — k”.	“K. – m. – K”	
5) “K, - m. - K”.		

Berilgan hadislardan muallif gapi va ko‘chirma gaplarni aniqlang.

Termiziy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Taomning barakasi undan oldin (ikki qo‘lni) yuvishdir va undan keyin (ikki qo‘lni) yuvishdir”, – dedilar.

Abu Dovud rivoyat qilgan hadisga ko‘ra, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Qachon kiyim kiysangiz va qachon tahorat qilsangiz, o‘ng tomoningizdan boshlang”.

Hadisni ko‘chirma gapning ikki xil shaklida ko‘chiring. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llang.

1 Muallif gapi: “Ko‘chirma gap”.

2 Muallif gapi: “Ko‘chirma gap”, – muallif gapi.

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam

dedilar

Men suyangan holimda yemayman

Hadisni tinglang. Uning mazmuni haqida o‘ylab ko‘ring. Hadisni ko‘chirma gapni yozish qoidalari asosida yozib oling.

BIR HADIS HIKMATI

Hadis

Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Faqat ikki narsadan boshqada hasad yo‘q. (Birinchisi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o‘shani to‘g‘ri yo‘lda sarf qilsa, (ikkinchisi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o‘sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta’lim bersa”, – dedilar.

Sharh

“Hasad” aslida boshqaga berilgan ne’matning **zavol**ini orzu qilishni anglatadi. Bu gunoh hisoblanadi. Gohida “hasad” so‘zi “havas qilish” ma’nosida, ya’ni boshqa kishiga
1 berilgan ne’matni ko‘rib, o‘zida ham bo‘lishini orzu qilish ma’nosida ham ishlatiladi. Bunga arablar “g‘ibta” deydilar. Ushbu hadisi sharifdagi “hasad” so‘zi ana o‘sha g‘ibta – havas qilish ma’nosida kelgan.

2 Demak, faqat ikki narsadagina birovga berilgan **ne’mat**ni ko‘rib turib, o‘ziga ham o‘shanday ne’mat berilishini orzu qilish mumkin.

3 “(Birinchisi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o‘shani to‘g‘ri yo‘lda sarf qilsa”. Ya’ni “Menga ham Alloh shu odamga bergani kabi mol-u dunyo ato qilganida, men ham shu odamga o‘xshab, uni yaxshilik yo‘lida sarf qilar edim”, deb havas qilsa bo‘ladi.

4 “(Ikkinchisi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o‘sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta’lim bersa”. O‘sha odamga ham boshqa musulmonlar havas qilsa bo‘ladi. Ilm bilan **hukm chiqarish** o‘sha ilm taqozo etgan narsaga o‘zi amal qilish va odamlarni ham shunga chaqirishdan iboratdir.

Ushbu hadisdan olinadigan foydalar:


1. Mol-dunyoni to‘g‘ri yo‘lda sarflashga **targ‘ib**.

2. Mol-dunyosi yo‘q kishilar ham, agar mol-u dunyosi bo‘lsa, yaxshilik yo‘lida sarflashni orzu qilishlariga targ‘ib.

3. Ilmga amal qilib, uni odamlarga o‘rgatishga amr.

4. Boshqalarni ham ilm olish, unga amal qilib, boshqalarga o‘rgatishga targ‘ib.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning
“Hadis va hayot” kitobidan olindi.



1. Mazkur hadis nimasi bilan ahamiyatli, muhim?
2. Bu hadisga barcha amal qilsa, jamiyatimizda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi deb o‘ylaysiz?
3. Nima deb o‘ylaysiz: nega aynan shu ikki holatda “hasad” qilish mumkinligi aytilgan?
4. Hasad so‘zining qanday ma’nolari bor ekan?
5. Hadisdagi “u o‘sha ilmi ila hukm chiqarsa” jumlasini qanday tushundingiz? Sharhlab bering.
6. Matnda hasadga “boshqaga berilgan ne’matning zavolini orzu qilish” deya ta’rif berilgan. Siz buni qanday tushunasiz? Sharhlab bering.

Matn asosida berilgan testlarni yeching. Test kalitini tuzib, javoblarni daftarga belgilang.

1. Hadisdagi “Faqat ikki narsadan boshqada hasad yo‘q” jumlasi qanday ma’noni anglatadi?

A) Ikki narsa, ya’ni ikki vaziyatdan boshqa holatlarda havas qilish bor.
B) Odamlar ikki narsaga hasad qilsa, bu hasad emas, balki havasdir.
C) Hasad ikki turli bo‘ladi: yomon hasad va “havas qilish” ma’nosidagi hasad.
D) Ikki holatdan boshqa holatlarda hasad qilish mumkin.

2. Matnda hasadning gunoh ekani quyidagi qaysi jumla bilan asoslanadi?
A) “boshqa kishiga berilgan ne’matni ko‘rib, o‘zida ham bo‘lishini orzu qilish”
B) “ilm bilan hukm chiqarish”
C) “boshqaga berilgan ne’matning zavolini orzu qilish”
D) “ilm taqozo etgan narsaga o‘zi amal qilishi”

3. “Mol-dunyoni to‘g‘ri yo‘lda sarflashga targ‘ib” etish hikmati hadis sharhining qaysi qismida ochib berilgan?
A) 1-qismida
B) 2-qismida
C) 3-qismida
D) 4-qismida

4. “Ilmga amal qilib, uni odamlarga o‘rgatishga amr” mazmuni hadis sharhining qaysi qismida ochib berilgan?
A) 1-qismida
B) 2-qismida
C) 3-qismida
D) 4-qismida

Sharhda aytilganidan tashqari, siz hadisdan yana qanday foydali jihatlarni oldingiz? Yozing.

Hadisdan olgan xulosalarim:
1. ...
2. ...

Berilgan so‘zlarning izohi bilan tanishib, ular matnda qanday ma’noda kelayotganini aniqlang. So‘zlarning matndagi ma’nosi keltirilgan izohlarni ko‘chiring.

Rivoyat	avloddan avlodga o‘tib kelayotgan voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba’zan uydirmalar, ba’zan haqiqat vositasida tasvirlovchi og‘zaki hikoya
	biror masala yuzasidan shariat qonunlari asosida chiqarilgan hukm, xulosa
	o‘g‘izdagi gap, hikoya
Zavol	kunning ikkinchi yarmi, kun og‘gan payt bilan kunbotar oralig‘i
	yo‘q bo‘lish, mahv bo‘lish, o‘lim
	ofat, kushanda
Ne’mat	in’om etilgan yegulik narsalar
	ezgu ish, yaxshi narsa
Hukm chiqarmoq	umuman, biror ish, masala yuzasidan xulosa yasamoq
	jinoiy jazo yoki biror ish haqidagi qarorni belgilamoq

Jadvalda berilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning matndan tashqaridagi ma’nolari ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Matnning ushbu qismida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirib, uni qayta ko‘chiring. Ma’nodosh so‘zlarning ahamiyati haqida xulosa chiqaring.

“Hasad” aslida boshqaga berilgan ne’matning zavolini orzu qilishni **anglatadi**. Bu gunoh **hisoblanadi**. Gohida “hasad” so‘zi “havas qilish” ma’nosida, ya’ni boshqa kishiga berilgan ne’matni ko‘rib, o‘zida ham bo‘lishini **orzu qilish** ma’nosida ham **ishlatiladi**. Bunga arablar “g‘ibta” deydilar. Ushbu hadisi sharifdagi “hasad” so‘zi ana o‘sha g‘ibta – havas qilish ma’nosida **kelgan**.

Matnni diqqat bilan o‘qing.

Yoshlik chog‘ida Imom Buxoriy o‘z tengdoshlari bilan Basra mashoyixlarining darslariga qatnashar, biroq hech narsani yozib olmas edi.

Bir qancha kun shu tarzda o‘tganidan keyin sheriklari undan: “Sen biz bilan birga darsga qatnashasan, lekin **yozib olmaysan.** Bu ishingning ma’nosi nima?” – deb so‘rashdi.

O‘n olti kundan so‘ng yosh Buxoriy ularga: “Juda gapni ko‘paytirib yubordingiz va mahkam **turib oldingiz.** Yozganlaringizni menga **o‘qib beringlar**-chi!” – dedi.

Ular yozganlarini chiqarishgan edi, o‘n besh mingdan ziyod hadis chiqdi. Buxoriy esa o‘shalarning hammasini yoddan aytib berdi. Do‘stlari esa u yoddan aytgan narsadan yozganlaridagi xatolarni to‘g‘rilab olishdi.

So‘ngra Buxoriy ularga qarata dedi: “Ayting-chi, men darsga behuda qatnashayotgan va kunlarimni zoye qilayotgan ekanmanmi?!”

Shunda hech kim uning oldiga tusha olmasligini bildilar.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Odoblar xazinasi” kitobidan olindi.

Matnning ajratib ko‘rsatilgan qismidan quyidagi turkumlarga kiruvchi so‘zlarni topib, ularning so‘roqlarini aniqlab, yozing.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l
Hadis (nima?)	?	?	?	?

Berilgan matnlarni o‘zaro taqqoslang. Fe’llar ifodalagan ma’nolarga e’tibor bering. Ularni izohlang.

Ular yozganlarini chiqarishgan edi, o‘n besh mingdan ziyod hadis chiqdi. Buxoriy esa o‘shalarning hammasini yoddan **aytib berdi**. Do‘stlari esa u yoddan aytgan narsadan yozganlaridagi xatolarni **to‘g‘rilab olishdi.**

Ular yozganlarini chiqarishgan edi, o‘n besh mingdan ziyod hadis chiqdi. Buxoriy esa o‘shalarning hammasini yoddan **aytdi**. Do‘stlari esa u yoddan aytgan narsadan yozganlaridagi xatolarni **to‘g‘rilashdi**.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini sodda fe’llarga almashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Bilib oling!

Imom Buxoriyning to‘liq ismi – **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mag‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy.**

Qadimda kishilarning ismida ota tarafdan bir necha ajdodlarining ismini aks ettirish urf bo‘lgan.

Abu “falonchining otasi” degan ma’noni anglatadi. Masalan, Abu Abdulloh – Abdullohning otasi.

Ibn “falonchining o‘g‘li” degan ma’noni anglatadi. Masalan, ibn Ismoil – Ismoilning o‘g‘li.

Ayrim hollarda allomalarga nisbat berish uchun ular tug‘ilgan-yashagan joy, kasbining nomi, laqab, taxallus yoki unvonlari ismga qo‘shilgan. Masalan, Imom Termiziy (termizlik bo‘lgan), Gulxaniy (kasbi hammomda o‘t yoqish – go‘laxlik bo‘lgan), Navoiy (taxallus, “navo” – kuy so‘zidan), Yusuf Xos Hojib (xos hojiblik – lavozim).

“Hadislar hikmati” mavzusi doirasida uchragan atoqli otlarni yozing. Ularning qaysi biri ism, qaysi biri taxallus ekanini ayting.

Matndan olingan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni ko‘chirma gap va muallif gapiga ajrating. Tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bergan holda ularning qoliplarini yozing.

1. Bir qancha kun shu tarzda o‘tganidan keyin sheriklari undan: “Sen biz bilan birga darsga qatnashasan, lekin yozib olmaysan. Bu ishingning ma’nosi nima?” – deb so‘rashdi.

2. O‘n olti kundan so‘ng yosh Buxoriy ularga: “Juda gapni ko‘paytirib yubordingiz va mahkam turib oldingiz. Yozganlaringizni menga o‘qib beringlar-chi!” – dedi.

3. So‘ngra Buxoriy ularga qarata dedi: “Ayting-chi, men darsga behuda qatnashayotgan va kunlarimni zoye qilayotgan ekanmanmi?!”

1) M: “K”.	M: “K?”	M: “K!”	M: “K?!”
2) M: “K”, — m.	M: “K?” — m.	M: “K!” — m.	
3) “K”, — m.	“K?” — m.	“K!” — m.	
4) “K, — m, — k”.			

Quyidagi qoliplar asosida ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga misollar tuzib, yozing.

M: “K!”	“K!” — m.	M: “K”, — m.

Taxallus insonga nimaga kerakligi haqidagi fikrlaringizni yozma ifodalang. “Adabiyot” darsligingizdagi shoir va yozuvchilarning ismlari va taxalluslarini yozib, ular nima uchun shunday taxallus tanlaganlarini sharhlashga harakat qiling.

Buyuk sahoba Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning ilm haqida aytganlarini sharhlab matn tuzing.

Ali ibn Abu Tolib: “Ilm moldan yaxshidir, u seni muhofaza qiladi, molni esa sen qo‘riqlaysan. Ilm hokim, mol mahkumdir. Nafaqa qilish bilan mol kamaysa, ilm tarqatish bilan ziyoda bo‘ladi”, – deganlar.

O‘zingiz yozgan matn uchun 5 ta savol tuzib, yozing. Ularga berilgan javobning mukammalligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Matnni tahrir qilishga ehtiyoj tug‘ilgan bo‘lsa, uni qayta yozing.

SAYYOHLARGA GIDLIK QILSAM-CHI?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• O‘zbekistonning tarixiy yodgorliklari, turistik salohiyati • ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida berish • tasviriy matn yaratish • grafik rasmlar bilan ma’lumotlarni bog‘lay olish.

1. Qaysi davlatlar O‘zbekistonga qo‘shni hisoblanadi? Xaritadan ko‘rsating.
2. O‘zbekistonga yaqin, lekin qo‘shni bo‘lmagan davlatlar qaysi?
3. Xaritada ko‘rsatilgan davlatlar haqida nimalarni bilasiz?



Ta’tilda dam olish uchun qayerlarga borganingizni eslang. U joylarning ro‘yxatini tuzing. Qayerga borganingizda ko‘proq maza qilgansiz? Sizga yoqish darajasiga qarab 1 balldan 5 ballgacha baholang.

Borilgan joy	Borilgan vaqt	Ball
Qishloqqa, buvimlarnikiga	5-sinfni bitirganimdan keyin, yozgi ta’tilda	4
Toshkentga, Yangi yil bayramiga	4-sinfda o‘qiyotganimda, Yangi yil bayramida	5

Yana qayerlarga borishni orzu qilasiz? Nima maqsadda bormoqchisiz? U joylarning ham ro‘yxatini tuzing.

Namuna

Samarqand – Registon maydonini ko‘rmoqchiman.
Orol dengizi – ilgari dengiz bo‘lgan, hozir qurib qolgan hududni o‘z ko‘zim bilan ko‘rmoqchiman.
Hollivud – sevimli multfilmlarim qanday ishlanishini ko‘rgim keladi.

Ota-onangizdan bolalikdagi uylarini tasvirlab berishlarini so‘rang. Ularning aytib bergani asosida kichik matn yozing.

1. Sizningcha, gid kim? U nimalar bilan shug‘ullanadi?
2. Gidlik qilish uchun odamda qanday ko‘nikmalar bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

Savollarni diqqat bilan o‘qing. Audiomatnni tinglab, shu savollarga javob berishingiz kerak.

1. Charos kim?
2. Sayyohlar qaysi shaharga tashrif buyurgan?
3. Matnga ko‘ra, sayyohlar qayerdan qayerga yo‘l olgan?
4. Charos nima uchun ob-havo haqida ma’lumot bermoqda?
5. Samarqandning qanday diqqatga sazovor joylari tilga olindi?
6. Sayyohlar necha kunga kelgan?
7. Siyob bozoridan nimalar xarid qilish mumkin deb o‘ylaysiz?


Charos ismli qizning nutqini tinglang. Yuqoridagi savollarga javob bering.



Charosning nutqidan quyidagilarni aniqlab yozing.


1. Qonun-qoidalar.
2. Ehtiyot choralari.
3. Diqqatga sazovor joylar.

Charosning nutqi asosida gidlar mehmonlarni kutib olganda nimalarni gapirib berishi muhimligi haqida munozara uyushtiring. Har bir aytgan fikringizni isbotlashga harakat qiling. Sizningcha, Charos yana nimalarni aytishi mumkin edi?



Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridan birini tanlang. Daftaringizga quyidagi jadvalni chizib, so‘ralgan ma’lumotlarni yozing. Kattalardan yordam olsangiz bo‘ladi, ular sizga internetdan ma’lumot topishda yordam berishlari mumkin.

- Shahar nomi
- Qaysi viloyatga qarashli ekani
- Borish mumkin bo‘lgan transportlar
- Mashhur joylari
- U yerda yashagan taniqli shaxslar



1. Biror bino, tarixiy obida haqida kimgadir ma’lumot berishingizga to‘g‘ri kelganmi? Bu qanday bo‘lgan?
2. Biror binoni tavsiflash qayerlarda kerak bo‘lishi mumkin?

Siz doimo o‘qib boradigan jurnalda dunyoning eng chiroyli binolari haqida maqola e’lon qilindi. Siz ham o‘zingiz chiroyli deb bilgan bino haqida maqola yozib, jurnalga yuborishni maqsad qildingiz. Maqolada nimalarni yozgan bo‘lar edingiz?

Quyidagilardan qaysilariga to‘xtalib o‘tasiz? Javoblaringizni izohlang.

- binoning nomi va joylashgan o‘rni
- u binoga birinchi borgandagi taassurotingiz
- uni kim, qachon, nima maqsadda qurgani
- bino ichidagi bezaklarining tavsifi
- bino tashqi bezaklarining tavsifi
- binodan nima maqsadda foydalanishgani yoki foydalanishayotgani

Maqolani o‘qing. Xatboshilarni quyidagilar bilan moslashtiring.

A) tashqi ko‘rinish tavsifi
B) nomi, joylashuvi hamda o‘ziga xosliklari, alohida xususiyatlari
D) tavsiya
E) ichki ko‘rinish tavsifi
F) tarixiy ma'lumotlar

TO‘PQOPI – TURKIYA XAZINASI



Kirish

Dunyoda buyuk saroylar ko‘p. Xo‘sh, ularning qaysi biri eng chiroyli, eng hashamatli? Ko‘pchilik bu savolga “Turkiyaning Istanbul shahridagi, qoya tepasida joylashgan To‘pqopi saroyi” deb javob beradi. Bu joydan Bosfor bo‘g‘ozi va Marmara dengizi bor go‘zalligi bilan ko‘rinib turadi.

Birinchi xatboshi

Asosiy qism

Saroyni 1451–1481-yillarda hukmronlik qilgan Sulton Mahmud II qurdirgan. Saroy qurilishi 1459-yilda boshlanib, 1465-yilda tugatilgan. 1856-yilgacha bu saroy Usmonli sultonlarining rasmiy qarorgohi bo‘lgan. Asrlar davomida saroy tarkibiga ko‘plab binolar qo‘shilib, uning hududi kengayib borgan. To‘pqopi hozir xuddi kichik shaharga o‘xshaydi.

Ikkinchi xatboshi

Saroy qalin va baland tosh devor bilan o‘ralgan. Unga og‘ir temir darvozalar orqali kirish mumkin. Qarorgoh hududida masjid va oq marmardan ishlangan ko‘plab mahobatli binolar mavjud. To‘rtta asosiy hovlidan birida dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan noyob gullar va daraxtlardan go‘zal bog‘ hosil qilingan.

Uchinchi xatboshi

Saroyning ichki qismi o‘zida sultonlarning hashamatli hayot tarzini namoyon qiladi. Ba’zi xosxonalar o‘zining asl holatini hozirgacha to‘liq saqlab qolgan. Saroy ichidagi muzeydan sultonlar kiygan liboslar, shuningdek, Xitoy va Yaponiyadan keltirilgan kumush, billur va chinni idishlar hamda boshqa bebaho buyumlar kolleksiyasi o‘rin olgan. Dunyoning eng mashhur marvaridlaridan ba’zilari aynan mana shu saroy xazinasida saqlanadi.

To‘rtinchi xatboshi

Xulosa

Umuman olganda, To‘pqopining ulug‘vorligi hamda joylashgan o‘rnining maftunkorligi tashrif buyuruvchilarni doim o‘ziga chorlab turadi.

Beshinchi xatboshi

Matnni yana bir marta o‘qing hamda quyidagi ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Ushbu saroydagi barcha binolar 1465-yilda qurib bitkazilgan.

Saroy qurilgan vaqtdan beri deyarli o‘zgarmagan.

Saroydan turib dengizning go‘zal manzarasini tomosha qilish mumkin.

Saroyda maftunkor bog‘lar mavjud.

Sultonlar hamon shu saroyda yashaydilar.

To‘pqopi dunyodagi eng go‘zal saroy deya tan olingan.

Biror binoni tavsiflovchi matn yaratganimizda uni 5 qismga ajratganimiz ma’qul.

- **Birinchi qismda** bu qanday **turdagi** bino ekanini, **qayerda** joylashganini va **o‘ziga xos xususiyatlaridan birini** ta’kidlaymiz.

- **Ikkinchi qismda** bu bino haqidagi **tarixiy ma’lumotlarni** keltiramiz (me’mori kim, kim qurdirgan, qachon qurdirgan, nima maqsadda qurdirgan?).

- **Uchinchi qismda** binoning **tashqi ko‘rinishi** haqidagi ma’lumotlarni yozamiz.

- **To‘rtinchi qismda** binoning **ichki ko‘rinishi** haqidagi ma’lumotlarni yozamiz.

- **Beshinchi qismda** bino haqidagida **umumiy izohlar** hamda tashrif buyuruvchilar uchun **tavsiyalarni** (asosan bu binoni nima uchun borib ko‘rish kerakligi haqida) yozamiz.



So‘zlarni mos ustunga yozing.

Hovuz, zina, ayvon, bog‘, o‘choq, yo‘lak, dahliz, surat, gilam, gazlama, mebel, marvarid, lampa, marmar, parda, favvora, boloxona, kamin, maysazor, xosxona, dam olish xonasi, pech, naqsh, simyog‘och, gulzor, gulqog‘oz, qandil.

Tashqi ko‘rinishga oid	Ichki ko‘rinishga oid
hovuz	parda

1. Binolar tavsifini qayerlarda uchratish mumkin?
2. Sizningcha, sayyohlik agentliklari nega gidlarni ishga oladi?

Binolarning tavsifi turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Quyidagi parchalarni o‘qing va qaysi turga oid ekanini ayting.

1. Do‘stga maktub.
2. Orzudagi uyning tavsifi.
3. Sarguzasht hikoya.

A

Komil tashlandiq, qorong‘i uyning hovlisida turar va sovuqdan qaltirar edi. U og‘ir yog‘och eshikning oldiga borib, sekin itardi. Eshik g‘iyqillab ochildi. Ichkariga kirgan Komil o‘zini katta zalda ko‘rdi. Xonaning bir chetida eski pech bo‘lib, anchadan beri yoqilmagani sezilib turardi. Jihozlarni esa o‘rgimchak to‘ri bosib ketgan... Shu payt Komil yelkasida kimningdir sovuq qo‘lini his qildi...

B

Uyning devori oq, deraza va eshiklari yashil rangda bo‘ladi. Orqa tomonga qaragan qismida esa katta deraza bo‘ladi. O‘sha derazadan butun okean ko‘rinib turadi. Shuningdek, uyda turfa ranglarga burkangan bog‘, bog‘ning o‘rtasida esa kichik hovuz bo‘ladi.

D

Biz juda hayajondamiz, nihoyat o‘zimiz orzu qilgan yangi uyga ko‘chib o‘tdik! Kattagina ayvonidan shaharning ajoyib manzarasini tomosha qilish mumkin. Tashqarida o‘tirish uchun bambukdan yasalgan stol-stullar sotib olishni reja qilganmiz. Bu uyning mehmonxonasi juda ham katta, kamin ham bor...

Charos Samarqandga kelgan sayyohlarga yo‘lboshchilik qilayotganidan xabaringiz bor. U ertaga Ulug‘bek rasadxonasi haqida so‘zlab berishi kerak. Guruhlarga bo‘lining va Charos foydalanishi uchun matn tayyorlang.



Quyidagi ma’lumotlardan foydalaning.

Nomi: Ulug‘bek rasadxonasi	**Qachon qurilgan:** 1424–1429-yillarda
Kim qurdirgan: Mirzo Ulug‘bek	**Qayerda joylashgan:** Samarqand, Cho‘ponota (Ko‘hak) tepaligida
Shakli: silindr	**Balandligi:** 30,4 metr (3 qavatli)
Nima maqsadda qurilgan: astronomik izlanishlar, osmonni o‘rganish	**Kimlar faoliyat yuritgan:** Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi
Hovlisi: daraxtzorga aylantirilgan	**Uskunalari:** kvadrant, quyosh soatlari
Devorlari: g‘ishtdan qurilgan, sirli koshinlar bilan qoplangan	**Ichki qismi:** naqshlar bilan bezatilgan

Qo‘shimcha ma’lumot

Bobur Mirzoning yozishicha, rasadxona uch oshiyonli bino bo‘lib, to‘garak shaklida bo‘lgan, binoning devorlari sirli koshinlar bilan qoplangan. Abdurazzoq Samarqandiy bu nodir obidaning ichki qismini shunday tasvirlaydi: *“Binoning ichki qismi jahonda tengi yo‘q rang-barang naqshlar bilan bezatilib, devor va shiftlarida osmon gradus (daraja)lari, daqiqalari, hatto soniyalarigacha hisoblanib, yetti sayyora hamda “harakatsiz” (sobita) yulduzlar, shuningdek, Yer kurrasi, yetti iqlim, tog‘-u sahrolar, daryo-yu dengizlar va ummonlargacha tasvirlangan”.*

Qo‘shimcha ma’lumot uchun “Ulug‘bek rasadxonasi” audiomatnini tinglang.

Inshootning qurilgan vaqtdagi ko‘rinishi



Hozirgi ko‘rinishiga oid rasmlar









Orzungizdagi uyni tavsiflab, matn yozing.

PESHTOQDAGI BITIKLAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• ko‘cha-ko‘yda xabar, ma’lumot, reklama sifatida berilgan lavhalar va ularning imlosiga doir bilimlar • davlat tiliga hurmat • reklamaga oid til birliklari • e’lon matnini yaratish.

Berilgan reklamalar matnidagi xatolarni toping.

1




2



3



4



Rasmlarni quyidagi guruhlarga ajrating.

Qanday aytilsa, shunday yozib qo‘yilgan	Lotin yozuvida ruscha so‘z yozilgan	Sheva so‘zlari bilan yozilgan

Guruhlarga bo‘lining. Quyidagilardan birini tanlab, unga mos reklama bannerini tayyorlang.

- Milliy taomlar oshxonasi
- O‘quv markazi
- Fastfud oshxonasi
- Somsaxona
- Telefon do‘koni
- Bolalar kiyimlari do‘koni
- Mebel do‘koni
- Maishiy texnika do‘koni
- Kompyuter ustaxonasi

Tayyorlagan banneringizni taqdimot qiling.

1. Reklama banneri nima uchun kerak?
2. Reklama banneridagi imloviy xatolar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
3. “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” maqolini tahlil qiling.

Ko‘chada, televideniyeda, avtobusda beriladigan yozuvlarga diqqat qiling. Qanday xatolarni uchratdingiz? To‘g‘risi qanday? Shu haqida ma’lumot tayyorlang.

Quyidagi birliklar nimani reklama qilishda ishlatilishi mumkinligi haqida bahs yuriting. O‘z qarashingizni asoslashga harakat qiling.

- Tabiatan musaffo!
- Sening quvvating!
- Oshqozon yordamchisi
- Bu yerda hamma narsa bor
- Orzular ro‘yobi
- Mutlaqo sof va tabiiy!

Reklama tarixi haqidagi matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

REKLAMANING QISQACHA TARIXI

Qadimgi odamlar olovni kashf qilgach, meva, ildiz, o‘t-o‘lanlarni yig‘ishni o‘rgandilar. Hayvonlarni ovlash usullarini o‘ylab topdilar. Suv yaqiniga joylashib, baliq tutishni boshladilar.

Keyinroq chorvachilik va dehqonchilik rivojlandi. Endi odamlar savdo-sotiq qila boshladi. Savdoning rivojlanishi raqobatning o‘sishiga olib keldi. Raqobat natijasida esa reklama paydo bo‘ldi. Reklama ana shunday “tug‘ilgan”.

“Reklama” so‘ziga izoh berishga harakat qiling.

Dunyo rivojlangani sari reklama sohasi ham rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda hammamiz reklamalar qurshovida yashamoqdamiz. Reklamachilar bizning ongimizni egallashning turli usullarini o‘ylab topishmoqda.

Agar o‘tmishga nazar solsak, qadimda ham, bugungi kunda ham reklamalarning mazmuni bir xil bo‘lganini kuzatish mumkin. Yagona o‘zgargan narsa – shakl.

Hech kim korxonalar qachondan boshlab reklamadan o‘zlarini tanitish uchun foydalana boshlaganini aniq aytib bera olmaydi. Mantiqan xulosa qilish mumkinki, reklamalarning ilk ko‘rinishi og‘zaki tarzda bo‘lgan. Bozorlarda odamlar o‘z mahsuloti va xizmatlarini reklama qilish uchun bor ovozlari bilan baqirishgan.

Vaqt o‘tib, sotuvchilar qichqiriqdan ham kuchliroq qurolni o‘ylab topdilar. Bu biz hozir peshlavha yoki banner deb ataydigan o‘yma belgilar va turli shakldagi bayroqlar edi.

Jeyms Vudning “Reklama tarixi” kitobida aytilishicha, ilk yozma e’lon Qadimgi Misrning Fiva shahridan topilgan.

Miloddan 3000 yil oldin yozilgan ushbu e’lon matni quyidagicha edi:

“Qul Shem o‘z xo‘jayini tikuvchi Xapudan qochib ketdi. Fivaning fuqarolari uni qaytarishda yordam berishsa, xursand bo‘laman. U xett millatiga mansub, bo‘yi 157 cm, rangi qirmizi, ko‘zlari jigarrang. Uning qayerda ekani haqidagi xabar uchun yarim tilla mukofot beraman. Agar uni eng zo‘r va sifatli mahsulotlarga ega tikuvchi Xapuning ustaxonasiga olib kelsangiz, bir tilla mukofot olasiz”.

Bozorni ko‘z oldingizga keltiring, sotuvchilarning chaqiriqlarini eshitganmisiz? Hozir ham baland ovozda baqirish bilan xaridor e’tiborini tortmoqchi bo‘lganlar bormi?



Sizningcha, ushbu matnning nimasi reklama?

Qadimgi Rim aholisi uy devorlaridan ham unumli foydalangan. Ular devorlarga turli xil reklama taxtachalarini ilib qo‘yishgan. Bu paytga kelib, hukumat ham devorlardan reklama maydoni sifatida foydalanishni boshlagan. Professional reklamachilar ham paydo bo‘lgan. Hukumat tilni yaxshi bilgan va tosh devorga o‘yib yoza oladigan hunarmandlarni yig‘ib, turli e’lon va yo‘lko‘rsatkichlarni tayyorlata boshlagan.

Ana shunday qilib, bugun biz ko‘rib turgan reklama shakllari paydo bo‘lgan.

1. Qoraytirib qo‘yilgan gapga e'tibor bering. Bu bilan muallif nima demoqchi?
2. Professional reklamachilar nima bilan shug‘ullangan?
3. Rim hukumatiga reklama tayyorlashda tilni yaxshi bilgan odamlar nima uchun kerak bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
4. Reklamaning yana qanday shakllarini bilasiz?

Yuqoridagi matnning davomini o‘qing. Matndan olgan ma’lumotlaringiz asosida reklama tarixi haqida kichik nutq tayyorlang.

To‘liq maqola uchun havola

Ikkala ustundagi so‘zlarni o‘zaro moslashtirib yozing.

xushbo‘y	suv
shaffof	non
toza	atir
tabiiy	sharbat
mazali	somsa
tilyorar	ta’m
qaynoq	qovun
haqiqiy	
issiq	

Bilib oling!

Reklama bannerini tayyorlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- sarlavhaning jalb qiluvchi xususiyati;
- asosiy so‘zlarning boshqa so‘zlardan ajralib turishi;
- ma’lumotlarning yetarliligi;
- ma’lumotlar qisqa shaklda berilishi;
- kamida bitta taklif bo‘lishi.

“Peshtoqdagi bitiklar” mavzusining birinchi soatida guruh bo‘lib yasagan banneringizni oling. Xatolaringizni tahlil qiling.

Bilib oling!

Reklama matnlarida mahsulot yoki xizmatlarning o‘ziga xos jihatlari alohida ta’kidlanib, bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Bunda *xushbo‘y, shirin, asil, sof, toza, tabiiy, tezkor, arzon, qulay, ko‘rkam, yorqin* kabi so‘zlardan foydalaniladi.

Shuningdek, reklama matnlarida da’vat ohangidagi so‘zlardan ham foydalaniladi: *his eting, tashrif buyuring, tanishib chiqing, tanlang, shoshiling, lazzatlaning.*

Bundan tashqari, reklama matnlarida kompaniyaning, tashkilotning shiori aks etishi ham mumkin. Masalan:

Yagona tibbiy ma’lumotlar xizmati! Har doim siz bilan. Biz bilan betakrorsiz! Tashvishsiz hayot davri keldi!

Televizorda ko‘rgan yoki radioda eshitgan reklamalaringizni eslang. Ularni quyidagi jadval asosida tahlil qilib, yozing. Qolgan guruh vakillari nima reklama qilinganini topishga urinib ko‘radi.

Bo‘rttirish uchun so‘z	Da’vat yoki chorlov	Shior

Muhokama uchun savol: reklamalar, peshlavhalar qaysi tilda bo‘lishi lozim? Nima uchun?

Shu paytgacha o‘rganganlaringiz asosida “Reklamalardagi xatolar” mavzusida matn yozing. Matnda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga diqqat qiling.

Kirish. *Nima uchun shu mavzuda gapirish lozim?*

Asosiy qism:

a) reklamalarda uchrayotgan xatolar va ularga misollar;

b) reklamalarda davlat tiliga bo‘lgan e’tiborning holati va bunga misollar.


Xulosa.

Fikrlaringizning umumlashmasi va shaxsiy qarashlaringiz.

Tahlil va tahrir soati.

MUSTAHKAMLASH


Berilgan rasmlardagi xatolarni aniqlang. To‘g‘risini yozing.













“Birikma yasaymiz” o‘yinini o‘ynang. Siz narsalarning o‘ziga xos jihatini bo‘rttirib ko‘rsatishda ishlatiladigan so‘zlardan birini ayting, partadoshingiz unga mos boshqa so‘z aytsin. Masalan, siz ***lazzatli*** desangiz, partadoshingiz ***sharbat*** deyishi mumkin.

Guruh bo‘lib ishlang. Tasavvur qiling: sizdan oziq-ovqat do‘koni uchun reklama banneri tayyorlab berishni so‘rashdi. Siz qanday banner tayyorlagan bo‘lar edingiz? Qog‘ozda tayyorlab ko‘rsating.

MINORAYI KALON

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Buxoro shahrining tarixi • milliy-madaniy yodgorliklar • mundarijadan foydalanish • kitob tanlash • shartli tushunish • mutolaa bilan bog‘liq ko‘nikmalar.

1. Kitob mundarijasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz, kitobda mundarija bo‘lmasa, nima bo‘ladi?
3. Kitobning mazmuni haqida uni to‘liq o‘qimasdan ham xulosa qilsa bo‘ladimi? Qanday qilib?

Quyida Buxoro haqidagi kitob mundarijasi va ko‘rsatkichlari berilgan. Mundarijadan o‘rin olgan mavzularga diqqat qiling. Ushbu mavzularni kitobning qayerida uchratish mumkin? Ulardan nimalarni bilib olsak bo‘ladi?

MUNDARIJA

Buxoro qayerda joylashgan? 4
Nomlanishi va etimologiyasi 5
Shaharning yoshi haqida ma’lumotlar 6
Buxoro Turk xoqonligi davrida 8
Arablar fathidan so‘ng 12
Somoniylar hukmronligi davrida 16
Qoraxoniylar hukmronligi davrida 24
Muhammad Xorazmshoh hukmronligi davrida 31
Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida 37
Temuriylar hukmronligi davrida 48
Buxoro – O‘zbek xonligi poytaxti 63
Buxoro amirlik davrida 72
Sovet hukmronligi davrida 81
Hozirgi kunda 90
Tarixiy arxitektura yodgorliklari 109
Manbalar 121

KO‘RSATKICHLAR

Abbosiylar 12, 13, 16
Abu Ali ibn Sino 17
arab tili 12, 37, 90
Bolohovuz 115
dehqon 5, 6, 8, 90
madrasa 6, 8, 11, 91
mehrob 109, 114, 115
Shahriston 5, 6, 8, 110
Turk xoqonligi 8
Abdullaxon II 65
Afshona 17
ark 6, 12, 16, 24, 31
Bo‘ritegin 24, 25
Ismoil ibn Ahmad 15
Mahmud G‘aznaviy 24, 25
Minorayi Kalon 109, 114
Sitorayi Mohi Xosa 109, 114, 117
Varaxsha 90
Chor Minor 109, 113
Abruy 9
Afrosiyob 6 – 9
Bidun 9
Buxorxudot 8, 9
Labihovuz 109, 118
Malikshoh 24, 25
rabot 109, 114, 115
Somoniylar 16
xorazmshoh 31, 32



Mundarija orqali kitobdagi boblar, mavzular qaysi sahifadan boshlanishini bilib olish mumkin. Bu qism kitob boshi yoki oxirida joylashadi. ***Ko‘rsatkichlar*** qismidan esa tegishli ism, joy nomi, atamalar qaysi sahifalarda tilga olingani haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Savollarga javob yozing.

1. Qaysi sahifadan Bidun haqida ma’lumot topish mumkin?
2. 6–7-sahifalarda nima haqida so‘z boradi?
3. Ushbu sahifalarda nimalar (ism, joy, nom) haqida ma’lumot topishimiz mumkin?
4. Buxoroda kimlar hukmronlik qilgan?
5. 121-sahifada nimalar yozilgan deb o‘ylaysiz?
6. Arab tili haqida 3 ta mavzuda o‘qishimiz mumkin. Ular qaysilar?

Ommabop kitoblardan turli xil ma'lumotlar olish mumkin. Bir nechta ommabop kitoblarni ko'rib chiqing, ularni qiyoslashga harakat qiling. Biror kitobdan topgan kichik ma'lumotingizni yozing. "Bilib oling" ruknida berilgan ma'lumotlarga mos sahifalarni toping.

Bilib oling!

• Kitob nomidan uning nima haqida ekanini anglash mumkin bo'ladi.
• Kitobdagi matnlar mavzuga oid ma'lumotlarni qamrab oladi.
• Agar matnlar juda uzun bo'lsa, **sarlavhalar** orqali sizga kerakli ma'lumot qayerda joylashganini bilib olish mumkin.
• Faqatgina matnlar orqali emas, **rasmlar, diagrammalar, illyustratsiyalar** orqali ham ma'lumot yetkaziladi.
• Rasm yoki grafik tasvir ostidagi **sharh** u nima haqida ekanini bildirib turadi.
• Ba'zi ma'lumotlar raqamlangan yoki biror belgi bilan **tartiblangan ro'yxat** shaklida bo'lishi mumkin.
• Kitob oxirida yoki sahifaning pastki qismida tushunish qiyin bo'lgan so'zlarning **izohi** berilgan bo'ladi.

Ko'rib chiqish – barcha matnni diqqat bilan o'qishga vaqt sarflamasdan, biror narsani tezda ko'zdan kechirishni anglatadi. Kitob do'koni yoki kutubxonada ko'rib chiqish usullaridan foydalanib o'zingizga kerakli kitobni tezroq topishingiz mumkin.

• Kitobning muqovasiga qarang. Kitob nomini o'qing. Bu nomdan nima anglashilishi, bu kitobdan nima o'rganish mumkinligini taxmin qiling. Muqovadagi rasmlarda nimalar tasvirlanganiga diqqat qiling.

• Kitobni oching. Mundarijaga o'ting va u bilan tanishing.

• Rasmlar, infografikalar va illyustratsiyalarga diqqat qilgan holda kitobni varaqlang.

Ko'rib chiqish kitobning nima haqida ekanini tezroq tushunib olishga yordam beradi. Shunga qarab, xarid qilish yoki qilmaslik, o'qish yoki o'qimaslik haqida qaror chiqarish birmuncha osonlashadi.

1. Minora qanday inshoot?

2. Nima deb o'ylaysiz, minoradan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

3. Qanday shakldagi minoralarni bilasiz?

MINORAYI KALON

Buxoroda **ko‘plab** minoralar mavjud. Ular qariyb o‘ttiz asrni qarshilagan sharif shahar husniga ko‘rk qo‘shib kelmoqda. Buxoro minoralari orasida Minorayi Kalon (Katta minora) o‘zining mahobati, naqshlarining murakkabligi, bejirimligi hamda ne-ne jang-u jadallar va tabiat sinovlariga dosh berib kelayotgani bilan **alohida** ajralib turadi.

Minoralar turli davrlarda har xil vazifalarni bajargan. **Qadimdan** minoralar masjid va madrasalar yonida, ularga tutash qurilgan. **O‘shanda** bundan ko‘zlangan asosiy maqsad hammani namozga chorlashdan iborat bo‘lgan. Ammo “minora” so‘zi arabchada “mayoq” ma’nosini bildirib, gorizontal o‘lchamiga nisbatan vertikal o‘lchami **ortiq** bo‘lgan baland inshootni ifodalaydi. Muhim savdo-sotiq markazi, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Buxoroga **qator-qator** karvonlar, savdogarlar qum barxanli sahrolardan oshib kelishgan. Buxoroning o‘sha davrdagi hukmdori Arslonxon Qoraxoniy shahar atrofidagi sahrolarda karvonlarning adashib qolmasligi uchun baland inshoot qurishni rejalashtiradi. Arslonxon Qoraxoniy 1124-yili eng mashhur va sara usta-quruvchilarning loyihalari bilan **shaxsan** tanishib chiqadi va Usta Baqoning loyihasini ma’qullaydi. **Shu asnoda** minorani qurish ishlari boshlanadi. Minorani ko‘tarishda ishlatilgan maxsus qorishmani tayyorlashda yulg‘un kukuni, uzum shirasi, qora tovuq tuxumi, tuya juni va sutidan foydalanishadi. Bu esa minoraning juda ham mustahkam bo‘lishiga xizmat qilgan.

Minorayi Kalon 1127-yilda qurib bitkaziladi. Balandligi 47,5 metr bo‘lgan (asosi, 10 metri yer ostida) minoraga 105 pog‘onali zina orqali chiqilib, **eng** yuqori qismidagi 16 ta darcha orqali shaharni kuzatish mumkin. Minoraning tepa qismida sham fonuslari yoqilib, atrofga nur taratilgan. Natijada minora **kechalari** 50–60 chaqirim masofadagi karvonlar ham adashmay, shaharga kirib kelishida yo‘lchi yulduz vazifasini o‘tagan. Qariyb 900 yildan buyon barchaning hayratiga sabab bo‘lib kelayotgan Minorayi Kalon **yanada** jozibali ko‘rinishi uchun belbog‘ida 20 dan ortiq naqshinkor halqalar hosil qilingan. Bezaklar bir-birini takrorlamaydi. Unda har xil kufiy, handasiy yozuvlarni ham uchratish mumkin. Minorada nafaqat hukmdor, balki inshootni bunyod etgan ustaning nomini ham qoldirish maqsadida **yuqoriga** – eng ustki halqalardan biriga “Amali Usto Baqo, milodiy 1127-yil, Minorayi Arslonxon” degan so‘zlar bitilgan.

damda.uz sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi



1. Buxoro necha yoshni qarshilagan?
2. Sizningcha, “kalon” so‘zini qanday ma’noni anglatadi?
3. Qadimda minoralar qanday vazifalarni bajargan?
4. Arslonxon Qoraxoniy nima sababdan minora qurdirmoqchi bo‘ldi?
5. Minorayi Kalonning asl vazifasi nimadan iborat edi?
6. Matndan minoraning mahobati va go‘zalligi ko‘rsatib berilgan o‘rinlarni topib, o‘qing.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ular, sizningcha, nimani ifodalamoqda? Izohlang.

Lug‘atdan quyidagi so‘zlarning ma’nosini topib, yozing.

tarz | payt | daraja | miqdor | o‘rin

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o‘rni, daraja-miqdori yoki maqsad-sababini ko‘rsatuvchi so‘zlar **ravish** deyiladi. Ravishlar “qanday?” *(tez, astoydil)*, “qachon?” *(yaqinda, hozir)*, “qayerga/qayerda/qayerdan?” *(u yoqqa, shu yerda, uzoqlardan)*, “qancha?” *(ko‘p, ozgina)*, “qay darajada?” *(juda, sal)*, “nima sababdan?” *(noiloj, bekordan bekorga)*, “nima maqsadda?” *(ataylab, jo‘rttaga)* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Tarzni bildirayotgan so‘zlar	Paytni bildirayotgan so‘zlar	O‘rinni bildirayot-gan so‘zlar	Daraja-miqdorni bildirayotgan so‘zlar

Quyidagi jadvalni chizib, to‘ldiring. Birinchi ustunda berilgan fe’lning turli belgilarini bildira oladigan ravishlarnigina yozing.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *jim, yaqinda, yayov, uzoqdan, atayin, tasodifan, arang, sal, mo‘l, hamisha, dastlab, hech vaqt, bir mahal, har doim, oldinda, olg‘a, ichkarida, u yerda, jo‘rttaga, to‘satdan, nari, so‘ng, bir talay, birma-bir, picha, oz, xiyol, hozircha, biroz, behad, piyoda, noilojlikdan, qasddan, bir tarafdan.*

Fe’l	Tarzi, holati	Payti	O‘rni	Daraja-miqdori	Maqsad-sababi
yugurmoq					
uxlamoq					
kelmoq					
aytmoq					

1. Minorayi Kalon haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Har bir ma’lumotni qisqa shaklda ifodalab xattaxtaga yozing.

Savollar bilan tanishib chiqing. Audiomatnda ularning javobini topasiz.

1. Minorayi Kalonga nechta bomba teggan?
2. Minorayi Kalon qaysi masjidga odamlarni chorlash uchun ishlatilgan?
3. Minoraning muhandisi kim?
4. Minoraning yer ostidagi qismi necha metr?
5. Minoraning eng yuqorisiga chiqish uchun nechta zinani bosib o‘tish kerak?
6. 1960-yilda minorani kim ta’mirlagan?
7. Minorada qaysi yillari ta’mirlash ishlari olib borilgan?

Audiomatnni bir marta tinglang.

Audiomatnni ikkinchi marta tinglang. Tinglash jarayonida yuqoridagi savollarga javob yozing.

Quyidagi gaplarga mos ravishlarni qo‘shing. Ravishlarni qo‘shib o‘qiganda ularning ma’nosida qanday o‘zgarish bo‘layotgani haqida fikrlashing.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *ko‘plab, yuqoridan, birdan, bemalol.*

1. Bu ulug‘ inshoot bilan bog‘liq afsonalar keltirilgan.
2. Tuya suti va alebastr qorishmasidan minoraning poydevorini tiklagan usta-quruvchi g‘oyib bo‘lgan.
3. Yuqorisidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin.
4. O‘z vaqtida Minorayi Kalon kuzatish uchun xizmat qilgan.

Minorayi Kalon haqida shu paytgacha bilib olgan ma’lumotlaringiz ro‘yxatini tuzing. Bundan tashqari kattalar yordamida internet hamda kitoblardan qo‘shimcha ma’lumotlar topib, ro‘yxatni to‘ldiring.

1. Siz omma oldida nutq so‘zlaganmisiz?
2. Nutqqa tayyorlanish haqida o‘ylab ko‘ring. Sizningcha, biror mavzu haqida gapirish uchun nimalar qilish kerak?

Guruhlarga bo‘lining. Siz Minorayi Kalon haqida gapirmoqchisiz. Nutq tayyorlang.

1. Mavzuni qismlarga ajrating, kim qaysi mavzuni tayyorlashi haqida kelishib oling.
2. Quyidagi jadvalga qarang. Mavzu qismlarga qanday ajratilganiga e’tibor qiling. Daftaringizga jadvalning bo‘sh holatini chizing. Guruh kelishgan mavzuga moslab to‘ldiring.
3. Nutq davomida javob berishingiz kerak bo‘lgan savollarni ham yozishni unutmang.
4. Tadqiqotni boshlang. Yuqoridagi matn hamda audiomatndan foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, internet ma’lumotlaridan ham foydalanishga ruxsat etiladi.
5. Savollarga qisqacha javob yozib oling.

Mavzu: “Minorayi Kalon”	
Qismlar va savollar	Javoblar
1. Joylashuvi Qayerda joylashgan?	Buxoro shahrida
2. Tarixi Kim qurdirgan? Nechanchi yilda qurdirgan?	Arslonxon Qoraxoniy 1124–1127-yillarda
3. Me’morchiligi Balandligi qancha? Qanday bezaklari bor?	47,5 metr Tarixiy yozuvlar
4. Hozir Hozir nima vazifani bajarmoqda?	Sayohatchilar tomosha qiladigan me’moriy obida

Nutq so‘zlang. So‘zlashdan oldin guruhda mashq qilib oling.



Nutq so‘zlaganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:
- nutqingiz nima haqida ekanini qisqa va lo‘nda tushuntiring;
- nutqning har bir qismini alohida ta’kid bilan boshlang;
- zamonni to‘g‘ri ishlating;
- tinglovchilarni qiziqtiradigan ma’lumotlar berishga harakat qiling, nutqingiz qiziqarli (kulgili emas) bo‘lishiga diqqat qiling;
- shiftga, polga yoki yon-atrofga emas, tinglovchilarga qarab gapiring.

Sinfdoshingiz nutqini hurmat va diqqat bilan tinglang. Ortiqcha shovqin qilmang hamda so‘zlayotgan odam nutqini bo‘lmang. Ravishlarni qo‘lladimi, yo‘qmi – diqqat qiling, qo‘llangan ravishlarni yozib oling va o‘qib bering.


Oila a’zolaringizni nutq so‘zlash haqidagi tavsiyalar bilan tanishtiring. Ularga sinfdagi nutqingizni so‘zlab bering. Ular siz tavsiyalarga qanchalik amal qilganingizni baholashlari kerak bo‘ladi.

BUYUK IPAK YO‘LI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Buyuk ipak yo‘lining tarixiy, ijtimoiy-madaniy ahamiyati • ravishlarni aniqlash • matnlarni qiyoslash • matn uslubi • imlo qoidalari.

1. Mahsulotni bir davlatdan ikkinchi davlatga olib borishning qanday usullari bor?
2. Qadimda davlatlar mahsulotni qanday usullar va vositalar bilan almashlagan?
3. Nima deb o‘ylaysiz, nega qadimda odamlar zamonaviy texnologiyalarsiz ham yo‘ldan adashishmagan?



Xaritadan foydalanib Buyuk ipak yo‘li qaysi davlatlar hududidan o‘tganini ro‘yxat shaklida yozing.


1. Nima deb o‘ylaysiz, mazkur savdo yo‘liga nega “Buyuk ipak yo‘li” deb nom berishgan?
2. Sizningcha, Buyuk ipak yo‘li savdo-sotiqni rivojlantirish bilan birga yana nimalarga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin?

Audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Buyuk ipak yo‘lidagi savdoning to‘xtashiga sabab sifatida qanday voqea keltirilgan?
2. Nima uchun Gobi sahrosi hamda Pomir tog‘lari eng qiyin nuqtalar deb atalmoqda?
3. Qora o‘latning tarqalishi qanday kechgan?
4. Samarqandning mashhurligi nimalarda ko‘rinadi?
5. Nima uchun eng keng tarqalgan mahsulot ipak bo‘lgan?

Xaritadan foydalanib gaplarni davom ettiring.

Savdo karvonlari O‘zbekiston hududiga 3 ta yo‘nalish orqali kirib kelgan.
Birinchisi – …
Ikkinchisi – …
Uchinchisi – …
Andijon tomondan kirib kelgan karvonlar ikki tarmoqda yo‘lni davom ettirishgan.
Birinchisi – …
Ikkinchisi – …



1. Sizningcha, savdogarlar sahroda suvni qanday topishgan?

2. Nima deb o‘ylaysiz, nega savdogarlar transport sifatida aynan tuyalarni tanlashgan?

Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

...




Buyuk ipak yo‘li ko‘p asrlar davomida Xitoy va Markaziy Osiyo shaharlarini O‘rta dengiz mamlakatlari bilan bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib kelgan. Yo‘l mazkur hududlar o‘rtasidagi savdo va madaniyat almashinuvi jarayonlarida muhim rol o‘ynagan. U miloddan oldin II asrda Xitoy va Farg‘ona vodiysi shaharlari o‘rtasidagi savdo yo‘li sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinroq Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim transport aloqa yo‘li maqomini egalladi va o‘rta asrlarga qadar amal qildi.

Buyuk ipak yo‘lining asosiy qismi Osiyoning cho‘l hududlaridan o‘tgan. Savdogarlar qimmatbaho yuklarni tashish uchun qizib turgan qumda yurishga yaxshi moslashgan tuyalardan foydalangan.

Sayyohlar duch kelgan eng asosiy muammo yo‘nalishning katta qismida suvning yo‘qligi edi. Savdogarlar o‘zlari bilan ko‘p miqdorda suv olishmagan. Sababi katta suv idishlari boshqa savdo yuklarining o‘rnini band qilib qo‘yardi. Savdogarlar suvni karvon yo‘lining qulay joyida mahoratli muhandislar qurgan suv inshootidan olishgan. Sardoba deb atalgan bunday inshootlarda doim suv bo‘lgan. Sardobalarni bugungi kunda ham O‘rta Osiyoning ba’zi shaharlarida uchratish mumkin.

Noyob muhandislik inshootlari yo‘lning har 12–15 kilometrida uchrab, 150–200 tuyadan iborat karvonning chanqog‘ini qondira olgan. Bu quduqlar yerosti suvlaridan emas, balki yomg‘irlar va atmosfera havosidagi namlik hisobidan suv yig‘ishga qodir o‘ziga xos tuzilmaga ega bo‘lgan.



Sardobalar tuzilmasi

Ishonish qiyindek ko‘rinsa-da, qadimgi muhandislar quduqlarni qurishda uyurma effektidan foydalangan. Inshoot konstruksiyasi tashqaridan qaraganda toshdan ishlangan kichikroq chodirni eslatgan va bir nechta tuynuklari bo‘lgan. Quduqning yarmidan ortiq qismi yer ostiga ko‘milgan bo‘lib, suvga yetish uchun zinadan pastga tushish

kerak bo‘lgan. Tom va yon tomon tuynuklarining maxsus konstruksiyasi tufayli ichkarida muntazam cho‘l havosi aylanib turgan. Mutaxassislarning baholashicha, cho‘l havosi hajmi sutkasiga bir necha ming kubometrga yetgan.

Hatto cho‘lning qizigan havosida ham suv bug‘lari mavjud. Katta mahorat bilan barpo etilgan inshoot g‘oyasi aynan mazkur bilimga asoslangan. Arab sayyohlarining xotirlashicha, doim salqin bo‘lgan quduq ichiga tushgan issiq havo sovigan va undagi suv tomchi shaklida ajralib chiqqan. Musaffo, salqin suv tosh gumbazdan quduq tubidagi maxsus chuqurlikka sizib tushgan. Odamlar ichish va tuyalarini sug‘orish uchun u yerdagi suvdan foydalangan.

daryo.uz saytidan olindi

1. Sayyohlar duch kelgan asosiy muammo nima edi?
2. Qumliklar orasida sardobalarning barpo etilishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Sardobadagi tuynuklar nima vazifani bajargan?
4. Sardobalarda suv qanday to‘plangan?
5. Nega sardobalar “noyob muhandislik inshooti” deb atalmoqda?
6. Ushbu matn orqali muallif nimani ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?
7. Ushbu matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?

Buyuk ipak yo‘li haqida esingizda qolgan ma’lumotlarni ro‘yxat ko‘rinishida yozing.

Guruhlarga bo‘lining. “Adabiyot” darsligingizda berilgan matnlarni eslang. Minorayi Kalon hamda ushbu mavzuda berilgan matnlar bilan ularni qiyoslang. Qanday farqlar mavjud ekanini yozing. Quyidagi namunaviy savollardan foydalaning.

- Qanday mavzularni qamrab olgan?
- Qaysi biri ma’lumot berishni nazarda tutadi?
- So‘zlarning qo‘llanishida qanday farqlar bor?

“Adabiyot” darsligidagi matnlarning xususiyatlari	Minorayi Kalon hamda Buyuk ipak yo‘li mavzusidagi matnlarning xususiyatlari

Buyuk Ipak yo‘lining O‘zbekistondan o‘tgan tarmog‘i haqida matn yozmoqchisiz. 169-betdagi jadvalga qarang. Xuddi shu tarzda jadval ishlab chiqing. Kattalar yordamida ma’lumot to‘plang.

Uyda tayyorlab kelgan ma’lumotlaringizga qarang. Ular asosida matn yozing. Matn yozishda quyidagilarga amal qiling:

- tuzgan jadvalingizdan foydalaning;
- har bir xatboshida yangi g‘oya yoki fikr berishga harakat qiling;
- xatboshilaringizga sarlavha qo‘ying;
- fe’llarga mos ravishlardan foydalaning.

Yozgan matningizni partadoshingizga bering.

Partadoshingiz yozgan matnni quyidagi mezonlar asosida tekshirib chiqing:

- imloviy xatolarni belgilang;
- o‘zingiz uchun qiziq bo‘lgan ma’lumotning ostiga chizing;
- xatboshilar to‘g‘ri ajratilganiga diqqat qiling;
- ravishlarning ostiga chizing;
- yana qanday ma’lumot bilan matnni boyitish mumkinligi haqida maslahat bering.

Shu paytgacha olgan bilimlaringiz va quyidagi rasmlar asosida matn yozing.





1. Uyda qanday mavzuda matn yozdingiz?
2. Matningizning sarlavhasi qanday?
3. Matningizda qanday ma’lumotlar mavjud?

Uyda yozib kelingan matnlarning tahlili va tahriri.

O‘qituvchingiz to‘g‘rilagan o‘rinlarga diqqat qiling. O‘qituvchingiz tavsiyalari asosida matnni qayta ko‘chiring. Xatolaringizni anglab, keyingi safar ularni takrorlamaslikka harakat qiling.

MUSTAHKAMLASH

1. Ushbu bo‘limda qanday mavzular bilan tanishdingiz?
2. Yodingizda qolgan ma’lumotlardan uchtasini ayting.

2 ta gap tuzib, yozing. Gaplaringizda ravishlarni qo‘llash mumkin bo‘lsin, lekin ravishlarni yozib qo‘ymang.

Hamma bajarib bo‘lgach, gaplaringizni o‘qing, qolganlar qanday ravish qo‘llash mumkinligini aytishlari kerak.

Guruhlarga bo‘lining. Quyidagi so‘zlarni jadvalga joylashtiring. Har bir guruh bittadan ustunni tanlashi lozim. Topshiriqni xattaxtada bajaring.

Tarz, holat	Payt	O‘rin	Daraja-miqdor	Maqsad-sabab

Qo‘yish uchun so‘zlar: *bir tarafdan, jim, u yerda, endi, sal, atayin, yayov, bir yoqqa, picha, hozircha, har yerda, yakkama-yakka, xiyol, tashqariga, azza-bazza, so‘ng, hanuz, noiloj, oz, ko‘p, hech joydan, noilojlikdan, bir necha, hamisha, kam, ancha, chindan, doimo, mo‘l, qo‘qqisdan, bir qancha, to‘satdan, jo‘rttaga, xiyla, hamon, behad, dastlab, erta-indin, biroz, qishin-yozin, piyoda, tasodifan, kecha-kunduz, qasddan, hozir, bafurja, arang, astoydil, hech vaqt, ilojsizlikdan, qatorasiga, beri, har doim, nari, bir mahal, eskicha, oldinda, birma-bir, uzoqdan, yonma-yon, olg‘a, ichkarida, bir talay, ataylab.*

MINIATYURA – MO‘JAZ SURAT

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Sharq mumtoz miniatyurasi va kitobat san’ati • fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari • fe’llarni to‘g‘ri qo‘llash • sarlavha.

1. Kompyuter grafikasi haqida ma’lumotlar bilan tanishgan edingiz. Ayting-chi, u qaysi sohalarda keng qo‘llanadi?
2. Ushbu darslikning barcha nusxalaridagi rasmlar bir xil. Nima deb o‘ylaysiz, rasmlar qanday qilib bir xil shaklda chop etiladi?
3. Qadimda kitoblarni nimalar bilan bezashgan deb o‘ylaysiz?

Quyidagi rasmlarga qarang. O‘qituvchingizning savollariga javob bering.











Miniatyura san’ati haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Miniatyura usulidagi rasmlar nimalarga chizilishi mumkin?
2. Miniatyuralardan qanday maqsadlarda foydalanishgan?
3. Mashhur miniatyurachilarni sanang.
4. Kamoliddin Behzod miniatyura san’atida qanday burilish qildi?
5. Nima deb o‘ylaysiz, kompyuterda chizilgan rasmlar qimmatliroqmi yoki miniatyura asarlari? Nega bunday deb o‘ylaysiz?


Guruhlarga bo‘lining. Quyidagi miniatyura namunalaridan birini tanlang va unda nimalar tasvirlanganini so‘zlab bering.








Quyida qo‘lingizdagi darslikning yaratilish jarayoni aks etgan. Tasvirni diqqat bilan kuzating hamda darslikning yaralish jarayoni haqidagi tasavvurlaringiz asosida matn yozing. Tushunmagan so‘zlaringizni kattalar yordamida lug‘atlardan toping.



1. Darslikning yaratilishi necha bosqichdan iborat ekan?
2. Sizningcha, rassom va dizaynerlarsiz darslik qanday ko‘rinishda bo‘lardi?
3. Uyga vazifani bajarishda qanday so‘zlarni o‘rganib oldingiz?

Quyidagi ma’lumotni o‘qing. Uyda yozgan matningizdagi kamchiliklarni aniqlab, ularni to‘g‘rilang va matnni qayta yozing.

Jarayonni tavsiflashda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan birinchi unsur – voqealar xronologiyasi **– ketma-ketligini to‘g‘ri belgilab olishdir.**

Jarayonning har bir bosqichi yangi qatordan yozilishi maqsadga muvofiq. Har bir yangi bosqichni raqamlash ham mumkin, lekin bu tavsiflovchining ixtiyorida, ya’ni raqamlamasa ham bo‘ladi.

Jarayonni tavsiflashda tartibni anglatuvchi so‘z va qo‘shimchalardan keng foydalaniladi: *birinchidan, ikkinchidan, avval, keyin, so‘ng, oxirida, oldin, ...gacha, ...shi bilan.*

Jarayonni tavsiflayotganda odatda jumlalar o‘tgan zamonda tuziladi. Bundan tashqari, harakatni bajaruvchi shaxs aniq bo‘lmagani uchun fe’lning quyidagi shakllaridan foydalanish to‘g‘ri bo‘ladi: *solinadi, qilinadi, quriladi, yoziladi, tekshiriladi, ochiladi, yopiladi.*

Matningizdagi faktik xatolarni to‘g‘rilab olish uchun quyidagi maqoladan foydalanishingiz mumkin.

Maqola uchun havola

Audiomatnni tinglang, juft va takroriy fe’llarni yozib oling.

Quyidagi jadvalni chizing. Berilgan gaplardagi fe’llarni tuzilishiga ko‘ra jadvalga joylashtiring.

Sodda fe’l	Qo‘shma fe’l	Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi	Juft fe’l	Takroriy fe’l

1. Dadasining ishdan kelishini kuta-kuta zerikkan Komila uxlab qoldi.

2. Saroy qurib, shahar buzma.

3. Singlisining to‘yida yelib-yugurib xizmat qildi.

4. Kampir yurganda hech qanaqa ovoz chiqmasdi. Oyog‘i xuddi yerga pardek beozor tegardi.

5. Jabbor bo‘lgan ishlarni o‘yladi-o‘yladi, lekin o‘yining oxiri ko‘rinmadi.

6. Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi.

7. Gulnor: “Qishloqdan ketib, cho‘lda o‘rnashib olsak, qulog‘im tinchir”, – deb o‘zini o‘zi yupatdi.

8. “Axir men shu vatanda undim-o‘sdim”, – deb pichirladi, – uni o‘zidan boshqa hech kimga eshitilmadi.

9. Karim hamma gapning yolg‘on ekanini bilib tursa ham, andisha qilib gapira olmasdi.

10. Ashula tugagach, e’tiborli bir odam kelin bilan kuyovni qutlab, baxt va totuvlik tiladi.

11. To‘planib turgan odamlar orasidan urinib-turtinib ichkariga kirib oldi.

12. Saodatxon bir-ikki qadam bosib, yana orqasiga qaytdi.

13. Abdulla daftarchani ochdi va qadamini sekinlatib, o‘qiy boshladi.

14. Majlis shunchalik cho‘zilib ketishini raisning o‘zi ham kutmagan edi.

15. Egilib turgan qator olchalar ham uyg‘ondi: guldan hali darak yo‘g‘-u, ko‘m-ko‘k, ushoq-ushoq yaproqchalar chiqardi.

Matnni o‘qing. Topshiriqlarni bajaring.

KITOBAT SAN’ATI



Insoniyat rivojida aql-idrok va ruhiy barkamollik vositasi bo‘lgan kitob – buyuk mo‘jiza. Darhaqiqat, kitob odamzodning yaqin sirdoshi, yo‘ldoshi va uni asrlardan asrlarga olib o‘tgan ziyo mash’alidir. Kitoblar faqat bilim manbai bo‘libgina qolmay, madaniy hayotimizning betakror san’ati sifatida yashab kelayotir. Xalqimiz azal-azaldan ilmga, kitobga chanqoq. Shu bois yurtimizda kitobatchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Fikrimizga dalil sifatida “Avesto” qo‘lyozmalari, sopol idishlar, charm o‘ramlari, metall buyumlardagi yozuvlarni aytsak bo‘ladi.

Kitobat san’ati bir qancha qo‘li gul hunarmandlar tomonidan bajariladigan murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, bular – qog‘ozrez, xattot (kitob va risolalarni ko‘chiruvchi kotib), lavvoh (kitob sahifalarini tasvirlar va naqshinkor lavhalar bilan bezovchi), muzahhib (zarhal beruvchi mo‘yqalam sohibi), musavvir (rassom), sahhof (muqovasoz)lardan iborat jamoadir.



Qo‘lyozma kitoblarni tayyorlashda kitob uchun yaxshi, sifatli qog‘oz tanlash muhim bo‘lgan. Samarqand qog‘ozi, ayniqsa, o‘zining bejirimligi va sifati bilan dong taratgan. Samarqand qog‘ozlari miloddan avvalgi davrda Buyuk ipak yo‘li orqali Eron, Hindiston, Shom va Rumgacha yetib borgan. “Maroqand qog‘ozlari, – deb yozgan edi qadimgi yunon olimi Herodot “Tarix” asarida, – o‘zining sifati, yozuvning tiniq ko‘rinishi, ixchamligi bilan Xitoy qog‘ozlaridan yuqori turadi”. Narshaxiyning VI–VII asrlardan hikoya qiluvchi mashhur “Buxoro tarixi” hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asari ham Samarqand qog‘oziga bitilgani tufayli bugungi kungacha yetib kelgan.

Xattotlar matnni qog‘ozga mistar (maxsus qog‘oz-karton) ustiga ip tortib, uning izini tushirib olganlaridan so‘ng yozishga kirishganlar. Matnni qanday joylashtirish xattotning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. ***Yozilgan matnni sahhof hoshiyali qog‘ozga yelimlagan, uning ustidan jadvalkash turli-tuman ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan.*** Keyin esa muzahhib oltin suvi va turli ranglar bilan qo‘lyozmani ziynatlagan. Bunda muzahhiblar “shams”, “lavha”, “sarlavha”, “zarvaraq”, “xotima” kabi naqshlardan foydalanganlar. Bo‘sh qoldirilgan joylarga musavvirlar miniatyura ishlaganlar. Ular rasmlarni turli ranglarda, oltin, kumush ishlatgan holda bo‘yaganlar. Nihoyat muqovachilar qo‘lyozmaga naqsh va turli xil bo‘yoqlar bilan jilo bergan, oltin suvlari yurgizilgan charm muqovaga biriktirgan. Muqovaning g‘ilofi ko‘pincha bosma, o‘yma, qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan kumush yoki yog‘ochdan bo‘lgan.



Qo‘qon xonligida kitobat san’atining mohir ustalari ijod qilgan. Nodirabegim buyurtmasiga asosan xattot Muhammad Yusuf Dabir tomonidan XIX asrda Qo‘qonda ko‘chirilgan Alisher Navoiyning she’rlari to‘plami – “Devoni Alisher Navoiy” kitobi bezaklariga ko‘ra dunyoda yagona nusxadir. Hozir Toshkent davlat sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan ushbu asarda musavvir va xattot Navoiy asarlari insoniyatga quyoshdek nur sochib turishini ramziy tasvirlagan naqshlarni ko‘ramiz.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yuksak darajaga chiqqan bugungi kunda kitob nashr etish sohasida ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Qo‘l mehnatini kompyuterlar va bosma uskunalar egallashi tufayli kitoblarning sifati tubdan yaxshilandi. Ayniqsa, keyingi yillarga kelib, nashriyotlarimiz har tomonlama sifatli, chiroyli bezatilgan kitoblarni nashr qilib, o‘tmish an’analarini davom ettirmoqda.

Shabnam Azimova,
saviya.uz saytidan

Quyidagi so‘zlarni izohi bilan moslashtirib ko‘chiring.

xattot	qog‘oz tayyorlovchi, ularni qirqib, kesib, kitob shakliga moslovchi odam
lavvoh	qimmatbaho metall kukuni aralashtirib tayyorlangan bo‘yoqlar bilan kitoblarga ishlov beruvchi usta
qog‘ozrez	kitoblarni, asarlarni husnixat bilan ko‘chira oladigan, aniq va chiroyli yoza oladigan odam
muzahhib	turli tasvirlar ishlovchi, rasmlar chizuvchi ijodkor
sahhof	qo‘lyozma kitoblarni turli naqshlar va bezaklar bilan boyituvchi usta
musavvir	qog‘ozni sahifalash va kitoblarni muqovalash bilan shug‘ullanuvchi usta

Yuqoridagi topshiriq asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. **Qog‘ozrez** so‘zi tarkibidagi “rez” qanday ma’noni anglatadi?
2. Lavha so‘zining ma'nosi asosida lavvoh so‘zining ma'nosini izohlang.
3. Kitobingizning eng oxirgi betini oching. Kitob ustida ishlagan qaysi mutaxassis **sahhof**ga mos keladi?
4. **Musavvir** so‘zi “tasvir” so‘zi bilan bog‘liq. Tasvirlarni yaratuvchi odam musavvir deyiladi. Shunga o‘xshash o‘zaro aloqador so‘zlarga misol ayting.

Quyidagi miniatyuralarga diqqat qiling. Ular qaysi asar asosida ishlangan bo‘lishi mumkin va qaysi voqealarni o‘zida aks ettirmoqda? Isbotlashga harakat qiling.





“Kitobat san’ati” matni asosida tuzilgan testlarni yeching. Javoblarni daftaringizga belgilang. Matndan foydalanishingiz mumkin.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. To‘g‘ri javobni toping.
Quyidagi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z qanday ma’noni anglatmoqda?
Xalqimiz azal-azaldan ilmga, kitobga ***chanqoq****.*
A) suvsiragan B) zor bo‘lmoq
C) ishtiyoqmand D) tashna bo‘lmoq

2. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Kitob tayyorlash jarayonida bir necha mutaxassislar ishlaydi.
A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

3. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Samarqand hamda Xitoy qog‘ozlari o‘zaro “musobaqalashgan”.
A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

4. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Maroqand hamda Samarqand bir xil tushunchani anglatadi.
A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

5. To‘g‘ri javob(lar)ni toping.
Quyidagilardan qaysi biri tarixchi olim hisoblanadi?
A) Herodot B) Nodirabegim
C) Firdavsiy D) Muhammad Yusuf Dabir

6. To‘g‘ri javobni toping.
Kitob sahifasidagi matnning joylashishi kimning mahoratidan darak bergan?
A) sahhof B) musavvir
C) xattot D) muzahhib

7. To‘g‘ri javobni toping.
Matnda ajratib ko‘rsatilgan gapdan xulosa qilish mumkinki, ...
A) Sahhof xattotning yordamchisi, uning ishlarida ko‘maklashuvchi bo‘lgan
B) Kitobning matn qismi hamda hoshiya qismi alohida tayyorlangan
C) Sahhof kitob sahifalarini bir-biriga yelimlab chiqqan
D) Xattot matnni turli-tuman jadvallar ichiga yozgan


8. To‘g‘ri javobni toping.
Kitobning muqovasi odatda qanday materialdan tayyorlangan?
A) kumush B) yog‘och C) charm D) mis

9. To‘g‘ri javobni yozing.
Matnga tayangan holda, kitob tayyorlash jarayonida mehnat qiladigan ustalarning ishlash ketma-ketligini belgilang.
_____

Javoblaringizni o‘qituvchingiz bilan tahlil qiling.

“Kitobat san’ati” matnida qo‘llangan sodda hamda qo‘shma fe’llarni ajratib yozing.

Quyidagi chizma asosida o‘z kitobingizni yasang. Uni turli naqsh va rasmlar bilan bezang. Unga o‘zingiz istagan mavzuda matn yozing.



Oila a’zolaringizga tayyorlagan kitobingiz haqida gapirib bering.

1. *Kitob nima haqida?*

2. *Nega bu rasmlar chizilgan?*

3. *Kitob shaklini qanday tayyorladingiz?*

OQSAROYGA BITILGAN HIKMAT

Bu mavzuda o‘rganamiz


• O‘zbekiston me’morchiligi an’analari • tarixiy obidalar • me’morchilikka oid til birliklari • taqlid so‘zlar • badiiy va badiiy bo‘lmagan uslub • tavsifiy matn yaratish.

1. Taqlid deganda nimani tushunasiz?


2. Biror marta hayvonlarning, narsalarning ovozini o‘xshatishingiz kerak bo‘lganmi?

3. Nimalarning ovozini o‘xshata olasiz?

Rasmlardagi holatlarni ifodalovchi so‘zlarni yozing.





Eshitgan tovushlaringizni yozuvda ifodalang.

Jonzotlar va jonsiz narsalarning tovushi va holatiga taqlidni bildirgan so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. ***Inga*** *(chaqaloq ovozi)*, ***vov-vov*** *(kuchukning ovozi)*, ***g‘iyq*** *(eshik ovozi)* kabilar **tovushga taqlid so‘zlar;** ***lip-lip*** *(olov holati)*, ***yal-yal*** *(tovlanish)* kabilar **holatga taqlid so‘zlar** hisoblanadi.

Yuqoridagi qoida asosida *holatga taqlid so‘zlar* qanday bo‘lishi haqida qoida yarating. Misollar keltiring.

Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga moslab ko‘chiring. Istalgan 6 ta so‘zni qatnashtirib gap tuzing.

dag‘-dag‘, chars-churs, dir-dir, yal-yal, gurs-gurs, g‘uv-g‘uv, ship-ship, tars-tars, qars-qirs, lip-lip, g‘a-g‘a, g‘iyq, yilt-yilt, taq, yarq, jiz-jiz, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir, milt, dupur, qah-qah, shildir, tfu, paq, paq-puq.

Holatga taqlid so‘zlar	Tovushga taqlid so‘zlar

1. Badiiy uslub deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, badiiy uslub oddiy so‘zlashuv nutqidan qanday farq qiladi?
3. Badiiy uslubdagi nutqni qayerlarda uchratish mumkin?

Matnni o‘qing. Taqlid so‘zlarni aniqlang. Nimaga taqlid ekanini tushuntiring.

OQSAROYNING FAVVORALARI

(1-qism)

Elchini katta e’zoz bilan Oqsaroyga olib kirishdi. Ulkan ko‘shkli saroy darvozasidan kirib borar ekan, Klavixo bu shohona koshonaning har burchiga ***yosh boladek intiq boqar,*** o‘zgacha nur taralib turgan devorlarning ***mahobati va bejirim naqshlaridan ko‘zi qamashardi.*** Oyog‘i ostidagi yilt-yilt ***marmarda mavjlanayotgan o‘z aksini ko‘rib*** turgan mehmon qadamini yengillatdi. ***Go‘yoki oyna ustida sirpanib uchayotgandek ko‘ngli hapriqdi.***



Rui Gonsales de Klavixo – 1403-yilda Kastiliya qiroli Enrike III ning Amir Temur saroyidagi elchisi etib tayinlangan. Klavixo Samarqand va uning atrofida qiziqarli kuzatishlarni olib borgan va ularni “Samarqandga – Temur saroyiga 1403–1406-yillardagi sayohat kundaligi” nomi bilan chop etilgan esdaliklarida aks ettirgan. Klavixoning “Kundalik”lari uning 1403–1406-yillari Turkiya, Eron va Movarounnahrda, xususan, Amir Temur saroyida ko‘rgan-bilganlarini o‘z ichiga olgan muhim asardir.

Mehmonni ichkariga olishdi. Aylana zinalardan minora tepasiga ko‘tarilar ekan, elchi Oqsaroyning nainki tashqi, balki ***ichki qiyofasi-da munavvar, charog‘on*** ekaniga amin bo‘ldi. Saroy tepasiga ko‘tarilib borar ekan, har o‘n-o‘n besh qadam oralig‘ida ko‘zga tashlanayotgan tuynuklarga e’tibor qaratdi. Va bildiki, bu yo‘lak odatiy saroylarnikidan farq qiladi. Negaki, zinalarning biror qismida lip-lip yonadigan mash’ala yo‘q, unga hojat ham qolmagan. Klavixo tanasiga engan ajib hayrat og‘ushida navbatdagi tuynukka sinchkov ko‘z tashladi. Undan ***biror sir, qandaydir mo‘jiza qidirdi.*** Ko‘plab davlatlarda bo‘lgani-yu, ammo hech bir yurtda bu kabi g‘aroyib inshoot tarhini, kichik ochiqlikdan shuncha ko‘p nur yog‘ilishini ko‘rmaganini, shundanmi, bino sirini anglashga bo‘lgan ***ishtiyoq ko‘nglida vulqondek toshib borayotganini sezdi.*** Navbatdagi ochiq yerdan tashqarini bir muddat tomosha qilib o‘tdi. Oniy lahzada nigohi anglashga ulgurgani – tevarakni ulkan ***yam-yashil gilam qoplab olgan.*** Elchi tabiatning bu ajib husniga ich-ichidan tasanno aytdi. Go‘zallikning yangi lavhasini kashf qilgandek, navbatdagi tuynuklardan tashqariga yana bir-ikki bor nigoh tashladi. Bir fursat o‘tib, mehmonning oyoqlariga charchoq endi. Minora boshiga yetishga esa hali fursat bor. Klavixo qalt-qalt titrog‘ini bosish uchun to‘xtab, chuqur bir tin olgach, yonidagi safardoshlariga pichirladi: “Ha, bundayin mahobat na Mag‘ribda, na Mashriqda bor. Temurning qudrati va ulug‘ligi uning saroylarida bo‘y ko‘rsatib turibdi. Bu – haqiqat”.

Farhod Eshmo‘minov

1. Klavixo kim? Sizningcha, uning yurtimiz tarixida qanday o‘rni bor?
2. Ushbu minoraning Klavixo ko‘rgan boshqa minoralardan farqi nimada edi?
3. Mag‘rib va Mashriq qayer?
4. Klavixo anglagan haqiqat nima edi?

Ajratib ko‘rsatilgan birliklar matnda qanday o‘rin tutayotganini muhokama qiling. Bunday birliklarni muallif nima maqsadda qo‘llagan bo‘lishi mumkin?

Nutq turli uslublarda yaratiladi. Ulardan biri badiiy uslubdir. “Oqsaroyning favvoralari” matni ham badiiy uslubning yorqin namunasi.

Badiiy uslubda voqealar tasviriy vositalar, ta’sirchan so‘zlarni qo‘llash orqali yoritib beriladi. Shuning uchun ham bu uslubning ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi.

Badiiy nutqdagi ta’sirchanlikni oshiruvchi omillardan biri taqlid so‘zlar hisoblanadi. Qiyoslab ko‘ring:

Gulxanga tashlangan o‘tinlar yonmoqda.
Gulxanga tashlangan o‘tinlar chars-churs yonmoqda.

Quyidagi gaplarni o‘qing. Kerakli o‘rinlarga taqlid so‘zlarni qo‘shib, gaplarni qayta tuzing. So‘ng daftaringizga yozing.

1. Karimning jahli chiqdi, qaltiray boshladi.
2. Salima kiyib olgan ko‘ylakka qadalgan toshlar yonardi.
3. Yarim tun payti hovlida ovoz eshitildi.
4. Mehnat qilaverib horigan bu qo‘llar yorilib ketgan edi.
5. Kunlar isishi bilan Abdulloh ayvonda uxlardi, chunki unga yulduzlarga termilib yotish yoqardi.
6. Yostig‘ini urib to‘g‘riladi-yu unga boshini qo‘yib, uyquga ketdi.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *dag‘-dag‘, tap-tap, ship-ship, milt-milt, yal-yal, tars-turs.*

1. Badiiy uslub haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima uchun badiiy uslubdagi matnlarning ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi?
3. Sizningcha, ta’sirchan nutq o‘zi nima uchun kerak?

Matnni o‘qing. Topshiriqlarni bajaring.

OQSAROYNING FAVVORALARI



(2-qism)

Biroz muddat o‘tib, saroy cho‘qqisida qabulgoh sahnidan avval eshikog‘asi, keyin mehmon bo‘y ko‘rsatdi. Klavixo avvaliga atrofni kuzatdi. So‘ng pastga qaradi. Ajib go‘zallikdan, betakror shahar va maftunkor tabiat uyg‘unligidan ko‘zlari qamashdi. Ko‘rganlarini tafakkur qilishga ulgurmay, elchini qabulgohning ichki xonasiga olib o‘tishdi. Bu yerda Ispaniya elchisi Klavixoni rasmiy kutib olish marosimi uchun barcha tadorik ko‘rilgan. Davra to‘rida kishi bo‘yi barobar oltin taxt turibdi. Sohibqiron Amir Temur bir qo‘lini taxt suyanchig‘iga qo‘yib, ikkinchi qo‘li bilan tizzasiga kaft bosgan. Elchi taxtga yaqinroq borish maqsadida oldinga qadam bosdi. Oyog‘i cho‘g‘ gilamga yetishi hamon o‘rtadagi hovuz ichidan o‘nlab favvoralar otilib chiqdi. Bir tekis ko‘kka intilayotgan billur tomchilar qoshida elchining avvaliga xayoli qochdi. So‘ng tanasiga singa boshlagan hayajon bilan davra to‘ridan mehmonga ko‘z uzmay razm solib turgan Sohibqironga qaradi. Buyuk Temur xushnud kayfiyatda mehmonni kuzatar, uning jilovlashga harchand urinsa-da, toshib

borayotgan hissiyotlaridan zavq tuyardi. Klavixo hovuz o‘rtasida miltillab raqs tushayotgan qizil olmalarning favvora tomchilari orasida yanada chiroy ochib borayotganiga biroz termildi. Keyin oldinga to‘rt qadam tashlab, ispancha tavoze bilan ta’zim qildi. Shu onda elchining harakatlariga mutanosib ravishda bir tekisda suv taratib turgan favvoralar ilkis bosh ko‘tardi-yu, yanada balandroq otila boshladi.

Klavixo shu vaqt Oqsaroy darvozasi peshtoqiga oltin harflar ila bitilgan Sohibqiron so‘zlarini yodga oldi va vatanparvarlik hamda katta g‘urur bilan aytilgan bu kalomning to‘g‘ri ekaniga ishondi. Shu bois favvoralarning betakror jilvasiga termilib, Temur so‘zlarini yana bir bor xayolidan o‘tkazdi: “Kimki bizning qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan binolarga boqsin”. Elchi va sayyoh Klavixo yutinib qo‘ydi.

Farhod Eshmo‘minov

1. Klavixoni nimalar hayratga soldi?
2. Klavixoning Amir Temur qudratiga tan berishiga nimalar sabab bo‘ldi?
3. Klavixo qaysi so‘zlarning to‘g‘ri ekaniga ishondi?
4. Ayting-chi, yozuvchi ***“Klavixo yutinib qo‘ydi”*** deyish bilan nima demoqchi?

Matndan badiiy uslubga xos bo‘lmagan gaplarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

Quyidagi birliklarni qo‘shgan holda ko‘chirgan gaplaringizni badiiy uslubga moslang.

ko‘z qiridan o‘tkazdi, savlat to‘kib, o‘z sohibining qudratini yaqqol ko‘rsatib, yastanib yotgan, o‘z jilosini, tarata boshladi, naqadar haqligiga, ming karra iqror bo‘ldi.

Quyida badiiy uslubdagi kichik matn berilgan. Siz uni badiiy bo‘lmagan uslubga aylantirib, qayta yozing.

Do‘stlarim: “Juda siqilib ketdingiz, aylanib kelamiz”, – deb tog‘ga sudrashdi. Allamahalgacha o‘tgan-ketgandan gaplashib o‘tirdik. Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag‘rur qad kerib turgan tog‘larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko‘rganda hayot abadiy emasligini o‘ylayman. Qorong‘i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o‘xshaganlarning necha-nechasini ko‘rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo‘q...

Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin joyda daryo shovullaydi. Bir mahal qulog‘imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: “Haq-qu, haq-qu...” Bir zum sukunat tushdi-da, ancha olisdan yana o‘sha tovush takrorlandi: “Haq-qu, haq-qu...”

O‘tkir Hoshimov, “Haqqush” novellasi, “Dunyoning ishlari” qissasidan

Novellaning davomiga qiziqib qolgan bo‘lsangiz, uni berilgan havola yordamida o‘qishingiz mumkin.

To‘liq hikoya uchun havola

Taqlid so‘zlar hamda badiiy uslub o‘rtasida qanday munosabat bor?

Guruhlarga bo‘lining. Shu paytgacha siz uchratgan taqlid so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling. Umumiylikni aniqlab, qoida yarating.

1. Qoida matnini tayyorlang.

2. Qoidaga mos ikkita misol toping.

3. Qoidani boshqa guruh a’zolariga tushuntiring.

4. Qoidani tushunganliklarini aniqlash uchun bitta topshiriq o‘ylab toping.

Taqlid so‘zlardan turli qo‘shimchalar orqali fe’l yasash mumkin: *shildir**a**, jiring**la**, ho‘ng**ra**, yarq**ira**, g‘iz**illa**, shov**ulla***. Bunday fe’llar holat yoki tovushga aloqador harakat-holatni ifodalaydi. Bir holatni ta’sirli ifodalashda taqlidlar fe’llardan ko‘ra biroz ustun sanaladi. Qiyoslang: *ho‘ngrab yig‘lamoq – ho‘ng-ho‘ng yig‘lamoq, lapanglab yura ketdi – lapang-lapang yura ketdi.*

Narsalar va hayvonlar chiqaradigan tovushni ifodalovchi so‘zlarni yozing. Ba’zi narsalar bir necha xil tovushga ega bo‘lishi mumkin.

Namuna *Telefon jiringlaydi.*














“Hayvonot bog‘iga sayohat” nomli matn yozing. Unda badiiy uslub hamda taqlid so‘zlardan foydalaning. Joyni tavsiflash qoidalariga amal qiling.

O‘quvchilar yozgan matn tahlili.

KONSTITUTSIYA – BOSH QOMUSIMIZ

Bu mavzuda o‘rganamiz

• qonunlarning jamiyatdagi o‘rni • insonning huquq va burchlari • sohaga oid til birliklari • fe’llarning munosabat shakli • huquqiy mazmundagi matnni tushunish.

1. Huquq deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, odamlarning qanday huquqlari bor?
3. Odamlarning huquqlari himoyalanganmi? Nimalar bilan?

Tasavvur qiling, siz shifoxonaga bordingiz. Shifokorlar sizni davolashdan bosh tortdi.

1. Ularning bu ishi to‘g‘rimi?
2. Bunday paytda sizning qaysi huquqingiz buzilmoqda?
3. Sizning huquqlaringizni qaysi hujjat himoya qiladi?

Quyidagi so‘zlarning izohini ayting. Bu so‘zlarni qayerda uchratgansiz?

qonun | burch | xalq | jamiyat | hokimiyat | fuqarolik | huquq | sud | modda

Yuqoridagi so‘zlarni lug‘atdan toping. O‘zingiz aytgan izoh bilan qiyoslab ko‘ring.

Quyidagi ikki moddani o‘qing. Ushbu moddalar mazmunini qisqacha tarzda daftaringizga yozing.

15-modda

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

16-modda

Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Quyidagilarni huquq va burchga ajratib yozing.

yashash	tibbiy xizmatdan foydalanish	soliq to‘lash
shaxsiy daxlsizlik	so‘z erkinligi	turarjoy daxlsizligi
axborot izlash	qonunga rioya etish	madaniy merosni asrash
bilim olish	mehnat qilish	kasb tanlash
atrof-muhitni ifloslantirmaslik	bepul umumiy ta’lim	axborot olish
erkinlik	boshqalarni hurmat qilish	dam olish

Huquqlarim	Burchlarim

Yuqoridagi tushunchalar hamda Konstitutsiya moddalarini moslashtiring.

Namuna: yashash huquqi – 24-modda



24-modda

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

25-modda

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

27-modda

Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turarjoyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turarjoyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

37-modda

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

40-modda

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

48-modda

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

49-modda

Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

50-modda

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.

51-modda

Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar.

Konstitutsiya moddalarini o‘qib, nimalarni tushundingiz? Qanday xulosalar chiqardingiz? Buni sinfda muhokama qiling.

Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Soliq nima?
2. Odam qanday hollarda soliq to‘lashi kerak?
3. Siz hozir soliq to‘lash majburiyatini bajaryapsizmi? Nega?

1. Konstitutsiya qanday hujjat?
2. Konstitutsiyada nimalar aks etadi?

QONUN IJODKORLIGI

Qonun davlat **hokimiyat**ining maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo‘lmish qonun hokimiyatning alohida **vakolatli organi** tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi.

Qonun ijodkorligi (qonunni yaratish) jarayoni – davlat oliy vakillik organining konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga



qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig‘indisidir. Qonun yaratish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- qonun bilan belgilanishi kerak bo‘lgan vaziyatni aniqlash;
- qonun loyihasini tayyorlash;
- qonun loyihasini muhokama etish;
- qonunni qabul qilish.

U yoki bu qonunning yaratilishiga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish qonunchilik jarayonining boshlang‘ich nuqtasidir. Bordi-yu, qonunga ehtiyoj bo‘lmasa, qonun chiqaruvchi tartibga solish ro‘y bermaydi, qabul qilingan qonun ishlamaydi, u amaldagi huquqiy tizimga singishib ketolmaydi, natijada qonun obro‘sizlanadi yoki umuman bajarilmaydi. Masalan, “Hamma kirlarni kirsovunda yuvsin!” degan mazmunda qonun ishlab chiqilsa, u ehtiyojni hisobga olmagan qonun hisoblanadi. Chunki kimdir kir yuvish kukunini afzal ko‘rsa, yana kimdir boshqa turdagi tozalash vositasini xush ko‘radi. Bundan tashqari, kirni sovunda yoki kukunda yuvish xalqqa foyda ham, zarar ham keltirmaydi. Natijada bu qonun xalq orasida obro‘sizlanib qoladi va qonun chiqarganlarning adolatli emasligini anglatadi.



Qonun loyihasini tayyorlash biror qonunga ehtiyoj borligi aniqlangandan so‘ng **qonun loyihasi** ishlab chiqish, ya’ni qonunning matnini yozishdir.


Qonun loyihasini muhokama etish jarayoni ham juda muhim bo‘lib, unda qonun chiqaruvchi tashkilotlar qonun matnini muhokama qilishadi. Qonun matnini **birinchi o‘qish**da o‘zgarishi kerak bo‘lgan o‘rinlar aniqlanadi. Takliflar aytiladi. Kerakli o‘rinlar o‘zgartirilgach, qonun **ikkinchi o‘qish**ga yuboriladi. Barcha qonun matni to‘g‘ri bo‘lganiga ishonch hosil qilgach, qonun **uchinchi o‘qish**ga kiritiladi. Bu bosqich “qonunni qabul qilish” deb nomlanadi.

Qonunni qabul qilish jarayonida qonun loyihasi muhokama etilib, so‘nggi ko‘rinishga keltiriladi va **ovoz berish** boshlanadi. Qonun chiqaruvchi tashkilot a’zolari knopka bosish yo‘li bilan qonunga ovoz berishadi. Natijada qonun **tasdiqlanadi** yoki **rad etiladi**. Tarafdorlar soni ko‘p bo‘lgan holatda qonun qabul qilinadi.

“Davlat va huquq nazariyasi” kitobidan

1. Qonun ijodkorligi jarayoni yana qanday nomlanadi?
2. Biror qonunni bekor qilish ham qonun yaratishga kiradimi?
3. Qonun yaratishda birinchi bo‘lib nimani hisobga olish zarur?
4. Agar qonunga ehtiyoj bo‘lmasa, nima bo‘ladi?
5. Ikkinchi o‘qish deganda nimani tushundingiz?
6. Qonun yaratishning so‘nggi bosqichi qanday tashkil etiladi?
7. Ehtiyoj bo‘lmagan qonunga bitta misol ayting.

Xattaxtaga “Qonun yaratish” chizmasini chizib, matnga tayangan holda to‘ldiring.



Guruhlarga bo‘lining. Matnda ostiga chizilgan birliklardan “Qonun yaratishning kichik izohli lug‘ati”ni tuzing.

- birliklarni alifbo tartibida joylashtiring;
- har bir birlik uchun izoh yozing, izohda o‘sha birikma nimani anglatishi aniq bo‘lishi lozim;
- izohni qayta o‘qing, kerakli o‘rinlarni tahrirlang;
- oq qog‘ozga lug‘atning yakuniy holatini ko‘chiring.

Namuna *Ehtiyojni o‘rganish – qonunning zarur ekanini aniqlash jarayoni.*

Gaplarni davom ettirib yozing. Fikringizni asoslang.

Konstitutsiya va qonun matnlarida undov belgisi ishlatilmaydi, chunki…
Asos: _____

Konstitutsiya va qonun matnlarida so‘roq belgisi ishlatilmaydi, chunki…
Asos: _____

Konstitutsiya va qonun matnlari badiiy uslubda yozilmaydi, chunki…
Asos: _____

1. Qonunlar nima uchun kerak?
2. Agar qonunlar bo‘lmasa, nima bo‘ladi?

Guruhlarga bo‘lining. “Maktab qoidalari” loyihasini ishlab chiqing va taqdimot qiling. Qoidalar ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchilar uchun ishlab chiqilishi lozim. Qoidalarni ishlab chiqishda quyidagilarga diqqat qiling.

- *Bu qoida bizga nima beradi?*
- *Bu qoida keraklimi?*
- *Bu qoidaga amal qilishning imkoni bormi?*
- *Bu qoidaga amal qilinmasa, qanday jazo kutadi?*

Boshqa guruhlarning taqdimotini tinglang. Quyidagilarga diqqat qiling.

- *Qaysi qoidalar sizniki bilan o‘xshash?*
- *Qaysi qoidalar sizda uchramaydi?*
- *Qaysi qoidalar kerakli va amal qilishini lozim?*

Barchaning qoidalari asosida “Maktab qoidalari” kitobini yozing. Kitob quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim.


- *Kirish.*
- *O‘quvchilar amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalar.*
- *O‘qituvchilar amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalar.*
- *O‘quvchilarning huquqlari.*
- *O‘quvchilarning burchlari.*
- *O‘qituvchilarning vazifalari.*

“Oiladagi qoidalar” kitobini tayyorlang. Qoidalarni ishlab chiqishda oila a’zolaringiz bilan maslahatlashing. Kitobni barchaga o‘qiting va unga amal qilishlarini so‘rang.

bolahuquqlari.uz **saytida e’lon qilingan ushbu tasvirlarga diqqat qiling. Savollarga qisqa javob yozing.**




Fuqarolarning burchlari
Tarixiy merosni avaylash
Qonunga itoat
Atrof-muhitni asrash
Harbiy xizmatni o‘tash
Soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lash


FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQLARI
Yashash
Shaxsiy daxlsizlik
Fikrlash, e’tiqod, vijdon va so‘z erkinligi
Ma’lumot olish erkinligi
Himoyalanish
Turarjoy daxlsizligi



1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. Konstitutsiyamizda nechta modda mavjud?
3. Tarixiy merosni avaylash huquqmi, burchmi?
4. Bilim olish huquqmi, burchmi?

Guruhlarga bo‘lining. Har bir guruh o‘zi uchun bitta tasvirni tanlasin va uni matnga aylantirib yozsin. Oxirida barcha yozilganlarni birlashtirib, “Konstitutiya – bosh qomusimiz” matnini yarating.

“Konstitutsiya – bosh qomusimiz” matnidan quyidagilarni topib, jadvallarga joylashtiring. Yo‘q bo‘lsa “–” belgisini qo‘ying.

Fe’llar	O‘tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs		
II shaxs		
III shaxs		

Konstitutsiyaning 24-, 25-, 27-, 40-, 41-, 50-, 51-moddalarini yod oling.

DAVLATNI KIM BOSHQARADI?

Bu mavzuda o‘rganamiz


• *O‘zbekistonning davlat boshqaruvi* • *sohaga doir atamalarni aniqlash* • *atamalar yordamida lug‘at tuzish* • *murojaat xatlari* • *qisqartmalar imlosi.*

1. O‘zbekiston Respublikasida hokimiyat nechta turga bo‘linadi?
2. “To‘rtinchi hokimiyat ham bor”, deyishadi. U qaysi hokimiyat?
3. Sizningcha, davlatni kim boshqaradi?

Quyidagi infografikalarga qarang. Ular asosida berilgan gaplarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.



PREZIDENT



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT BOSHLIG'IDIR

Prezidentlikka saylanadigan shaxs:

- **35** yoshdan kichik bo‘lmasligi
- saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan bo‘lishi
- davlat tilini yaxshi bilishi
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi kerak



Bir shaxs 2 muddatdan ortiq Prezident bo‘lishi mumkin emas.

Vazirlar Mahkamasi

Vazirlar Mahkamasi **ijro etuvchi hokimiyatdir.**

U Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat.

Vazirlar Mahkamasini **Bosh vazir** boshqaradi.



Oliy Majlis hamda Parlament tushunchalari bir xil.	Oliy Majlis 2 ta palatadan iborat.
Yuqori palatani spiker boshqaradi.	Quyi palatada ishlaydiganlar deputatlar deyiladi.
Har ikki palata a'zolarining vakillik muddati 5 yil.	30 yoshli shaxs Prezident sifatida saylana olmaydi.
Bir odam 4 marta Prezident sifatida saylanishi mumkin emas.	Prezident davlat tilini bilishi shart.
Chet el fuqarolari ham O‘zbekiston Prezidenti bo‘la oladi.	Vazirlar Mahkamasi – qonunlar ishlab chiquvchi tashkilot.
Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi boshlig‘i hisoblanadi.	Bosh vazirning o‘rinbosarlari ham bor.

Infografikalarda quyidagi so‘zlar nega bosh harf bilan yozilgan deb o‘ylaysiz?

Oliy Majlis **Prezident** **Bosh vazir** **O‘zbekiston Respublikasi**

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.*

Nega quyidagi birikmalar tarkibidagi barcha so‘z bosh harf bilan boshlanmayapti?

Bosh vazir **Yozuvchilar uyushmasi** **Mudofaa vaziri** **Bosh vazirning o‘rinbosari**

Quyi sinflarda o‘rganganlaringiz, o‘z shaxsiy kuzatishlaringiz asosida bosh harflar imlosiga oid quyidagi ma’lumotlarni yozib keling.

Tarkibidagi barcha so‘zlari bosh harf bilan yoziladigan birliklar: davlat nomlari.

Tarkibidagi birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladigan birliklar: bayram nomlari.

1. Davlatni Prezident boshqarishi ma’lum, lekin hamma qarorni uning o‘zi chiqaradimi?
2. Prezidentga kimlar yordam beradi deb o‘ylaysiz?
3. Prezident ham kimgadir hisobot beradimi?

Quyidagi testlar bilan tanishib chiqing. Daftaringizni olib, 1 dan 7 gacha raqam qo‘ying.

1. To‘g‘ri javobni toping.
Germaniya parlamenti qanday nomlanadi?
A) Reyxstag **B)** Seym **C)** Bundestag **D)** Oliy Majlis

2. To‘g‘ri javobni toping.
Erkinlikning buyuk xartiyasi qirolga nima qilishni taqiqlab qo‘yar edi?
A) Kengash ruxsatini olmasdan yangi soliq joriy qilishni
B) Parlamentning qarorlarini bekor qilishni
C) Uzoq yil taxtdan tushmay qirollik qilishni
D) Kambag‘allardan soliq to‘lovlarini olishni

3. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Yevropada demokratik tamoyillarning rivojlanishida musulmon davlatlarining ta’siri bo‘lgan.
A) to‘g‘ri **B)** noto‘g‘ri

4. To‘g‘ri javobni tanlang.
Davlat hokimiyati alohida guruhlar yoki yakka shaxsning qo‘liga o‘tib qolishining oldini olishda qaysi omil muhim?
A) Parlamentning saylov asosida shakllanishi
B) Parlamentning qonun chiqarishda qatnashishi
C) Parlamentning bir necha palatadan iborat bo‘lishi
D) Parlamentning boshqa organlardan mustaqil bo‘lishi

5. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Parlamentning asosiy vazifasi – qonunlarni prezidentga tasdiqlatish.
A) to‘g‘ri **B)** noto‘g‘ri

6. To‘g‘ri javobni toping.
O‘zbekistonda hokimiyat necha turga ajratiladi?
A) 2 **B)** 3 **C)** 4 **D)** 5

7. To‘g‘ri javobni toping.
Qonunlar qayerda ishlab chiqiladi?
A) Senatda **B)** Quyi palatada **C)** Yuqori palatada **D)** sudda

Audiomatnni bir marta tinglang. Tinglab bo‘lgach, test savollarini yana bir marta o‘qing.

Audiomatnni ikkinchi marta tinglang. Tinglash jarayonida daftaringizga test javoblarini belgilang.

Quyidagilardan qaysi biri bosh harf bilan yozilishi kerak? Nega?

bundestag, rais, seym, oliy majlis, vazir, prezident, reyxstag, rim, oqsoqol, qonun, hokimiyat, hukumat.

Quyidagi ma’lumotlarni o‘qing va jadvalning mos ustuniga joylashtiring.

Prezident	Oliy Majlis	Vazirlar Mahkamasi

1. *O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.*

2. *Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.*

3. *Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tayinlaydi va ishdan bo‘shatadi.*

4. *Kamida 10 yil mamlakatda muqim yashagan bo‘lishi shart.*

5. *Quyidagicha qasamyod qiladi: “O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman”.*

6. *Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqiga ega.*

7. *Yuqori va quyi palatalardan iborat.*

8. *Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.*

9. *Vazifasini bajarishga saylov natijasiga ko‘ra kirishadi.*

10. *Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.*

11. *Vakolat muddati 5 yil.*

12. *Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.*

13. *Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi.*

14. *Saylanmaydi, tayinlanadi.*

15. *Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish huquqiga ega.*

Kattalar yordamida xalqaro tashkilotlarning nomini yozib keling (kamida 6 ta).

1. Qisqartmalar nima?
2. Qisqartmalar bizga nima uchun kerak?
3. Qanday qisqartmalarga ko‘zingiz tushgan? Qayerda?

Quyidagi qisqartmalar nimani anglatishini aytib bering.

TV	AQSH	O‘zLiDep	XTV	OTM
VM	FVV	XDP	FHDY	IDUM

Tarkibli nomlarning ilk harfidan iborat qisqartmalar bosh harf bilan yoziladi: **AQSH** (Amerika Qo‘shma Shtatlari), **BMT** (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), **AES** (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: **ToshDTU** (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Siz uyda yozib kelgan xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomi qanday bo‘ladi? Yuqoridagi qoida asosida yozing.

DAVLATNING BOSHLIG‘I KIM?

“Shu ham savolmi? Davlatni Prezident boshqaradi-da”, – dersiz. Bir qarashda shunday ko‘rinishi – bor gap. To‘g‘ri-da, barcha manbalarda ham davlat boshlig‘i sifatida Prezident ko‘rsatiladi. Prezident hammaga – hokimlarga, vazirlarga, tashkilot rahbarlariga buyruq beradi. Aslida ham shundaymi? Davlatni to‘liq Prezident boshqaradi deyishimiz to‘g‘rimi?

Buning javobini bilish uchun bir necha qo‘shimcha savollarni berib ko‘ramiz.

Savol. Davlat qanday boshqariladi?
Javob. *Qonunlar va qonunosti hujjatlari orqali.*
Savol. Qonunlarni kim tasdiqlaydi, kimlar ishlab chiqadi?
Javob. *Qonunlarni parlament ishlab chiqadi va Prezident tasdiqlaydi.*
Savol. Parlament a'zolarini kim saylaydi?
Javob. *Parlament a’zolarini xalq saylaydi.*
Savol. Prezidentni kim saylaydi?
Javob. *Prezidentni ham xalq saylaydi.*
Savol. Qonunlarning bajarilishini kim nazorat qiladi?
Javob. *Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi*

Xo‘sh, yuqoridagi savol-javobdan xulosa qilsak, davlatni kim boshqarar ekan? Albatta, xalq. Yana ham aniqroq aytsak, xalq o‘z ichidan saylab qo‘ygan vakillar orqali davlatni boshqaradi.

Jarayon mana bunday kechadi: xalq saylovlarga borib, Parlament a'zolari – deputatlarni saylaydi. Xuddi shu xalq saylovlarga borib, Prezidentni ham saylaydi. Parlament hamda Prezident o‘zaro maslahatlashgan holda Vazirlar Mahkamasi boshlig‘i – Bosh vazirni tayinlaydi. Mana shu uchta organ davlatni birgalikda boshqaradi. Mantiqan o‘ylab qaraganda, davlatni xalqning o‘zi boshqaradi, boshqaruvchilar kim bo‘lishini xalqning o‘zi hal etadi. Aynan mana shu holat “demokratik boshqaruv” deyiladi. Ya’ni xalq davlatni boshqarishda qatnashadi. Davlat boshqaruvining yana boshqa turlari ham bor (masalan, monarxiya), ularda davlatni boshqaradigan odamlarni xalq saylamaydi, aksincha, ular hokimiyatni meros qilib oladi. Shuning uchun bu holatda davlatni boshqarishda xalq bevosita qatnashadi deb bo‘lmaydi.

Hoshimjon Ayoziy

1. O‘zbekiston demokratik davlatmi?
2. Ushbu matn orqali muallif nima demoqchi?
3. Muallif “Davlatni xalq boshqaradi” degan fikrini qanday isbotlamoqchi bo‘lgan? Matndan ko‘rsating.
4. Sizningcha, muallifning fikrlari to‘g‘rimi? Nega?
5. Prezidentning yana qanday huquqlarini bilasiz?

Sinf majlisi tashkil eting. Unda avvalgi mavzularda ishlab chiqilgan “Maktab qoidalari” asosida “Sinf qoidalari”ni yozing. Qoidalarni qo‘l ko‘tarib ovoz berish yo‘li bilan tasdiqlang yoki ayrim o‘rinlarga o‘zgartirish kiriting.




Prezidentga murojaat xati yozing. Unda:

- *Prezidentga biror masala yuzasidan murojaat qiling.*
- *Muammoning yechimini o‘zingiz taklif eting yoki qonunchilik ixtiyoriga qoldiring.*
- *Rasmiy uslubda yozing.*

Murojaat xatlari tahlili va tahriri.

Quyidagi rasmga diqqat qiling. Unda nima tasvirlangan bo‘lishi mumkin? Taxminlaringizni ayting.




Nima deb o‘ylaysiz, hukumat tashkilotlariga murojaat qilganimizda o‘zimiz haqimizdagi qanday ma’lumotlarni so‘rashadi? Nima uchun so‘rashadi?

Tasavvur qiling: maktabingizga prezident keldi. U bilan suhbatlashish, unga savollar va takliflar berish imkoniyatingiz bor.

- *Prezidentga qanday murojaat qilasiz? Gapni nimadan boshlaysiz?*
- *Qanday savollar berasiz? Nimalarni so‘raysiz?*
- *Qanday takliflaringiz bor?*
- *So‘zingizni qanday yakunlaysiz?*

Prezidentning rasmiy vebsaytidan olingan rasmga qarang. Rasm asosida quyidagi savollarga javob bering.



1. Veb-saytning qanday sahifalari bor?
2. Prezidentga murojaat yo‘llashning nechta uslubi bor?
3. Qaysi raqamlarga qo‘ng‘iroq qilish orqali murojaat yo‘llash mumkin?
4. Virtual qabulxonaga murojaat yo‘llash qaysi usulda amalga oshiriladi?
5. Sizningcha, bu bo‘limga yana qanday qo‘shimchalar qo‘shish kerak?

O‘Z DEPUTATINGIZNI BILASIZMI?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• *xalq saylagan deputatlarning majburiyatlari, ularning yurt taraqqiyotidagi o‘rni* • *saylovning ahamiyati* • *muhokama matni yozish* • *tanqidiy fikrlar* • *fikrni izchil ifodalash* • *so‘z turkumlarini farqlash.*

1. Sizningcha, deputat kim?
2. Davlatda deputatlarning bo‘lishi yoki bo‘lmasligi nimalarni o‘zgartirishi mumkin?
3. Birorta deputatni taniysizmi?

“Deputat kim?” nomli nutqni tinglang. Savollarga javob bering.


1. Hokimiyat nechaga bo‘linadi?
2. Qanday darajadagi deputatlar bor?
3. Qanday deputatlar oylik olib ishlaydi?
4. Jamoatchilik asosida ishlashni qanday tasavvur qilasiz?
5. Deputatlikning asosiy talabi qanday ekan?
6. Deputatlar kimning vakili?
7. Deputatlar kim uchun ishlashi kerak?

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “deputat” so‘ziga berilgan izoh bilan tanishing, audiomatndan olgan ma’lumotlaringiz bilan uyg‘unlashtiring hamda “Deputat kim?” degan savolga javob yozing.

DEPUTAT

1. Vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.
2. Jamoa (guruh), tashkilot biror topshiriqni bajarish uchun vakil qilgan shaxs.

“Deputat” so‘ziga bog‘liq so‘zlarni xattaxtada yozib chiqing. Yozgan so‘zlaringizni ot, sifat hamda fe’lga ajrating.



Quyidagi so‘rovnomaga oila a’zolaringizning javobini yozib keling.

1. Ism, familiyangiz nima?
2. Biror marta deputatlarni saylashda qatnashganmisiz?
3. Hududingizdan saylangan biror deputatni taniysizmi? U kim?
4. O‘zbekistondagi birorta deputatni taniysizmi? U kim?
5. Deputatlar tufayli hal qilingan biror muammoni bilasizmi? U qaysi?

1. Oilangizdan kimlar deputatlarni saylashda qatnashgan ekan?

2. Oila a’zolaringiz deputatlardan kimlarni tanir ekan?

3. Televizorda saylov jarayonini ko‘rganmisiz? U qanday bo‘ladi?

SAYLOV NIMA?

Saylov — shaxsni deputatlikka, biror tashkilot a’zoligiga yoxud mansabga **ochiq** yoki **yopiq** shaklda ovoz berish yo‘li bilan saylash.

Kishilarning birlashmasi **jamiyat** deb nomlanadi. Jamiyat bo‘lib yashash odamlarga ko‘plab qulayliklar **keltiradi.** Zero, jamiyatda odamlar birlashib, o‘z hayotiy muammolarini **hal qilishadi.**

Jamiyat qanchalik jips bo‘lsa, shunchalik **muvaffaqiyatli** bo‘ladi. Tarqoq bo‘lsa – muvaffaqiyatsiz.

Jamiyatni haqiqiy jamiyat qiluvchi omillardan biri – hayotiy qarorlarni ko‘pchilik bo‘lib **qabul qilishdir.** Buning yaxshi tarafi shundaki, qarorlar qabul qilishda yakka shaxslar yoxud jamiyatning **ba’zi** guruhlari emas, balki hamma bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Ko‘pchilikning aqliy salohiyati ishga solinadi.

Bu narsani ro‘yobga chiqarish vositalaridan biri saylovdir. Bunda kishilar ichlaridan eng salohiyatlilarini saylab olishadi va ularga qarorlar qabul qilishni ishonib topshirib, ulardan kengash tuzishadi. Ammo ish **shu** bilan tugamaydi – saylaganlar saylanganlardan qabul qilingan qarorlar bo‘yicha hisobot so‘rab turishadi, faoliyatlarini kuzatib borishadi.

Shu tarzda ba’zilargina emas, balki hamma jamiyat ishlarida, qarorlarni qabul qilishda qatnashadi va barchaning manfaati inobatga olinadi.

Demak, saylov – muhim va kerakli hodisa.

Saylov kuni va maqsadi **avvaldan** belgilab qo‘yiladi va maxsus saylov joylari tashkil etiladi. Ular “saylov okrugi” deb nomlanadi. Odamlar saylov bo‘ladigan kuni shu okruglarga o‘z pasportlari bilan kelib, o‘zlari tanlagan nomzodga ovoz berishadi.

Nomzodlarning ismi yozilgan qog‘oz “byulleten” deb ataladi. Saylov okrugida alohida xonalar ajratiladi. Saylovchilar o‘sha xonaga kirib, o‘z nomzodining ismi oldiga kerakli belgini qo‘yadi va chiqib, **tashqarida**, **hamma**ga ko‘rinarli joyga qo‘yilgan saylov qutisiga byulletenni tashlaydi. **Bir** kishi faqat bir marta ovoz berish huquqiga ega hisoblanadi.

Saylov okrugida **nomzodlar** haqidagi ma’lumotlar maxsus taxtaga ilib qo‘yilgan bo‘ladi. Nomzodlarni **yaxshi** tanimagan saylovchilar **o‘sha** ma’lumotlar bilan tanishib, **keyin** ovoz berishlari mumkin.

Eng **ko‘p** ovoz olgan nomzod saylovda g‘olib bo‘lgan hisoblanadi.

kun.uz saytidan

1. Saylov nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?
2. Jamiyatning muvaffaqiyatida saylovning o‘rni qanday?
3. Nima deb o‘ylaysiz, nega byulletenlarni tashlash qutisi hammaga ko‘rinadigan joyda bo‘lishi kerak?
4. Nomzodlarni tanimagan saylovchi uchun qanday qulaylik joriy qilinadi?
5. Nomzodlar haqida ma’lumot beradigan qog‘ozda nimalar aks etar ekan?

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l	Ravish

Saylovoldi dasturi – nomzod muammolarni va ularga o‘z yechimlarini ko‘rsatadigan hujjat. Ya’ni nomzod hududdagi muammolarni aniqlaydi va ularni yechish uchun nimalar qila olishi yoki qanday qilib shu muammoni hal etish mumkinligi haqida ma’lumot tayyorlaydi va saylovchilarga yetkazadi.

Guruhlarga bo‘lining. Sinfdagi yoki maktabdagi bitta muammoni aniqlang va unga yechim taklif qiling.

O‘z yashash hududingizdagi muammolarni o‘rganing. Sizningcha, hududingizda qanday muammolar bor? Qanday o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur? Ulardan bittasini hal qilishga oid o‘z taklifingizni tayyorlang. Oila a’zolaringizga taqdimot qiling.

1. Siz hududingizdan deputat bo‘lib saylansangiz, qanday ishlarni amalga oshirasiz?
2. Sizningcha, hududingizdagi eng katta muammo qaysi?

MUQOBILLAR ICHIDAN MAQBULINI TANLASH

Deputatlarning yana bir muhim vazifasi bor – ular tanlov qilishlari kerak. Bu tanlov asosan davlatning pulini qayerga sarflash haqida qaror qabul qilish bilan bog‘liq. Iqtisodchilar mana shu jarayonlarda muqobillar ichidan maqbulini tanlay olish haqida gapirar ekan, shunday deyishadi: “Masalan, bir maktabda kitoblar yetishmaydi, lekin hokim shu tumanning futbol jamoasiga pul bermoqda. Mana shu payt deputatlar futbol jamoasidan ko‘ra maktabga kitob olish uchun pul berish maqbulroq ekanini hokimga uqtirishlari kerak”. Ya’ni futbol jamoasi va maktab uchun kitob muqobillardir, ulardan eng foydalisini tanlash esa muqobillar ichidan maqbulini tanlash bo‘ladi.

Guruhlarga bo‘lining. Tasavvur qiling, har biringiz tuman deputatisiz. Hokim ba’zi masalalarni o‘rtaga tashlamoqda. Siz ulardan maqbulini tanlashingiz, zarur o‘rinda hokimning xatosini tushuntirishingiz kerak. Bunda o‘qituvchingiz hokim rolini o‘ynaydi. Har bir guruh alohida deputatlar jamoasini tashkil qiladi va fikr bildiradi.



1 milliard so‘mga yo‘l chetiga gul ekish



1 milliard so‘mga maktablarga kompyuter olib berish



1 milliard so‘mga haykal o‘rnatish





1 milliard so‘mga kasalxona qurish



100 million so‘mga kutubxona qurish



50 million so‘mga favvora qurish

“Men deputat bo‘lsam” mavzusida matn yozing. Matnda deputatlik paytingizda amalga oshiradigan hamda yo‘l qo‘ymaydigan ishlaringiz haqida yozing.





1. Deputatlar haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Deputatdan nimalarni talab qilishingiz mumkin ekan?

Sinfda deputatlik saylovini tashkil qiling.

O‘ZLIDEP

O‘zbekiston XDP Xalq demokratik partiyasi

MILLIY TIKLANISH DEMOKRATIK PARTIYASI

ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

O‘EP O‘zbekiston Ekologik partiyasi

1. Sinfdan 5 kishini nomzod sifatida ajrating. Ular quyidagi 5 partiya nomidan ish yuritishadi.
2. Nomzodlar saylovoldi dasturini ishlab chiqishi uchun 15 daqiqa vaqt bering.
3. Bu vaqtda qolganlar ovoz berish qutisi, saylov byulleteni hamda ovoz berish uchun joy hozirlasin.
4. Nomzodlarga o‘z saylovoldi dasturi taqdimoti uchun 2 daqiqadan vaqt bering.
5. Ovoz berish jarayonini boshlang.
6. Ovozlarni sanang.

Saylov byulleteni namunasi


O‘ZLIDEP	
XDP	
MILLIY TIKLANISH	
ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI	
O‘EP	

O‘QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

1. Ko‘pmillatli davlat deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekistonda qaysi millat vakillari yashaydi?

Diagramma bilan tanishing hamda topshiriqlarni bajaring.

O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining etnik tarkibi (jami aholiga nisbatan % hisobida)



1. Diagramma sarlavhasidagi “doimiy aholi” nimani anglatadi?
2. Etnik tarkib deganda nimani tushundingiz?

Diagrammani izohlab bering. Nutqingiz kirish, asosiy qism hamda xulosadan iborat bo‘lishi lozim. Bir-biringizning nutqingizni diqqat bilan kuzating. Munosabat bildiring.

Imlo qoidalariga rioya qilgan holda O‘zbekistonda yashovchi millatlar nomini yozing.


Berilgan diagrammani xabar matni ko‘rinishida yozing. Sinfdoshingiz yozgan matnni tahrir qiling.

Darsligingiz asosida yil davomida o‘rganilgan olinma so‘zlarning izohli lug‘atini tuzing.

Namuna *pediatr – bolalar shifokori.*

Ushbu matndagi bo‘sh o‘rinlarni eng mos deb bilgan so‘zlaringiz bilan to‘ldirib, yozing.

RANGI QUV O‘CHDI



Bir qarashda … (shu, bu, mana shu) ibora bizga har jihatdan tushunarliday va uni izohlab o‘tirishga … (imkon, hojat, sabab) yo‘qday … (seziladi, ko‘rinadi, tuyuladi). Biroq bu iboradagi “quv” so‘zi qanday ma’noni … (anglatadi, izohlaydi, ko‘rsatadi)? Bizga “quv” so‘zining “ayyor” degan … (mazmuni, ma’nosi, izohi) ma’lum. Lekin bu iborada “quv” “ayyor” … (mazmuni, ma’nosi, izohi)da kelsa, … (hech qachon, aslo, umuman) mantiqqa to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni “rangi ayyor o‘chdi” deyish … (ahmoqlik, bema’nilik, xatolik) bo‘ladi. Ma’lumki, … (xalq, el, millat) iboralarida so‘zlar qattiq mixlanadi.

“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da “quv” so‘zi “oq-sariq” degan ma’noni anglatishi … (aytilgan, ta’kidlangan, ko‘rsatilgan). Boshqa manbalardagi izohlarda ham … (bu, shu, mana shu) so‘z shu ma’noga yaqin shaklda sharhlangan. Qumiqlar … (bilan, va) qirg‘izlar tilida “quv” – “oq” degan, xakaslar tilida esa “rangsiz” degan mazmunni bildiradi. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqqushning ham “quv” deb atalishi ko‘rsatib o‘tilgan. …(Nutqimiz, Tilimiz, Biz)da “Quv quv bilan uchadi, g‘oz g‘oz bilan ko‘chadi” degan … (naql, maqol, gap) bor. Bu ham “quv” so‘zining oq rangni ifodalashini … (dalillaydi, bildiradi, sharhlaydi).


Eshqobil Shukur, “Boboso‘z izidan” kitobidan



“Rangi quv o‘chdi” audiomatnini tinglang. Sizning tanlovingiz bilan muallif qo‘llagan so‘zlar o‘rtasida qanday farqlar uchradi? Munosabat bildiring.

Matndagi gaplar chegarasini, 4 ta xatboshini aniqlang, tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib, ko‘chiring.

“QARZ”NING “QAVOLA”SI NIMA



“Qarzi qavola” so‘zi ham tilimizda ko‘p ishlatiladi uning “qarz-qavola” shakli ham bor arabcha “qarz” so‘zining ma’nosi hammamizga ma’lum xo‘sh unda unga “qavola” so‘zi qanday qo‘shilib qolgan va bu so‘z qanday mazmunga ega “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da izohlanishicha “qavola” so‘zi asli “kafolat berdi” ma’nosini anglatgan “qarz” va “qavola” so‘zlari tilimizga arab istilosi davridan so‘ng kirib kelgan Mahmud Koshg‘ariy devonida qarz “alim” so‘zi bilan qarz beruvchi “alimchi” so‘zi bilan ifodalangan Koshg‘ariy “alim kech qalsa azaqlanur” ya’ni “kechikkan qarz oyoq chiqaradi” “alimchi arslan berimchi sichg‘an” ya’ni “qarz beruvchi arslon oluvchi sichqon” degan maqollarni keltirib o‘tadi xakas va qorachay-malkar tillarida “alim” so‘zi hozirgacha qarz ma’nosida keladi xullas “qarzi qavola” birikmasi “kafolat bilan olingan qarz” ma’nosini anglatadi.

Eshqobil Shukur,
“Boboso‘z izidan” kitobidan

1. Ayting-chi, matnni oson tushunishimizda tinish belgilarining qanday o‘rni bor?
2. Ushbu matn ustida ishlash jarayonida qanday tinish belgilaridan foydalandingiz?

“Rangi quv o‘chdi” hamda “Qarzning qavolasi nima?” matnlari asosida 3 tadan savol tuzib, yozing. Sinfdoshingiz tuzgan savollarga javob bering.

Iboralar lug‘atidan 10 ta iboraning izohini o‘rganing, daftaringizga yozib oling.

Oila a’zolaringiz davrasida ko‘pincha nimalar haqida suhbat bo‘ladi?

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.



– 1951-yilda Toshkentning **Eski shahar** qismida **dunyoga kelganman**. Men tug‘ilib o‘sgan ko‘chaning nomi “Hurriyat” bo‘lgan. Bolaligimdayoq **nega** endi shunday tor, boshi berk ko‘chaga “Hurriyat” nomini berishgan deb ajablanganman. Balki bu ham **taqdirningmi**, tarixningmi o‘yini bo‘lgandir. Bunga garchi bola aqlim yetmagan bo‘lsa-da, baribir, g‘alati tuyulgani aniq.

Oddiy **hunarmandning** kattagina, o‘rtahol oilasida **ulg‘aydim**. Men **to‘rtta** aka, to‘rtta opaning **erkatoy** ukasi edim. Ota-onam ziyoli qatlam vakili bo‘lishgan. Bizning oilada suhbatlarimizning asosiy mavzusi kitob o‘qish, bilim olish, ziyolilik, **tartib**, intizom bo‘lgan. Bu suhbatlar asnosida yaxshi odam bo‘lish sirlarinigina emas, dunyoni anglashga, **ma’rifat**ni tushunishga ham **intilganmiz**. Ota-onamiz shunga da’vat qilishgan. “Pul top, boylik, kiyim-kechak orttir, hashamatga intil”, degan gaplar umuman bo‘lgan emas. “Birovning haqqiga xiyonat qilma, behuda olishma, tortishma, yoqalashma”, deb bot-bot **takrorlashardi**.

Albatta, insonning hayotdagi har bir qilayotgan ishi orzu-havasiga bog‘liq. Lekin!.. **Orzu-havasning** amalga oshishi aqlning imkoniyati, jismoniy **sog‘lomlik** imkoniyati va moddiy imkoniyatga bog‘liq. Biri bo‘lmasa, qolgan **ikkita**sining kuchi yetmaydi. **Aqlli** bo‘lish bilan birga jismoniy **sog‘lom** ham bo‘lish kerak. Aytishadi-ku, sog‘lom tanda sog‘ aql, deb. Ammo bu ham odamning orzu-havasiga yetishi uchun kamlik qiladi. Orzuga to‘kis erishish uchun u ma’naviy quvvatga ham ega bo‘lishi kerak. Bizda ko‘pincha **ana shu** narsa **pand bergan**. Yanayam boshqacha inson bo‘lib voyaga yetishga imkoniyatimiz u qadar yaxshi bo‘lmagan. Ehtimol, bu borada moddiy **imkoniyat**imiz to‘sqinlik qilgandir. “Tomoqni yamab bo‘lmaydi”, deyishadi. Balki, otam bolalari sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, qora qozoni har kuni bekam-u ko‘st qaynashi uchun andarmon bo‘lib qolgandir, yana bilmadim. Endi o‘zimiz ota bo‘lib, farzand boqib, nabira o‘stirib, oila boshlig‘i mas’uliyatini his qilgach, ota-onam shuncha farzandning qornini to‘q, ustini but qilishni qanday qilib uddalagan ekan, deb **o‘ylab qolaman**. To‘g‘ri, **biz** kiyim-kechak, ovqat tanlamasdik, shohona sharoitlar tanlamasdik. Boriga **baraka** qilib ketaverar edik.

Baribir, o‘sha paytdagi sharoitni hisobga olsak, ota-onamga oson **bo‘lmagan ekan**.

Xurshid Do‘stmuhammad

1. Muallif nima uchun bolaligida ko‘chasining nomidan ajablangan?
2. O‘rtahol oila qanday bo‘ladi?
3. Muallifning ota-onasi nimaga da’vat qilgan? Nima uchun?
4. Ota-ona, bobo-buvilaringiz kelajakda sizdan nimalar kutishadi?

Matn asosida berilgan testlarni yeching.

1. *Muallif yashagan ko‘chaga aynan shu nom berilishining sababi nima?*
A) *Taqdirning o‘yini*
B) *Juda tor va eski bo‘lganligi*
C) *Tarixning o‘yini*
D) *Sababi aniq ko‘rsatilmagan*

2. *Muallif oilada nechanchi farzand?*
A) *Beshinchi*
B) *Sakkizinchi*
C) *To‘rtinchi*
D) *To‘qqizinchi*

3. *Matn asosida orzu-havasning amalga oshishiga bog‘liq bo‘lgan jihatlarni aniqlang. To‘g‘ri javob bir nechta bo‘lishi mumkin.*
A) *Moddiyat*
B) *Hashamat*
C) *Sog‘lomlik*
D) *Badavlat bo‘lish*
E) *Ma’naviyat*
F) *Aql*

4. *“Balki, otam bolalari sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, qora qozoni har kuni bekam-u ko‘st qaynashi uchun andarmon bo‘lib qolgandir, yana bilmadim”. Ushbu gapdagi “andarmon bo‘lmoq” iborasining matnda ifodalagan ma’nosini aniqlang.*
A) *Qiziqib ketmoq*
B) *Band bo‘lmoq*
C) *Shug‘ullanmoq*
D) *Yelib-yugurmoq*

Muallif oilasida qanday gaplar umuman bo‘lmaganini ta’kidlaydi? Yozing. Sizningcha, bu hozirgi zamon uchun qanchalik mos?

Muallifning ushbu matndan ko‘zlagan maqsadini yozing.

Berilgan parcha matnning qaysi turiga kiradi? Ushbu matn turiga xos belgilarni yozing.

Muallifning ushbu fikriga munosabat bildiring: *“To‘g‘ri, biz kiyim-kechak, ovqat tanlamasdik, shohona sharoitlar tanlamasdik. Boriga baraka qilib ketaverar edik”.* **Aytingchi, muallifning oilasidagi farzandlar nima uchun shunday bo‘lgan?**

Ota-onangiz sizga takror-takror aytadigan nasihatlari, yo‘l-yo‘riqlarini ro‘yxat shaklida yozib chiqing. Siz ularning o‘rnida bo‘lganingizda ushbu ro‘yxatga yana nimalarni kiritgan bo‘lardingiz? Ularni alohida yozing.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadval asosida so‘z turkumlariga taqsimlab, daftaringizga ko‘chirib oling.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l
?	?	?	?	?

Matnda qo‘llangan ko‘makchi, bog‘lovchi hamda yuklamalarni aniqlab, yozing.

3 guruhga bo‘lining. Berilgan rasmlar asosida tasviriy matn yarating. Tuzgan matningizda qaysi so‘z turkumidagi so‘zlar faol qo‘llanganiga e’tibor qarating.





Guruh bo‘lib tuzgan matningizni o‘qib bering.

Ta’tilda sevib o‘qigan kitoblaringizdan biri haqida ma’lumot tayyorlab keling. Ma’lumotingiz quyidagi qismlardan iborat bo‘lsin:

- *kitobning turi (ilmiy-ommabop, badiiy...);*
- *kitobning nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti, sahifasi, muqovasi (dizayni);*
- *muallifi (agar bor bo‘lsa);*
- *kitobning umumiy mavzusi;*
- *badiiy kitob bo‘lsa, undagi voqealar, asar qahramonlari haqida izoh;*
- *kitobning sizga yoqqan jihatlari;*
- *o‘zingiz uchun belgilab olgan qaydlardan namunalar.*

LUG‘AT

Agronom – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, uning qonun-qoidalari bilan shug‘ullanuvchi kasb egasi.

Akkaunt – ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchining hisobi.

Appendiks – ko‘richakning chuvalchangsimon o‘simtasi.

Appenditsit – appendiksning yallig‘lanishi.

Azza-bazza – rostakamiga, astoydil, ataylab.

Bitkoin – elektron pul birligi.

Bo‘z – bo‘sh pishitilgan paxta ipidan sodda to‘qilgan mato.

Botmon – Qadimda O‘rta Osiyoning, shuningdek, O‘zbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo‘lgan og‘irlik o‘lchov birligi.

Burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa.

Daxlsizlik – har qanday xavf yoki tajovuzdan himoya etilganlik.

Deputat – vakolatli davlat organiga saylangan kishi.

Diabet – qonda qand miqdorining ko‘payishi bilan bog‘liq kasallik.

Dinamika – harakat holati; o‘sish, rivojlanish.

Dovot – siyohdon.

Efir – osmonning radioto‘lqinlar tarqaladigan muhitining umumlashma nomi.

Etimologiya – so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

Etnik – kelib chiqish jihatidan biror xalqqa oid, mansub, xos bo‘lgan.

Fath etmoq – o‘ziga bo‘ysundirish, zabt etish, egallash.

Feldsher – o‘rta maxsus tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan tibbiyot xodimi, shifokor yordamchisi.

Fufayka – paxta solib qavilgan, oldi tugmalab qo‘yiladigan kalta kiyim, kurtka.

Fuqarolik – muayyan davlatning fuqarosi (grajdani) ekanlik.

Global – yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi.

Grimchi – maxsus bo‘yoqlar, yasama soch, soqol va shu kabilar yordamida aktyor qiyofasini o‘zgartiruvchi kishi.

Grossmeyster – shaxmat yoki shashka ustalariga beriladigan eng oliy unvon va shu unvonga ega bo‘lgan shaxmatchi yoki shashkachi.

Hanuz – shu vaqtgacha, hozirgacha, hamon.

Hashamat – dabdaba, savlat; ko‘tarinki, tantanali holat.

Hokimiyat – Davlat boshqarmasi va uning organlari; hukumat.

Huquq – davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo‘riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar, me’yorlar majmui.

Ilkis – kutilmaganda, to‘satdan.

Illyustratsiya – kitob, jurnal, gazeta va shu kabilardagi matnni, asar mazmunini tushunishga xizmat qiladigan rasm, surat.

Improvizatsiya – oldindan tayyorlanmasdan, lozim bo‘lgan paytning o‘zida she’r, kuy, musiqiy pyesa ijod etish.

Infografika – axborot va ma’lumotlarni uzatishning grafik usuli.

Informatsion – axboriy, axborotga oid.

Inqiroz – taraqqiyotda orqaga ketish, pasayish.

Internet – katta va kichik kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi.

Intervyu – matbuot, radio yoki televideniyeda berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o‘tkazgan suhbati va shu suhbatning matni.

Istibdod – jabr, zulm.

Ixtilof – kelishmovchilik, ziddiyat, nizo.

Jamiyat – biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy guruh.

Kadr – kinofilmning ayrim bir ko‘rinishi, qismi.

Kamin – devorga o‘yib ishlangan, keng, ochiq o‘tinxonasi bo‘lgan, xonani isitish uchun o‘rnatiladigan o‘choq.

Kirza – suv o‘tkazmaydigan, pishiq sun’iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim.

Konstruksiya – mashina, mexanizm, inshootning tuzilishi, qismlarining o‘zaro joylashuvi.

Konstruktor – mashina, mexanizm, inshoot va ularning ayrim qismlari loyihasini tuzuvchi mutaxassis.

Kriptovalyuta – raqamli valyutaning bir turi. Masofaviy xaridlar uchun mo‘ljallangan.

Maqbul – qabul qilsa, ma’qullasa bo‘ladigan, ma’qul keladigan.

Ma’sum – aybsiz, begunoh, sof.

Migratsiya – aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishi yoki ko‘chirish.

Misqol – 4,35–4,86 gramm oralig‘idagi og‘irlik o‘lchov birligi.

Modda – rasmiy hujjat, majmua, qonunning raqam yoki harf bilan ajratiladigan mustaqil bo‘limi.

Model – biror narsaning xuddi o‘zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan nusxasi.

Montaj ustalari – film, adabiy va musiqiy asarlar, rasm va shu kabilarning parchalarini tanlab olib, mazmun va badiiy jihatdan bir butun holatga keltirish bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari.

Muqobil – javob bo‘luvchi, javoban amalga oshirilgan.

Novator – kishilik faoliyatining biror sohasida yangilik kirituvchi odam.

Onlayn – internet tarmog‘i orqali ishlash.

Operator – filmni suratga oluvchi kishi.

Parlament – demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov orqali tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

Paykal – marza, ariq, yo‘l kabilar bilan ajratilgan katta ekin maydoni; pol, chek.

Pirovardida – oxirida.

Prodyuser – kinokompaniyaning filmlar ishlab chiqarishda g‘oyaviy-badiiy va tashkiliy-moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi ishonchli kishisi.

Pud – 16,38 kg ga teng og‘irlik o‘lchov birligi.

Qadoq – qadimgi og‘irlik o‘lchov birligi.

Qo‘qqisdan – hech kutilmaganda, bexosdan, to‘satdan.

Qonun – davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan qoidalar.

Quloch – yelka balandligida kerilgan har ikki qo‘lning o‘rta barmoq uchlari orasidagi masofa.

Qurg‘oqchilik – yog‘in-sochin me’yoridan juda kam bo‘lgan, qurg‘oq sharoit.

Rejissyor – sahna yoki kino asarini sahnalashtiruvchi badiiy rahbar; asarni tayyorlash, sahnaga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy ishlarning tashkilotchisi.

Rishta – ikki narsa, kimsa, hodisa va shu kabilarni o‘zaro uzviy bog‘lovchi vosita; bog‘lanish.

Spiker – bir qator mamlakatlar parlamentlarida parlament raisi yoki palata raisi.

Ssenarist – kino va televideniyeda ko‘rsatish maqsadida yozilgan adabiy-dramatik asar yozuvchisi.

Stimul – biror ishga qiziqish tug‘diradigan, rag‘batlantiradigan, undaydigan narsa, omil.

Studiya – ovoz yozish va suratga olish maqsadida jihozlangan ish joyi.

Sud – muayyan fuqaroviy nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko‘rib chiquvchi – odil sudlovni amalga oshiradigan davlat organi.

Sur’at – ish-harakat, voqea-hodisa, jarayon va shu kabilarning jadallik darajasi; tezlik.

Tanob – maydon o‘lchov birligi.

Tanti – mard, ko‘ngli va qo‘li ochiq odam.

Tarh – qurilish, imorat, bog‘ning bichimi, loyihasi, chizmasi.

Tarjimayi hol – kishining o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida yozilgan bayon.

Telekanal – televideniye orqali turli xil teledasturlarni uzatadigan tarmoq.

Tirinka – ustkiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarimjun gazlama.

Veterinar – hayvonlarning kasalliklari, ularning oldini olish usullari hamda ushbu kasalliklarni davolovchi mutaxassis.

Xalq – muayyan mamlakatning aholisi.

Xiyol – bilinar-bilinmas darajada, ozgina, biroz.

Xolesterin – organizmda, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarida bo‘ladigan va hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan yog‘simon modda.

Shou dastur – ommaviy tomoshabinlar va tinglovchilarga mo‘ljallangan dabdabali, televizion yoki konsert dasturi.

Chaqirim – metrik o‘lchov birligi qabul qilingunga qadar qo‘llangan, 1,06 kilometrga teng qadimgi uzunlik o‘lchov birligi.

Chirk – qalinlashgan kir, yag‘ir.

Chit – paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama.

Chodir – matodan qurilgan kapa; palatka.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

ONA TILI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
6-sinfi uchun darslik

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Rassom *Aziz Jabborov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Dizayner va sahifalovchi *Oloviddin Sobir o‘g‘li*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi _____ Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 26,04 Nashriyot-hisob tabog‘i 24,25
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.